Risklarni baholash usulining hozirgi kundagi eng zamonaviy usullaridan biri VaR (Valuye at Risk) orqali amalga oshiriladi. VaR – bu statistik jihatdan yondashuv bo'lib, bu orqali risklarni baholash jarayonida ehtimolliklar taqsimoti asosiy tushuncha hisoblanadi. Bu ehtimolliklar bozordagi har qanday iqtisodiy omillarning qiymatlari bilan bog'liq holda baholanadi. Bu usul orqali moliyaviy risklarni baholash murakkab matematik formulalar orqali amalga oshiriladi. Bu usuldan hozirga kunda rivojlangan davlatlarda juda keng qo'llanilmoqda. Sug'urta faoliyatidan foydalangan holda risklarning oldini olish moliyaviy risklarning olidini olishning eng asosiy usullaridan biri bo'lib qolmaqda.

3. Moliyaviy risklarni baholashda matematik usullardan foydalanish

Risklarning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan omillarini baholash va oldini olish jarayonida bir qancha matematik usullar mavjud bo'lib, bu orqali kompaniyalarning

aksiyalari qiymatini baholash da risklarning ta'siri doirasini oldindan aniqlash imkonini beradi.


Maliyaviy risk va daromad o'rtasidagi bog'liqlik jarayonining birinchi bosqichida ehtimolliklar taqsimoti yotadi. Ehtimolliklar taqsimoti belgilangan ma'lum bir oraliqlarda, kutilayotgan daromadning qiymatini oldindan aniqlash imkonini beradi. Risk ehtimollik ko'rsatkichi bilan qanchalik bog'liq bo'lsa, fakt bo'yicha olingan daromad qiymatidan doimo kichik bo'ladi.

Ehtimollikni kutilayotgan foydaning qiymati bo'yicha taqsimlanishi har hil bo'lib, shulardan asosiysi uzluksiz ko'rinishidir. Ehtimollikning uzluksiz taqsimlanishi bir necha hil ko'rinishda namayon bo'ladi:

1. Ehtimollikning tekis taqsimlanishi;

2. Ehtimollikning uchburchakli taqsimoti. Bu hlatda asoiy etibor kutilayotgan daromadning o'rtacha qiymatiga qaratiladi.

Masalan, -5 dan 15 oraliqdagi ehtimollikni Uchburchakli taqsimot bo'yicha qaraydigan bo'lsau o'rtacha qiymatga yaqin bo'lgan son 10 tashkil qiladi.



Эҳтимолликнинг текис тақсимланиши графиги

X- kutilayotgan daromad qiymati o'qi, Y – ehtimollik taqsimoti qiymati o'qi.

Ehtimollikning tekis taqsimlanishi grafigi Berilgan ma'lumot asosida uchburchakli usul orqali hisoblash formulasini keltirib chiqaramiz:

(quy chegar + ehtimollikka yaqin chegar + yuqori chegara) :3 yoki

$$(X_1 + X_2 + X_3) : 3$$

Demak (-5;15) oraliqdagi kutilayotgan daromad 6.67%ni tashkil qiladi, (0;10) oraliqda esa 5%ni tashkil qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Moliyaviy risklarni baholash xususiyatlari?
2. Moliyaviy risklarning guruhlanishi?
3. moliyaviy risklarning o'zaro bog'liqligi?
4. Statistik ma'lumotlar asosida yuzaga keladigan axborotlarni oldinigi yilga nisbatan tahlil qilish masalalari?
5. Nazariy jihatdan tahlil qilishning mohiyati nima?

11-mavzu. RISK QIYMATI (VAR) METODOLOGIYAS REJA

- 11.1. Valuye at Risk haqida tushuncha;
- 11.2. VaRni hisoblashda qo'llaniladigan metodlar;
- 11.3. VaR va Monte-Karlo modelini qo'llashdagi munozara;

11.1. Valuye at Risk haqida tushuncha

Risklarni baholash usulining hozirgi kundagi eng zamonaviy usullaridan biri VaR (Valuye at Risk) orqali amalga oshiriladi. VaR – bu statistik jihatdan yondashuv bo'lib, bu orqali risklarni baholash jarayonida ehtimolliklar taqsimoti asosiy tushuncha hisoblanadi. Bu ehtimolliklar bozordagi har qanday iqtisodiy omillarning qiymatlari bilan bog'liq holda baholanadi. Bu usul orqali moliyaviy risklarni baholash murakkab matematik formulalar orqali amalga oshiriladi. Sug'urta faoliyatidan foydalangan holda risklarning oldini olish moliyaviy risklarning olidini olishning eng asosiy usullaridan biri bo'lib qolmaqda.

So'nggi o'n yilliklar ichida, risk menejmenti moliya nazariyasining alohida sohasi sifatida tan olinadigan darajaga yetdi. Risk menejmenti industriyasining rivojlanishi 70 yillardagi moliya bozoridagi yuqori tebranishlar bilan hamohang tarzda yuz berdi. VaR risk menejmentida riskni qabul qiluvchilar faoliyati natijasini baholashda va moliya bozorlarini tartibga solish talablarini ishlab chiqishda qo'llaniladi. VaR har qanday kompaniyaning faoliyatida qo'llanish imkoniyatiga egaligiga qaramasdan, u asosan tijorat va investisiya banklari tomonidan, muayyan davrda moliya bozorida savdo qilinadigan investisiya portfelidagi yo'qotishlar ehtimolini hisoblashda qo'llaniladi. VaR moliyaviy tahlilchilar bozor riskini baholashda qo'llaydigan standart o'lchovga aylangan. Aniq hisob kitoblarni amalga oshirish imkoniyatini beradigan metodologiyani ishlab chiqish juda muhim bo'lgani bois, metodologiyalarni ularning negizini tashkil qiluvchi farazlarni va mantiqiy ziddiyatlarni e'tiborga olgan holda hisoblanishini baholash ushbu tadqiqotning bosh maqsadidir.

Moliya bozori tebranishlari moliyaviy aktivlar taqsimotining, moliyaviy aktivlar narxlarining aniqlanishining va risk menejmentining nazariyasi va amaliyotida muhim o'rin tutadi. Ushbu tadqiqot SMA va eWMA modellarining turli ko'rinishlari va tebranishlariga e'tibor qaratadi. Zamonaviy portfel nazariyasi aksiyalar bozori va qaytimni o'zaro bog'laydi. Tebranishlar qaytimning o'zgaruvchanligi orqali hisoblanadi, lekin investorlar odatda bunday hisoblanishni tan olishmaydi. Chunki, bu usul o'rtacha qaytimning og'ishlariga bir xil vazn beradi, aslida ba'zi tahlilchilar riskni kichik yoki salbiy qaytimlarga asoslangan holda hisoblaydilar. So'nggi o'n yilliklar ichida VaR ning hisoblanishi amaliyotda o'z-o'zini shakllantirib bordi. Shunga binoan, ushbu tadqiqot VaR ning risk menejmenti instrumenti sifatida qo'llanishiga doir munozaralarga o'z hissasini qo'shadi. Varning uchta muhim elementlari bor, ular: yo'qotishning maxsus darajasi, risk baholanadigan davr va ehtimollik intervali. VaR individual aktivlar uchun ham moliyaviy aktivlar portfeli uchun ham butun bir firma uchun ham ixtisoslashtirilishi mumkin. VaR SMA va eWMA modellaridan foydalangan holda 3 ta rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya) va 4 ta rivojlanayotgan mamlakatlar (Serbiya, Sloveniya, Xorvatiya va Makedoniya)

ko'rsatkichlari asosida hisoblangan. Nihoyat, ushbu tadqiqotning maqsadi VaR ni hisoblash metodlarining izchilliginiva aniqligini ko'rsatish bo'lgani uchun, Binar yo'qotish funksiyasi qo'llangan.

Riskni baholash yoki riskning qiymati (VaR) asosan bozor riski bilan bog'liq bo'ladi. VaR zaif aktivlar qiymatining o'zgarishi risk darajasini anglatadi. Ya'ni u aktivlar bahosida noma'lum o'zgarishlar sababli paydo bo'ladigan yuqotish riskini anglatadi. VaR tartibga soluvchilar va amaliyotchilar uchun ajoyib yondashuvdir, chunki bu ko'rsatkichni tushunish oson va ma'lum bir risk darajasini bartaraf etish uchun kerakli bo'lgan kapital miqdorini taxminan hisoblab beradi. Bu ko'rsatkichning yana boshqa bir ustunligi portfel diversifikatsiyasi ta'sirini o'z ichiga olish imkoniyatidir. VaR ning statistik ta'rifi shundan iboratki, u har kun, har hafta yoki har oyda eng yuqori darajadagi yo'qotishni hisoblab beradi. Boshqacha aytganda, VaR – bozor riski jihatidan moliyaviy aktivlarning yoki portfelning statistik yig'indisidir. Ko'zlangan sharoitda VaR muayyan darajadagi maksimum yo'qotishlarni o'lchaydi. Firmalar ko'plab risklarning har xil turlari shu jumladan, bozor risklari, kredit risklari, likvidlilik risklari, operasion risklar va huquqiy risklar bilan yuzlashadi. VaR aktivlar qiymatining tebranishi yoki o'zgarish darajasi sababli bozor risklarini baholash uchun dastlab rivojlandi. Linsmeir va Pearson VaR uchun quyidagi ta'rifni berishadi:

“Ehtimollikni x foiz va davr t kun deb olsak, kompaniyaning VaR i t kun mobaynidagi yo'qotishning x foiz ehtimolligiga aytiladi.” Bozor risklari 4 klassga: foiz risklari, aksiya qiymati risklari, kurslarni ayirboshlash risklari va tovar qiymati risklariga bo'linadi.

VaR orqali ifodalanadigan asosiy fikr shuki, u portfel riskini oddiy miqdriy jihatdan baholab beradi. VaR ikki muhim va ajiyib xarakteristikani ifodalaydi. Birinchidan u, turli pozisiyalar va instrument turlari uchun riskni izchil umumiy baholab beradi. Ikkinchidan, u har xil risk faktorlari orasidagi korrelyasion hisobni o'z ichiga oladi. Bitta instrumentga qaraganda portfel uchun riskni hisoblash albatta bu muhim xususiyatdir. Tasavvur qilaylik, aktivlar daromadlilik o'rtacha taqsimlangan bo'lsin, unda VaR ning grafigi **1 chizma**dagidek tasvirlanishi mumkin.




Figure 1: VaR for normal distribution. The graph illustrates Value at Risk for two different confidence levels when portfolio returns are normally distributed.

VaR ning matematik ta’rifi quyidagicha:

$$VaR_{\alpha} = \alpha * \sigma * W$$

Bu yerda α – tanlangan ehtimollik darajasini, σ – portfel qiymatining standart tebranishini va W – portfelning boshlang‘ich qiymatini anglatadi. Misol uchun, portfelning boshlang‘ich qiymati 100 mln yevro, portfelning yillik daromadliligi 20% tebranishda bo‘lsin. O‘ninchi kunda bu portfel uchun VaR 99% ehtimollik darajasida bizga quyidagicha natijani hisoblab beradi:

$$VaR_{99\%} = -2.33 * 20\% * \sqrt{\left(\frac{10}{250}\right)} * €100M \approx -€9.3M$$

Bu funksiyada kvadrat ildiz ostidagi 10/250 soni, 1 yilda bo‘lgan 250 savdo kunlari 10 kun davr oralig‘ida bo‘lgan degan farazni ifodalaydi. Ko‘rganimizdek, agar umumiy me’yor qabul qilingan bo‘lsa, VaR ni hisoblash juda oddiy. VaR ko‘rsatkichini izohlayotganimizda, vaqt garizontini va ishonch darajasini hisobga olishimiz zarur. Zero, bularsiz VaR ma’nosiz tushunchaga aylanadi. Investisiya portfelining aktiv savdosi bilan shug‘ullanuvchi firmalar, masalan moliyaviy firmalar 1 kunlik vaqt garizontidan foydalanishadi. Institusional investorlar va nomoliyaviy korporatsiyalar esa uzoqroq vaqt garizontini ma’qul ko‘rishadi. Daudning ta’kidlashicha, firmalar vaqt orlig‘ini o‘z portfellarining likvidlashtirish davriga qarab tanlashlari zarur. Boshqa tarafdin qaraganda, kalkulyasiya metodlari ham hisobga

olinishi zarur. Masalan, agar normal tahminli metodlar qo'llanilsa, unda nisbatan qisqa davrli vaqt garizonti tanlanadi. Ehtimollik darajasi tanlovi esa ixtiyorimizdagi maqsadga bog'liq bo'ladi.

Agar maqsad ushbu tadqiqotdagidek VaR modelini o'rganish bo'lsa, yuqori ehtimollik darajasidan qochish lozim, chunki shunda VaR dan tebranishlarni tahlil qilish mumkin. Kapital yetarliligini baholashda, ehtimollik darajasi boshqaruvchining riskka munosabatiga bog'liq, riskdan qochuvchi menejerlar aniqroq ehtimollikni ma'qul ko'rishadi. Masalaning yana bir jihati shundaki, VaR ni boshqa hisob-kitob manbalari bilan solishtirish imkoniyatini hisobga olishdir.

VaR ning fundamental ko'rsatkichlari quyidagilar:

- Ehtimollik darajasi (ehtimollik darajasi bu yo'qotishlarning prognoz qilinganidan kamroq darajadagi ehtimollikni bildiradi)
- Ehtimollik oralig'i (VaR hisoblanadigan vaqt oralig'i)
- O'zgaruvchanlik

11.2. VaRni hisoblashda qo'llaniladigan metodlar.

VaR –juda oson va intiyutiv konsepsiya bo'lishiga qaramasdan, uning hisoblanishi juda qiyin statistik muammodir. VaR ni hisoblash usullari odatda parametrik va noparametrik modellarga bo'linadi. Parametrik modellar risk omili taqsimlanishining statistik ko'rsatkichlari asosida bo'ladi, noparametrik model esa simulyasiya yoki tarixiy modellardir.

Odatda VaR ning hisoblashda qo'llaniladigan metodlar 3 ta kategoriyaga bo'linadi:

- Tafovut – qoplash metodlari.
- Tasvirlash metodlari.
- Eng ko'p qiymat nazariyasi metodlari.

Tafovut-qoplash yondashuvi parametrik yondashuv hisoblanadi. Bu faraz bozor parametrlarida o'zgarishlar va portfel qiymati me'yoriy taqsimlanishiga asoslanadi. Me'yoriylik farazi faqat oddiy chiziqli instrumentlardan tashkil topgan portfel uchun eng asosiy va oddiy yo'ldir. Birinchi qadamda oddiy va standartlashgan bozor instrumentlari majmuiga individual investisiyalarni yo'naltirilsagina tafovut-qoplash yondashuvi amalga oshadi. Bu standartlashgan bozor instrumentlarida har bir instrument pozisiyalar majmuidek keyin ifoda etiladi. Masalan, 10 yillik kuponli obligatsiyani 10 zero kuponli obligatsiyalarga bo'lish mumkin. Bu instrumentlarning tafovut va qoplanishlari baholanishi zarurligi standartlashgan bozor instrumentlaridan so'ng aniqlanadi. Statistik ma'lumotlar odatda tarixiyo ma'lumotlarga qarab olinadi. So'ngi qadamda baholangan standartlashgan pozisiyalardagi og'irliklar, tafovut va qoplashlardan foydalanish orqali portfel uchun VaR raqamlarda hisoblanadi. Tafovut – qoplash yondashuvining ustunligi uning soddaligidadir. Agar VaR darajasini hisoblashda normal taqsimlashning standart matematik xususiyatlaridan foydalangandek me'yoriylik ustunlik qilsa, VaR ni hisoblash nisbatan oson bo'ladi. Bundan tashqari, me'yoriylik har xil o'tuvchi davrlar va ehtimollik darajalari orasida oson ko'chiruvchidir. Ushbu metodni amalga oshirish oson bo'lishiga qaramay,

shuningdek me'yoriylik sharti ba'zi muammolarga sabab bo'ladi. Ko'pgina moliyaviy aktivlar "semiz dumli" daromad taqsimotlari nomi bilan mashxur. Bu ibora normal taqsimotlar beradigan natijalardan ko'ra juda ko'p foyda keltiradigan aktivlarga nisbatan qo'llaniladi. Natijada VaR ning hisoblanishi o'z muhimligini yo'qotishi mumkin. Agar portfel opsionlar kabi, egri chiziqli risk o'zgaruvchilariga ega instrumentlarni o'z ichiga olsa, muammo yanada kattalashadi. Ushbu masalaning bir yechimi ushbu instrumentlar daromadlilikini taqribiy tekislash va VaR ni chiziqli tahminiyy hisoblashdir. Bu metod deltanormal yondashuvi deb ataladi. Biroq deltanormal yondashuvning kamchiligi shundan iboratki, u faqat portfelning egri chiziqliligi chegaralangan holatdagina ishlaydi. BrittenJons va Shkifer kvadratik VaR metodlarini taklif qilishadi. Bu metodlar deltogamma metodlari nomi bilan ham ma'lum. Delatanormal metodlarining afzalliklari ravshan, ammo shu bilan birga bu metodda asosiy tafovut-qoplash yondashuvi yo'qotiladi.

Tarixiy simuliatsiya. Endi noparametrik metodlarga to'xtalsak, tarixiy simuliatsiya – amalga oshirish uchun eng qulay yondashuvdir. Bu mantiqan juda oddiy, joriy portfel VaR ni hisoblash uchun tarixiy bozor ma'lumotlaridan foydalaniladi. Tarixiy simuliatsiyaning birinchi qadami bu portfeldagi instrumentlarni aniq davrda ushbu instrumentlar uchun vaqt seriyalarini qulga kiritishdir. Keyin joriy portfelda taxminiy daromadliklarni keltirib chiqarish uchun vaznlardan foydalaniladi. Ushbu taxminiy daromadliklar joriy portfel kuzatilayotgan davrda o'zgartirilmaydi degan farazdan kelib chiqadi. VaR hisob – kitoblari portfel daromadlilikiga gistogrammasidan ham ko'rinishi mumkin. Ushbu metod ortidagi faraz shundan iboratki, tarixiy daromadliklarning taqsimlanishi keyingi davrlardagi daromadlarning qaytishi sababi sifatida qaraladi. Tarixiy simuliatsiya oddiyligi bois rad etib bo'lmaydigan ustunlikka ega. U statistik taqsimot haqida hech qanday faraz keltirib chiqarmaydi yoki tebranishlar va korrelyasiyalarni hisoblanishini talab qilmaydi. Bunda kerak bo'ladigan narsa, bu portfelning vaqt seriyalaridir. Eng muhimi tarixiy simulyasiya daromadligi taqsimlanishining semiz dumlari uchun ham qo'llanishi mumkin. Bu metod har qanday instrument uchun qo'llaniladi va to'liq baholashdan foydalaniladi. Biroq tarixiy simulyasiya turli tomonlardan nuqsonlarga ham ega. Ushbu metod bilan bog'liq keng tarqalgan muammo bu ehtimollik darajasining tanqisligidir. Bu qiyinchilik yangi instrumentlar bozorga kirib keoganda yuzaga keladi. Ushbu fakt uchchula hisoblao' usuliga xos bo'ladi. Bu narsa tarixiy simulyasiya metodiga katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki bu metodda VaR butunlay tarixiy ma'lumotlarga tayanadi. Yana bir muammo shundaki, agar tarixiy kuzatish vaqt oralig'iga kirsas, unga bitta vazn beriladi. Agar kirmasa 0 vazn beriladi. Agar ma'lumotlar to'plamidan biror bozordagi katta o'zgarish tushib qolsa, VaR ning hisoblanishiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu muammolarga ma'qul yechim shundan iboratki, oldinroqda amalga oshirilgan kuzatishlarga kamroq vazn berishdir.

11.3. VaR va Monte-Karlo modelini qo'llashdagi munozara.

Monte-Karlo modeli boshqa bir noparametrik metoddir. Murakkab va kuchli VaR sistemasiga ehtiyoj borligi sababli, u juda mashxur yondashuv hisoblanadi. Lekin uni

ham bir tomondan amalga oshirish juda qiyindir. Monte-Karlo modeli jarayonini 2 qadamda amalga oshirish mumkin. Birinchidan, moliyaviy o'zgaruvchilar uchun tasodifiy jarayon belgilanadi va korrelyasion va tebranishlar tarixiy ma'lumotlar yoki bozor asosida baholanadi. Ikkinchidan, barcha moliyaviy o'zgaruvchilar uchun narh yo'llari modellashtiriladi. (ming marotaba) Bu narx realizatsiyalari daromadlarni umumiy taqsimlash uchun jamlangandan so'ng, VaRni ehtimolliklarini hisoblash mumkin bo'ladi. Bu metod opsiyalarga o'xshash, chiziqsiz instrumentlarni ham qamrab oladi. Monte-Karlo modelining eng zarur muammosi uni hisoblash vaqtidir. Bu metodda ayniqsa katta portfellar uchun VaR hisoblansa, juda ko'p ma'lumotlarni talab qiladi. Shunday qilib bu metodni amalga oshirish moliyaviy tomondan qimmatga tushishi mumkin. Shunday bo'lsada, kompyuterda hisoblash xarajatlari kamaygan sari, kelajakda Monte-Karlo metodining mashxurligi o'sib boradi. Risk modelining potensial zaifligi shundaki, agar asosiy sxalastik jarayonlar va narxlar modeli haqida noto'g'ri taxminlar vujudga kelishi mumkin. Agar bu ko'rsatkichlar to'g'ri ko'rsatilmagan bo'lsa VaR prognozi noto'g'ri hisoblanadi. Bundan tashqari bu metod murakkab proseduralar bilan bog'liq maxsus tajriba talab qiladi.

Monte-Karlo usuli – bu loyiha sezgirligini tahlil qilish usuli va ssenariylar usulining uyg'unlashtiruvchi usul bo'lib, uni asosi bo'lib ehtimollar nazariyasi xizmat qiladi. Agar ssenariylar tahlilida mutahassis uch xil variantdagi ssenariy tuzsa, Monte-Karlo usulida bu variantlar soni 500 ta va minglab ssenariylarni tashkil etadi. Ba'zi bir (yoki bir nechta) loyiha parametrlarini o'zgartirib tahlilchi ularni uchta variantdan ko'rib chiqadi va har bir variantga loyiha natijasini hisoblab chiqadi. Ushbu natijalar yig'indisi asosida qaror qabul qilinadi.

Bu usulni yana immitasion modellashtirish yoki statistik modellashtirish deb ham atashadi. Immitatsiya deganda ushbu loyihani ma'lum parametrlarini va shart-sharoitlarini o'zgartirib, loyihani turli xil variantlari yaratish, amaliyotdagi vaziyatni immitatsiya qilish tushiniladi. Barcha immitatsiyalar natijasi statistik usulda son jihatidan hisoblab chiqiladi. Monte-Karlo usuli tashqi omillarni o'zgarishini maksimal darajada hisobga olinishini ta'minlaydi.

Monte-Karlo usulini qo'llashda zamonaviy kompyuter texnologiyalari bo'lishi zarur. Ularsiz hisob-kitoblar juda ko'p vaqtni oladi va mutaxassis bu murakkab jarayonda xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Ulardan Risk Master, @Risk, Crystall Ball va boshqa kompyuter dasturlari tahlilga katta yordam beradi. Ko'p hollarda kompyuterlarni o'zi bir nechta parametrlarni o'zgargan miqdorini olib, loyihaning tasodif variantlarini ishlab chiqadilar.

Monte-Karlo usulining asosiy bosqichlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Usul modelini tayyorlash, ya'ni tahlil uchun asos qilib olingan ko'rsatkichlarni (NPV, IRR, sof foyda, naqd pul oqimi yoki boshq.) matematik ko'rinishini kompyuterga kiritish lozim;
2. Ehtimollarni taqsimlash bosqichi, ya'ni parametrlarni o'zgarish chegaralarini va ehtimollik qonuniyatlarini aniqlash;
3. Korrelesiya shartlarini belgilash – o'zgaruvchan miqdorlarni o'zaro bog'lanishini ko'rsatib berish;

4. Immitatsiya natijalarini yig'ish;
5. Natijalarini statistik tahlil qilish.

Har bir loyiha ssenariysi ma'lum ehtimol miqdorini anglatadi.

Masalan, loyiha bo'yicha kompyuter 500 ssenariy tuzgan bo'lsa, ularning har bittasi vujudga kelish ehtimoli 0,2% teng.

$$R=100/n$$

n- ssenariylar soni;

r-ssenariy ehtimoli.

Agar 5000 ssenariy tuzgan bo'lsa, ehtimollik ko'rsatkichi 0,02% teng.

Agar ushbu 500 ta ssenariylar ichida 304 tada NPV noldan yuqori bo'lsa, 60,8% ehtimoli bilan loyiha samarali bo'lishi kutilmoqda va risk 39,8% variantni tashkil qiladi.

Bu usulning afzalliklari deb quyidagilar hisoblanadi:

- bozorni turli ko'rinishlari va o'zgarishlarini modellashtirish imkoniyati;
- modellarni kengaytirish imkoniyati va vaqt bilan chegaralanmaganligi (faqat loyiha xayoti davrida emas);
- tashqi omillarni barchasini hisobga olish imkonini beradi.

Usulni kamchiliklari:

- hisob-kitoblar serquvvat kompyuter programmalarini talab qiladi;
- tahlilchi ma'lum matematik va statistik bilim va tushunchalarga ega bo'lishi lozim;
- xatolar ehtimoli mavjudligi.

Ko'p xollarda tahlil natijalari bo'yicha diagramma yoki gistogramma tuziladi.

Ularda tahlil natijasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

5. Risk qiymatini mohiyati nimada?
6. Risklarni pasaytirish usullarini izohlang?
7. Monte Karlo usulining mohiyatini nimada?
8. VaR va Monte Karlo metodlarining farqli jihatini ko'rib chiqing.

12-mavzu. BLEK-SHOULZ VA MARKOVIS MODELLARI REJA

- 12.1. Blek-Shoulz ("Black-Scholes Model") modeli haqida tushuncha;
- 12.2. Blek-Shoulz modelida opsiyonlar narxlarning shakllanishi va hisoblash formulasi;
- 12.3. Blek-Shoulz modelida nazarda tutilishi lozim bo'lgan omillar;
- 12.4. Markovis portfeli nazariyasi va uni hisoblash formulasi.

12.1. Blek-Shoulz ("Black-Scholes Model") modeli haqida tushuncha

1997 yil oktyabrda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti Robert Merton (Robert Merton) va Mayron Shoulzlarga (Myron Scholes) berildi. Laureatlarni aniqlash qo'mitasi mazkur mukofotni yana bir olim Blek Fisherga ham berish taklifini ilgari surdi lekin 1995 yil uning 57 yoshidagi bevaqt o'limi mazkur mukofotga ega bo'lish

imkonini bermadi. Bu uchta olimlar opsionlar va boshqa hosilaviy instrumentlarning qiymatini hisoblash matematik formulasining ixtirochilari hisoblanishadi va mazkur ixtiro moliya amaliyoti hamda nazariyasining oldinga siljishida muhim o‘rin egalladi. Bu formula hozirgi kunda Blek-Shoulz formulasi sifatida taniqli hisoblanadi. (Black-Scholes option pricing formula).


Bunday formulaning yaratilishi hosilaviy instrumentlarga bo‘lgan qiziqishning oshishi hamda opsionlar bilan savdoning keskin o‘shishiga olib keldi. Blek-Shoulz formulasini 1973 yilda e‘lon qilinishi opsionlarning narxlarini sub’yektiv-intuitiv aniqlashlardan qochish va mazkur nazariyaga asosan boshqa hosilaviy instrumentlarni ham narxini hisoblash imkonini berdi. 70 yillar boshlarida hosilaviy instrumentlarni hisoblashda matematikaning qo‘llanilishi revolyusion hisoblanardi.

Sug‘urta, fond bozorida savdolar, investisiyalarda yuzaga keladigan risklarni boshqarishning zamonaviy nazariyasi kelajakni oldindan aytish uchun matematik metodlardan foydalanishga asoslanadi. Albatta mazkur natija 100 % aniqlikda bo‘lmasa ham investision qaror chiqarish uchun yetarli darajada xulosa berish uchun yetarli hisoblanadi. Moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirish qo‘yidagi tamoyilga asoslanadi: siz qanchalik katta riskni olishga jur‘at qilsangiz shunchalik katta mukofotni kutishingiz mumkin. Matematikaning qo‘llanilishi riskni aniq miqdorda hisoblanishi imkonini bermasa ham investor uchun o‘ziga qabul qiladigan riskning darajasi hamda kutiladigan mukofot qiymati to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Bu formula evropa variantlari (opsionlari)ni moliyaviy narxini nazariy hisoblash uchun savdogarlar va investorlar tomonidan jahon moliya bozorlarida ishlatiladi.

formula kuzatilgan bozor narxlariga juda yaqin narxlarni chiqarib beradi. Blek-Shoulz formula murakkab matematika talab qilmaydi. Yaxshiyamki, uni ishlatish uchun savdogarlar va investorlarga matematikani puxta bilish kerak emas.

Ular moliyaviy hisobni zaruriy tushunchalarinigina bilib olishlari kerak holos. Buning uchun zarur omillari:



Modelning afzalligi

- Blek-Skoulz model opsianni hisoblash davomida dividendlarni o‘z ichiga olmaydi;
- Bugun, ushbu model bir necha qiymatli opsioblarni tez va yaqin ehtimollikda hisoblab beradi;
- Ushbu model berilgan vaqt davomida kelajakda kutiladigan narx harakatini oldindan aniqlaydi.

12.2. Blek-Shoulz modelida opsioblarning narxlarning shakllanishi va hisoblash formulasi.

Option quyidagi funksiyalarning ketma-ketligi sifatida qaraladi:

Bazaviy aktivning qiymati va strayk narxi (amalga oshirish qiymati). Option qiymatiga ta’sir etuvchi muhim omil bo‘lib aktivning opsioblarni hamda strayk qiymati o‘rtasidagi nisbat hisoblanadi. Bu nisbat opsioblarning darajasini (“pulda” yoki “pulsiz”) hamda opsioblarning ichki qiymati (bazaviy aktivning koll va put opsioblarning strayk qiymatidan katta yoki kichikligini) aniqlaydi. Opsioblarning amalga oshirishiga qolgan muddat. Vaqt opsioblarni sotib oluvchiga qarshi ishlaydi ya’ni pulsiz opsioblarning narxi uning amalga oshirish vaqti yaqinlashgan sari tushaveradi. Bu effekt «vaqt tomonidan buzilishi» deb ataladi (time decay). Opsioblarning amalga oshirishiga uzoq muddatning borligi katta miqdordagi noaniqlikdan dalolat beradi.

Tebranishlar darajasi. Bu ko‘rsatkich bazaviy aktivning narxlarning tebranishlariga ta’sirchanligini ko‘rsatadi. Puldagi opsioblarning mukofoti bazaviy aktivning narxdagi noaniqliklarga to‘g‘ri proporsional hisoblanadi.

Dividendlar. Dividendlarining oshirilishi koll opsioblarning narxini tushishi va put opsioblarning narxining ko‘rarilishiga olib keladi, sababi dividendlar to‘lovi opsioblarni asosida turgan aksiyalarning narxini dividend miqdorida kamaytiradi. Dividendlar

aksiyalarni sotib olish va saqlashni naqd mablag'larni koll opsio bilan sotib olish va saqlab turishdan ko'ra jozibadorligini oshiradi. Aksincha qisqa muddatda sotuvchilar dividendlar to'lovini nazarda lozim shu sababali aksiyalarni qisqa muddatda sotishdan ko'ra put opsionlarni sotib olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foiz stavkalar darajasi. O'suvchi foiz stavkalari bazaviy aksiyalarning forward narxini oshiradi ya'ni opsion davrida aksiya narxi va risksiz aktivlar stavkasi yig'indisi. Modelda forward narxi deganda opsionning muddati tugaganda aksiyaning narxi tushuniladi.

Opsionlarning xaridorlar uchun jozibadorligini quyidagicha izohlash mumkin, xaridorga mumkin bo'lgan zararni miqdori ma'lum bo'ladi-bu esa opsion uchun to'lanadigan mukofot hajmi hisoblanadi, bu holda nazariy jihatdan maksimal daromad chegarasi chegaralanmagan bo'ladi, opsion muddati davomida bazaviy aksiyaning narxi oshsa xaridor katta miqdordagi davromadga ega bo'lishi mumkin. Asosan narxlar keskin o'zgarib turuvchi aksiyalarga bo'lgan opsionlarga qiziqish yuqori masalan kompyuterlar uchun dasturiy ta'minotlar ishlab chiqaradigan kompaniyalar aksiyalari. Ko'pgina millionerlar o'zlarining mablag'larini o'zlarining yosh va muntazam o'sib boruvchi kompaniyalarning aksiyalaridagi opsionlar mukofotlaridan ishlab topganlar.

Formulaning kelib chiqish tarixiga qaytamiz. Opsion savdo endigina rivojlanayotgan bir davrda (opsionlarning Chikago birjasi 1973 yil aprelda Blek-Shoulz ishlarini e'lon qilinishidan 1 oy oldin ochilgan edi) opsionning haqiqiy bahosini matematik metodlar yordamida aniqlash sehirgarlik hisoblanardi. Avval boshida taklif etilgan modelning samaradorligi va natijasiga hatto eng malakali treyderlarda ham shubha uyg'otgan. Lekin murakkab matematika, odatiy bo'lmagan metod va stoxastik differensial tenglama sekin qo'llanila olish mumkinligini ko'rsatdi.

Blek-Shoulz formulasi nafaqat ishlay boshladi balki u butun bozorlarning transformatsiyasiga olib keldi. 1973 yilda Chikago opsionlar birjasining ochilgan kunida 1000 dan kam opsionlar amalga oshirilgan bo'lsa, 1995 yilga kelib opsionlarning kunlik miqdori million donadan ham ortib ketdi. Blek-Shoulz modelining bozor rivojlanishidagi roli shunchalik muhim bo'ldiki 1978 yilda birjada o'g'irlik sodir bo'ldi va bunda mashhur Forbes jurnali aynan formulani aybdor deb ko'rsatdi. Shoulz esa mazkur aybnomaga javoban formulani aybdor deb tan olish kerak emasligi balki undan foydalanuvchilarning bilim darajasini kamligida deb ko'rsatma berdi.

Formulaning yaratilishi Fisher Blek tomonidan warrantlar uchun baholash modelini yaratishga kirishishdan boshlandi. U hosilani warrantning diskon qiymati miqdorini narxni ma'lum muddatda o'zgarishiga qarab aniqlashda foydalanishga qaror qildi. Ishlab chiqilgan formula yaxshi taniqli bo'lgan issiqlik almashish formulasini eslatib yuborardi. Mazkur yangilikdan keyin Blekka Mayron Shoulz qo'shildi hamda ularning hamkorlikdagi ishining natijasida opsionlarning narxlarini shakllanish modeli yaratildi. Amalda ularning modeli Djeyms Bonesning doktorlik dissertatsiyasida ko'rsatilgan formulasining yaxshilangan varianti hisoblanardi. Blek va Shoulz tomonidan kiritilgan o'zgartishlar risksiz aktivlar prosent stavkasi aniq diskont

ko'paytuvchisi bo'lishi va ular investorlarning yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan ehtimollarini o'ziga oladigan risk tushunchasiga o'zgartirishga xizmat qildi.

Formulada to'rtta o'zgaruvchi ishtirok etadi: (1) opsiinning amal qilish muddati, (2) narx, (3) foiz stavkalari darajasi, (4) opsiyon uchun to'lanadigan mukofot yoki bozor tebranishlari darajasi.

$$C = SN(d_1) - Ke^{-rt}N(d_2)$$

C – koll opsiyon uchun nazariy mukofot darajasi; S – bazaviy aksiyalarning joriy narxi;

t - vaqt, opsiinning amalga oshirish muddatining yildagi ifodasi

(qolgan kunlar soni/365 kun);

K – opsiinni amalga oshirish narxi (strayk narx); r – risksiz aktivlar bo'yicha foiz stavkasi; N(x) – standart kummulyativ taqsimot; ye - eksponent (2,7183)

$$d_1 = \frac{\ln(S/K) + (r + \frac{s^2}{2})t}{s\sqrt{t}}$$

$$d_2 = d_1 - s\sqrt{t}$$

s – bazaviy aksiyalarning narxining yillik standart chetlanishi (tarixiy volatillik). Narxning standart chetlanishini qolgan kunlar sonini 260 (yil davomida savdo amalga oshiriladigan kunlar soni) dan ayirgan holad ko'paytmasini kvadrat ildizi orqali hisoblanadi ln - natural logarifm.

Modelning mohiyatini tushunish uchun uni ikki qismga bo'lamiz. Birinchi qism, SN(d1), eng bazaviy aksiyalardan kutidigan daromadni ifodalaydi. Uni hisoblash bazaviy aksiyalari qiymatini [S] koll opsiyonlar mukofotini bazaviy aktivlar kursini [N(d1)]o'zgarishiga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

12.3. Blek-Shoulz modelida nazarda tutilishi lozim bo'lgan omillar.

Opsion tugashiga qadar bazaviy aksiyalarga dividendlar to'lanmaydi. Ko'pgina kompaniyalar o'zlarining aksionerlariga dividendlar to'lashadi, shu sabali ushbu modelda mazkur omil yuqori darajadagi dividendlar koll opsiolar bo'yicha mukofot qiymatini tushirish yuborishini inobatga olganda juda muhim hisoblanadi. Bu holatda modelga tuzatishlar kiritish uchun oddiy yo'l bu bazaviy aksiyaning kelgusi qiymatidan diskontlashgan qiymatni ayirish hisoblanadi.

Yevropa opsiionlarida vaqtinchalik muddatlardan foydalaniladi. Yevropa opsiionlari faqatgina o'z muddatini oxirgi kunida amalga oshirilsa, amerika opsiionlari amal qilish muddatining hohlagan vaqtida amalga oshirilishi mumkin va bu amerika

opsionlarining egiluvchanligini sababli boshqalarga qaraganda jozibaliroq qiladi. Bu cheklov asosiy kamchiliklardan hisoblanmaydi chunki o'z muddatidan oldin amalga oshiriladigan koll opsionlar juda kam hisoblanadi. Bu holat bir qaraganda to'g'ri hisoblanadi chunki siz koll opsionni amalga oshirganizda uni amalga qilish muddatining qolgan qismidagi qiymatidan maxrum qilasiz va faqatgina ichki narx bilan chegaralanasiz. Opsionni amalga oshirishi muddati yaqinlagani sari uning vaqtinchalik qiymati kamayib boradi va ichki qiymat o'sha darajada qoladi.

Bozorlar samarali hisoblanishadi. Bu omil odamlar har doim ham bozorning yoki alohida olingan aksiyaning yo'nalishini oldindan aytib bera olishmsligi bilan izohlanadi. Fond bozori xarakati to'xtovsiz xarakat qonuni asosida ishlaydi deb hisoblanadi bunday to'xtovsiz jarayonning mohiyatini tushunish uchun Markov jarayoni bilan tanishish lozim-» t holatdagi kuzatish oldingi holatlardagi kuzatishlar natijasiga bog'liq bo'ladi». Jarayon Markov jarayonidan o'zining vaqt bo'yicha to'xtovsiz xarakat qilishi bilangina farq qiladi. Misol uchun rasm chizish davomiyligi bu qalamni qog'ozdan uzmasdan xarakat qilish demakdir. Aksiyaning narxiining to'satdan xarakatlanishi Blek-Shoulz modelining asosiy omiliisoblanai. U bozorning samadorligi nazariyasiga asosan shakllanadi, narxlarning tebranishi investorlarning bilimlari va kutishlarini to'liq ifodalaydi shu sababli trend yoki inersion aksiyalar mavjud bo'lmaydi. (trending stock or momentum stock – kuchli inersion sifatlarga ega bo'lgan aksiyalar). Bazaviy aksiyalarning joriy qiymatiga yaqin strayk qiymatga ega bo'lgan opsionlar baholanayotgan bozorda katta miqdorda sotilishi ob'yektiv holat hisoblanadi.

Yuqoridag holatlardan quyidagicha xulosaga kelish mumkin: agar opsionning bozor qiymati haqqoniy va ob'yektiv hisoblansa u Blek-Shoulz formulasida ko'rinadi va bunda volatillik noma'lum o'zgaruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli opsion bilan shug'ullanadigan ko'pgina investorlar mumkin bo'lgan «bozor volatilligi» (implied volatility) tushunchasini kiritadilar, ya'ni kam tebranuvchi opsionlarni sotib olib, bazaviy aktivga nisbatan nobarqaror o'zgarishga ega bo'lgan opsionlarni sotib yuborishadi.

Undiriladigan komision to'lovlarning yo'qligi. Odatda opsionlarning savdosida bozor ishtirokchilaridan ma'lum komission to'lovlar olinadi. Hatto zaldagi treyderlar ham oz miqdorla bo'lsa ham to'lovlarni amalga oshirishadi. Investorlarga to'lanadigan mukofotlar sezilarli miqdorda katta bo'lganidan modelni qo'llashda yuzaga keladigan natijadan chetlanish holatlari ham kuzatiladi.

Foiz stavkalari darajasi o'zgarmas bo'lib qoladi va avvaldan aniq bo'ladi. Blek-Shoulz modelida o'zgarmas va aniq bo'lgan o'zgaruvchi sifatida risksiz aktivlarning foiz stavkasi olinadi. Amaliyotda bunday risksiz aktivlarning foiz stavkasi bo'yicha aniq raqam mavjud emas va odatda bunday maqsadlar uchun so'ndirilishiga 30 kun qolgan kaznacheylik biletlari foiz stavkalari olinadi. Foiz stavkalarining tezda o'zgarish davrida 30 kunlik stavkalar ham o'zgaradi.

Model aksiya narxlarining lognormal taqsimlanishiga asoslanadi. Normal taqsimlanish modelning ajralmas qismi bo'lsa ham eksponentlar taqsimlanishni logronormal holatga kelttiradi. Normal taqsimlanishdan foydalanishning kamchiligi

shundaki u aksiya narxining salbiy ko'rsatkichlaridan foydalanish imkoniyatini beridi. Bunda lognormal taqsimotlan foydalanish aksiya qiymatining noldan cheksizlikka qadar bo'lgan intervalda o'zgarishini nazarda tutadi.

12. 4. Markovis portfel nazariyasi va uni hisoblash formulasi.

Markovis portfel nazariyasi (eng o'rtacha-varyasiya tahlil qilish - kutilgan o'rtacha qiymatlari va tasodifiy o'zgaruvchilar o'zgarishlar tahlili asosida yondashuv) - daromad / risk nisbatiga muvofiq aktivlarining optimal tanlash yo'naltirilgan investisiya portfelini, shakllantirish Garri Markovis usuli bilan ishlab chiqilgan. 1950 yilda ularni ta'riflab, g'oyalar zamonaviy portfel nazariyasi asosi bo'lgan.

Portfel nazariyasining asosiy qoidalarini, navbati bilan, 1950-1951 yilda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash bo'yicha Garri Markovis belgilagan edi.

Markovis portfelining nazariyasi ilk bor 1952 yili «Moliya jurnali»da "Portfolio Selection" mavzusida chop etgan. Unda, u birinchi muayyan sharoitlarda ostida ***optimal portfel va portfelni qurilish texnikasini matematik modelini taklif qildi.*** Markovis asosiy e'tiborni rasmiy matematik tilda optimal portfelini tanlash vazifasini o'tkazish uchun daromad va risk tushunchalarini taklif qilgan edi. Markovis nazariyasi yaratilishi davomida chiziqli va nochiziqli optimallashtirish asoschilaridan biri bilan birga, ya'ni Rand Corp bilan ishlaganini ta'kidlash lozim.

Markovis doimo uning nazariyasini takomillashtirish bilan shug'ullandi va 1959 yilda unga bag'ishlangan birinchi monografiya, "Portfelni tanlash: investisiyalarni samarali diversifikatsiya qilish" ni tadbqiq etadi.

1990 yilda, "Portfelni va kapital bozorini tanlashda matematik yo'llar" nomli kitobi uchun Markovis Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Model turli boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha bir vaqtning o'zida o'sish bor, ba'zi qimmatli qog'ozlarning hosildorligi oshishi bilan bog'liq qimmatli qog'ozlar va boshqalar daromadlilik koeffitsiyentlari aksincha, o'zgarishsiz qoladi, va daromad aslida asoslangan, ya'ni kamayadi. Bunda munosabatlar emas, deterministik, ya'ni aniq belgilangan korrelyasiya bor.

Markovis modelida quyidagi asosiy taxminlar bor:

- Daromadli qimmatli qog'ozlar daromadlilik taxminlar asosida qabul qilinadi;
- risksizlik va risk qaytishi standart og'ishi taxmin sifatida qraladi;
- risk va daromadni hisoblashda ishlatiladigan tarixiy ma'lumotlar, to'liq hosilaviy qimmatli qog'ozlarning kelajagini taxmin qiladi;
- chiziqli korrelatsiya koeffitsiyenti bilan qimmatli qog'ozlar o'rtasidagi munosabatlar ko'lam taxmin qilinadi.

Markovis portfel hosilaviy qimmatli qog'ozlar modeliga ko'ra - bir og'irli va o'rtacha daromadli qimmatli qog'ozlar, uning tarkibiy qismlaridir, u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$R_p = \sum_{i=1}^N W_i \cdot r_i,$$

Bu yerda:

N - portfelidagi qimmatli qog'ozlar soni; W_i - portfelidagi qimmatli qog'ozlar, salmog'i; R_i - qog'oz rentabelligi.

Portfelining o'rtacha standart og'ishi qimmatli qog'ozlar portfel riski bilan belgilanadi:

$$\sigma_p = \sqrt{\sum_{a=1}^N \sum_{b=1}^N (W_a \cdot \sigma_a \cdot W_b \cdot \sigma_b \cdot \rho_{ab})}$$

Bu yerda:

W_a, W_b - portfelidagi qimmatli qog'ozlarning ulishi; σ - Bu qimmatli qog'ozlar (standart og'ish) xavfi; ρ_{ab} - Chiziqli korrelyasiya koeffitsiyenti.

Markovis modeli asosiy kamchiligi - qimmatli qog'ozlar kutilgan daromadi oldingi davrlardagi o'rtacha hosildorligiga teng bo'lishi kerak. Shuning uchun, fond bozori rivojlangan davlatlarda Markovis modelidan samarali foydalanishadi, u fond bozorida hayot qisqa yoki uzoq davri bo'lgan, har xil turdagi qimmatli qog'ozlari portfelini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat uchun savollar:

1. Blek-Skoulz modeli afzalliklarini tushuntirib bering;
2. Markovis portfel nazariyasi va uni hisoblashni tushuntirib bering;
3. Blek-Skoulz modelida nazarda tutilishi lozim bo'lgan omillarni izohlang.

13-mavzu. BOZOR RISKILARINI BOSHQARISH

- 13.1. Bozorlarda faoliyat yuritish bilan bog'liq risklarni hisobga olish va baholashning ahamiyati;
- 13.2. Bozor risklarining turlari va mohiyati;
- 13.3. Bozor risklarini tahlil qilish va baholash;

13.1. Bozorlarda faoliyat yuritish bilan bog'liq risklarni hisobga olish va baholashning ahamiyati

Bozor riskini aniqlash ishlarini olib borishdagi izchillik bosqichmabosqich amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- muammolarning qo'yilishi;
- kerakli ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish;

- baholash usullarini tanlash va ularni qo'llash;
- biznesning bahosiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish; - bozor riski haqida belgilangan shaklda hisobot tuzish.

Biznesni baholash jarayonini tashkil etuvchi bu bo'g'inlarni har tomonlama ko'rib chiqamiz.

Bozor riski qiymatning kerakli darajasi va uni baholash maqsadini muvofiqlashtirishi zarur bo'lgan umumiy qoidadan istisno holatlari ham mavjud. Bu tugatish qiymatlarini belgilashga taalluqli. Ushbu holatlarda buyurtmachi tugatish qiymatining muayyan turini aniqlashni talab qilishi mumkin va baholovchi uning talabini bajarishga majbur.

Yendi pasayish tartibiga qarab qiymatlar darajalarining namunaviy ketma-ketligini keltiramiz:

- takror ishlab chiqarishning to'liq qiymati;
- o'rin bosishning tuliq qiymati;
- foydalanishda davom etishdagi asoslangan bozor qiymati;
- foydalanilmayotgan ko'chmas mulkga asoslangan bozor qiymati;
- o'rin bosishga asoslangan bozor qiymati;
- rejali tugatish qiymati (tartibga solingan tugatish qiymati);
- tezlashtirilgan tugatish qiymati;
- utilizatsiya qiymati; - sinish qiymati.

Bu saflashni amaliyotda qiymat darajalarining boshqa nisbati bilan ham qo'llash mumkin. Masalan, ba'zan yangi texnikaning eski texnika oldida katta ustunliklarga ega bo'lishi va bu bilan bog'lik kapital xarajatlarning ortib ketishi tufayli ko'chmas mulkning o'rin bosish qiymati uning takror ishlab chiqarish qiymatidan kattaroq bo'ladi. Yoki foydalanishda davom etishdagi asoslangan bozor qiymati tugatish qiymatidan ham, hatto sinish qiymatidan ham past bo'ladi. Bunday holat, ko'pincha asosiy fondlarning iqtisodiy eskirishida yuz beradi

Bozor riskni boshqarishdan maqsad, eng avvalo, riskning oldini olishdir. Qaror qabul qilayotgan shaxs yuz berishi mumkin bo'lgan noxush voqealarning oqibatini yaqqol tasavvur etishi kerak. Bu uning keyingi harakatlarini belgilab beradi. Risk boshqaruvi xodimlari o'z ishlarini amalda joriy qilishlari uchun riskni oldini olish taktika va strategiyasini ishlab chiqishlari kerak.

Har qanday loyihalarini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini hal etishda risklarni baholash asosiy o'rinni egallaydi. Bunday baholash asosida loyiha yuzasidan mumkin bo'lgan barcha yo'qotishlar o'rganilib, ularning oldini olish yoki tegishli vaziyatlarda ularni benuqson hal etish yoki pasaytirish choralari ishlab chiqiladi. Riskdan keladigan yo'qotishlarni kamaytirish yoki barham toptirish va ular bilan bog'liq salbiy oqibatlarni kamaytirish usullarini taklif etish uchun, eng avvalo, risklarning vujudga kelishiga imkon beruvchi omillarni aniqlash, ularning ahamiyatini baholash, ya'ni "risk tahlili" deb nomlanuvchi ishni bajarish lozim bo'ladi.

Risklarni baholashning maqsadi investorga bozor riskini amalga oshirishda qatnashishning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish va mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlardan himoyalanih bo'yicha chora-tadbirlar ishlab

chiqish uchun kerakli ma'lumotlarni taqdim qilishdan iborat. Shunga ko'ra, risk tahlilini loyihaning barcha ishtirokchilari mustaqil tarzda olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Risk tahlili investision loyihaning barcha ishtirokchilari – buyurtmachilar, pudratchilar, bank, sug'urta kompaniyalari, lizing kompaniyalari, mol etkazib beruvchilar tomonidan amalga oshirilishi lozim. Risklarni baholash, odatda, bir-birini to'ldiruvchi ikki turga, ya'ni:

- risk turlarini, uni vujudga keltiruvchi omillarni va risklarni pasaytirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni aniqlash maqsadini

- ko'zlovchi sifat tahlili;

- loyiha risklarini sondagi ifodasini loyiha ko'rsatkichlari orqali hisoblash imkonini beruvchi miqdoriy tahlilga bo'linadi.

Risklarni tahlil qilish va baholashdan maqsad loyihaga ta'sir etuvchi risk turlarini aniqlab, ularni pasaytirish chora-tadbirlarini va usullarini qo'llashdan iboratdir.

Risklarni baholash deganda risk darajasini sifat va miqdor jihatdan aniqlash tushuniladi. Risklarni pasaytirish usullari turlicha bo'lib, ular risk turiga va risk guruhiga qarab tanlanadi.

Umuman olganda, risklarni aniqlash - sifat tahliliga; risklarni baholash - miqdor tahliliga taaluqlidir.

Risk tahlilining ahamiyati bozor riskining salohiyatli ishtirokchisiga, investorlarga loyihani maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish haqidagi qarorlarini qabul qilishi uchun zaruriy ma'lumotlarni berishi bilan izohlanadi.

Risklarni baholash algoritmi (ketma-ketligi) quyidagi tartibda bo'ladi: birinchidan, korxonalar foydasining shakllanishiga ta'sir etadigan risklarni turli xil variantlari mavjud bo'lganda uning eng optimal variantlarini tanlash va tegishli qarorlar qabul qilish, shuningdek, turli xil oraliqlarda qarorlar qabul qilinishi avvalgi qabul qilingan qarorlarga bevosita bog'liqligi va uni istiqbolda yanada rivojlantirish holatini aniqlab beradi.

Bunda riskni tahlil qiluvchi barcha ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Ikkinchidan, qoida tariqasida, korxona investisiya faoliyatini amalga oshirish davomida qilingan xarajatlar bir martalik moliyaviy qo'yilmalarni amalga oshirishni talab qilmasdan, uzoq muddat davomida amalga oshirishni taqozo etadi. Bu holat korxona menejeriga kapital qo'yilmalarni qayta baholash zaruriyatini hamda amalga oshirishdagi o'zgarishlarga tezkorlik bilan munosabat bildirishni talab qiladi. Uchinchidan, risklar tarkibini va davomiyligini aniqlash, korxonalarning investisiya faoliyatiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan asosiy risklarni aniqlash, asosiy risklarning sodir bo'lish vaqtini aniqlash, asosiy risklarning sodir bo'lishi natijasida qabul qilinishi mumkin bo'lgan qarorlarni shakllantirish.

Risklarni boshqarish jarayoni korxona hayotiyligining barcha bosqichlarida muntazam ravishda amalga oshirilishi lozim.

Risklarni boshqarish risk va foyda miqdorini oqilona qo'shilmasini aniqlashga qaratilgan harakatlardir. Risklarni boshqarishning asosiy maqsadi - ularni pasaytirish hisoblanadi.

Risklarni boshqarish quyidagi asosiy bosqichlarga bo'linadi:

1. Risk omilini aniqlash;
2. Risk omilini tahlil qilish va baholash;
3. Risklarni pasaytirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish yoki risk oqibatlarini bartaraf etish;
4. Risklarni oldini olish va nazorat qilish;
5. Risklarni boshqarish usullarini tanlash va qo'llash;
6. Risk vaziyatlari va ularni oqibati haqida ma'lumot to'plash va kelajakka tavsiyalar ishlab chiqish.

Risk omilini aniqlash deganda risk sababini, ya'ni loyihaga ta'sir qila oladigan voqea yoki vaziyatlarni aniqlash tushiniladi.

13. 2. Bozor risklarining turlari va mohiyati.

Coopers & Lybrand auditorlik guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va «Risklarni boshqarishning umumqabul qilingan tamoyillari» dagi bayondagi tasnifga muvofiq riskning olti guruhi ajratiladi: bozor, kredit, konnarxtratsiya risklari, likvidlik risklari, operasion risklar va biznes-voqelik risklari. Milliy fond assosiatsiyasi (MFA) standarti tasnifning ancha yaxshi variantini keltiradi. Unga muvofiq quyidagi risklar ajratiladi:

- kredit;
- foiz;
- likvidlik;
- bozor;
- operasion;
- risklarining boshqa turlari (portfellar konsentratsiyasi riski; majburiy risklar; nufuzni yo'qotish riski; huquqiy risklar va b.).

Moliyaviy aktivlar bilan bo'ladigan operatsiyalar risklari sistemali va sistemalashmagan bo'ladi.

Sistemalashgan risklar mamlakatdagi makroiqtisodiy sharoit, moliya bozoridagi ishbilarmonlik darajasi, ular qandaydir aniq qimmatli qog'ozlar bozori bilan bog'liq bo'lmaydi. Sistemalashgan risklarni o'rganib chiqib va ularni tahlil qilganda, "Qimmatli qog'ozlarga o'z mablag'ini qo'ygandan ko'ra, boshqa tarmoqqa o'z mablag'ini investisiya qilgan yaxshiroqmi?" - deb o'ylab qolasan. Misol uchun, aniq bir ishlab chiqarish jarayonigami, ko'chmas mulkkami yoki valyutagami va boshqa yo'nalishlarga.

Sistemalashgan risklarga quyidagilar kiradi:

1. Shaxriy (iqtisodiy, siyosiy va x.k);
2. Qonunchilik bilan bog'liq risklar;
3. Valyuta risklari;
4. Inflyasiya risklari;
5. Tarmoq risklari.

Shaxsiy risk – bunday risklarga biror – bir korporatsiyaning aktivlariga investisiya qilayotganida, o'sha korparatsiya qaysidir davlatning yuridik hududiga kiradigan va huquqlariga bo'ysinadigan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga ikkita

mamlakt o'rtasida qandaydir ko'zda tutilmagan kelishmovchiliklar bo'lishi mumkin. Bu esa bevosita investorga ta'sir etadi.

Bunga misol qilib, AQSH va Iroq o'rtasidagi urush oqibatlari yaqqol misol bo'la oladi. 2004 yilning may oyining ikkinchi yarimida jahon fond birjalaridagi neftning narxi bir barreli uchun 40 dollarga chiqib ketishi aniq va yaqqol misoldir. Amerika iqtisodiy taxlilchilarining ta'kidlashlaricha, bir barreli uchun 40 dollar 20 yil oldin berishgan ekan. Lekin hozirgi kunga kelib boshqa omillar ham yonilg'i narxiga ta'sir ko'rsatishi jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi natijasida kuzatildi.

Qonun xujjatlarining o'zgarishi risk bilan bog'liqdir. Bu holat soliqqa tortish bilan bevosita bog'liq, chunki investisiyadan olinadigan daraomad, albatta, soliqqa tortiladi, Qandaydir korxona ma'lum bir mahsuot ishlab chiqaradigan bo'lsa, soliq stavkalari mahsulot tannarxiga ta'sir qiladi.

Valyutaviy risklarda asosan biror bir davlatda turib chet el valyutasiga nisbatan narxlarning o'zgarishidagi bo'ladigan zararlar tushuniladi.

Valyutaviy risklar quyidagicha bo'ladi:

- Translyasion risk;
- Operasion risk;
- Iqtisodiy risk (bitimlar riski).

Inflyasion risk qimmatli qog'ozlarga investisiya qilgan mablag'dan kutilayotgan foyda darajasi infilyasiya darajasidan past bo'lsa yoki qimmatli qog'ozlardan olinadigan foyda teng bo'lsa yuzaga keladi. Buning natijasida investor zarar ko'radi.

Tarmoqli risk xo'jalikning ma'lum bir xususiyatiga qarab o'rganiladi. Ushbu risk ma'lum bir tarmoqdagi qimmatli qog'ozlarning fond birjalarida narxining tushub ketishi yoki ma'lum tarmoqda qandaydir o'zgarishlar bo'lsa, katta o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bu risk xo'jalikdagi o'zgarishlarning tebranishlariga bog'liq.

Bu holatga 2002 – 2003 yilning qish oylarida bo'lgan parrandalarning kassalligi Tokio fond birjalarida o'z ta'sirini o'tkazdi. Nafaqat Tokio fond birjasida, balki butun jahondagi fond birjalarida o'z aksini topgan. Yana 2002 – 2003 yillardagi Yevropadagi chorvachilik tarmog'idagi kassallik ham o'z ta'sirini o'tkazgan edi.

Sisternalashmagan risk. Bu holatda qimmatli qog'ozlar bozordagi aniq barcha risklarni mujassamlashtiradi, umuman investor va emitengat ta'sir etadi. Bu riskni kamayishi uchun qimmatli qog'ozlar bozoridagi risk darajasi kamroq bo'lgan qimmatli qog'ozlar portfelini yig'ish bilan ko'riladi.

Sisternalashmagan risklarga quyidagilar kiradi: A. Korporatsiyalarning risklari:

- Kreditli (ishbilarmonlik) risklari;
- Likvidlilik risklari;
- Foyizli risklar;

• Vijdonsizlik bilan birjada qilingan operatsiyalar. B. Portfelni boshqarishda yuzaga keladigan risklar:

- Kapital riski;
- Tanlangan risk;
- Qimmatli qog'ozlarning ta'minlanishi bilan bog'liq risklar;
- Axborot riski;

- Risklarning boshqa ko‘rinishlari.

Kreditli (ishbilarmonlik riski). Bu risk qachonki emitent uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlar ishlab chiqarganda, investorlarga dividend berolmay qolganda va kreditning ma’lum bir qismini qaytara olmaganida (kreditning kelishilganligiga qarab) vujudga keladi. Kreditli riskni nazorat qilib turish bevosita o‘rtada turgan moliyaviy tashkilotlar va investorlarga bog‘liqdir. Qimmatli qog‘ozlarni chiqargan emitentning moliyaviy ahvolini o‘zlik mablag‘larini chetdan olingan mablag‘lar o‘rtasidagi nisbatga qarab odatda aniqlanadi, Bu korxonaning balansning passivida ko‘rish mumkin.

Foizli risk. Bunday risklar fond bozorida kreditning foizi stavkasi tushib ketishi natijasida vujudga keladi. Bankdagi depozitlarning foiz stavkalavri ko‘tarilsa, fond bozoridagi aksiyalar bahosi tushib ketadi. Agarda bankdagi depozit xizmatlari birdaniga katta darajaga oshib ketsa, fond bozoridagi aksiyalarning narxi juda tez narxi tushib ketishi mumkin, buning natijasida qimmatli qog‘ozlarni chiqargan kompaniya imtiyozli aksiyalari egasi qaytarib sotib olishi uchun olib kelishlari mumkin (agarda shartnomada ko‘zda tutilgan bo‘lsa) qaytarib olishi mumkin.

Kapitalli risk. Bunday turdagi kreditlardan qochib qiutilish mumkin emas. Bu risk qimmatli qog‘ozlar riski deb ham yuritishadi. Shuning uchun, qimmatli qog‘ozlarga investisiya qilgandan ko‘ra aniq ishlab chiqarishga qo‘ygan yaxshiroq deb o‘ylashadi.

Tanlangan risk - bunday risklar qimmatli qog‘ozlar portfelini tuzayotgan vaqtda bo‘ladi. Buning asosiy sababi kompaniyalarni to‘g‘ri taxlil qilmaslik oqibatida vujudga keladi.

Axborotli risklar - bunda fond birjalarida bo‘layotgan axvoldan xabardor bo‘lmashlik va noaniq axborotlardan foydalanish natijasida vujudga keladi.

13.3. Bozor risklarini tahlil qilish va baholash.

Bugungi kun amaliyotida loyiha risklarini tahlil qilishda bir qancha usullardan foydalaniladi. Jumladan:

- ekspert baholash usuli;
- zararsizlik nuqtasi (sezgirlik) tahlili; - qarorlar daraxtini barpo etilishi usuli; - Monte-Karlo usuli va boshq.

1. Ekspert baholash usuli.

Bu usul riskni tahlil qiluvchi iqtisodchi (yeksper)ning malaka darajasiga asoslanadi. Bank riski aniqlanganida bankning o‘zidagi va bo‘lish ehtimoli bo‘lgan yo‘qotishlar va ularning davr oralig‘ini aniqlab olmoqlari lozim. Bu oraliqni aniqlash ham risk darajasini kamaytirishga yordam beradi. Yo‘qotishlar oralig‘ini quyidagi tenglama bo‘yicha aniqlash mumkin:

$$Y = YX / S$$

Bu erda: **Y** - yo‘qotishlar oralig‘i darajasi; **YX** - yo‘qotishlarga olib keluvchi holatlar soni; **S** – statistik tahlil qilinayotgan holatlarning umumiy soni.

Bu erda S – bankning faqat yo‘qotish, zararlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan operatsiyalarning soni emas, balki barcha operatsiyalarni, jumladan foyda keltiruvchi operatsiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Agar shu qoida inobatga olinmasi, bankning oraliq yo‘qotishlar darajasi va u bilan bog‘liq risk darajasi juda yuqori chiqishi mumkin, yani Y – yo‘qotishlar oralig‘i darajasi $0 < Y < 1$ oralig‘ida bo‘lib, ushbu “ Y ” qancha “0” soniga yaqin bo‘lsa, risk darajasi shuncha kichik bo‘ladi. Agar “ Y ” qanchali “1” soniga yaqin bo‘lsa, risk darajasi shunchali yuqori bo‘ladi.

Investision risklarni ekspert baholash usulining asosiy afzalligi, loyiha tahlili jarayonida ekspertlar tajribasini qo‘llash imkoniyatining mavjudligi va turli xil sifat omillarining ta‘sirini hisobga olishda namoyon bo‘ladi.

2. Zararsizlik nuqtasi (sezgirlik) tahlili.

Zararsizlik tahlili deganda loyiha bo‘yicha ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tannarxi va foydaning bir-biriga bog‘liqligini tadqiq qilish tushuniladi. Ba‘zi hollarda bunday tahlil harajatlar, ishlab chiqarish hajmi va foydaning bir-biriga nisbatini tahlil qilish db ham ataladi. Bunda eng asosiy maqsad harajatlarni qoplash uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish hajmini aniqlashdan iborat va bu holat korxona rahbarlariga va loyiha menejerlariga quyidagi omillarning o‘zgarishi foydaga ta‘sirini aniqlash imkoniyatini beradi:

- doimiy harajatlar (miqdori ishlab chiqarish hajmiga qarab o‘zgarmaydigan xarajatlar, masalan, qarz foizi, garov puli, ijara haqi, renta to‘lovari va boshqalar);

- o‘zgaruvchan xarajatlar (miqdori ishlab chiqarish hajmiga nisbatan to‘g‘ri mutanosiblikda o‘zgarib turuvchi xarajatlar, masalan, ish haqi, xom ashyo, yoqilg‘i, yuk tashish harajatlari va boshqalar);

- sotish hajmi;

- mahsulot tannarxi;

- sotilishi ko‘zda tutilgan mahsulot assortimenti.

Harajatlarni qoplash uchun zarur bo‘lgan sotish hajmi maxsus nuqtani tavsiflaydi, ya‘ni u ishlab chiqarish hajmining kritik nuqtasini ifodalaydi. Mana shuning uchun ham bunday tahlil zararsizlik nuqtasi db nomlanadi. Bunda korxona foyda ham olmaydi, zarar ham ko‘rmaydi, ya‘ni mahsulot sotishdan tushgan tushum mahsulotning to‘liq tannarxiga

(harajatlarga) barobardir.

Zararsizlik nuqtasini aniqlash uchun, eng avvalo, sotish hajmi (Q) o‘zgarishining foydaga (P) ta‘sirini aniqlash lozim bo‘ladi. Bunday o‘zgarishlar nisbatini aniqlashdagi elementlar bo‘lib, mahsulot birligi narxi (P), mahsulot birligidagi o‘zgaruvchan xarajatlar (V) va mahsulot birligidagi doimiy harajatlar (C). Formula quyidagi ko‘rinishga ega:

$$P = P*Q - (V*Q + C)$$

bu erda: Q - sotish hajmi; P – foyda; P - mahsulot birligi narxi; V - mahsulot birligidagi o‘zgaruvchan xarajatlar; C - mahsulot birligidagi doimiy harajatlar.

Ishlab chiqarishning zararsizlik nuqtasida $P = 0$ ga teng bo'ladi va bundan zararsizlik nuqtasi kelib chiqadi:

$$Q = C / P - V$$

Shunday qilib, zararsizlik nuqtasini aniqlashda sotish narxi, mahsulot birligiga ketgan o'zgaruvchan harajatlarning hamda ma'lum vaqt (yil yoki oy) davomidagi doimiy harajatlarning eng muhim omillardandir.

Ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

1. biznes-rejalarning mukammal ishlanganligi.

Biznes-rejalarning mukammal ishlanganligi uning har bir bo'limi bo'yicha investitsion risklarning to'liq hisobga olinganligida, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni sotish strategiyasining to'g'ri tanlanganligida, investitsion loyihaning samaradorligiga ta'sir qiluvchi har bir asosiy omilning ta'sir mexanizmining inobatga olinganligida namoyon bo'ladi. Biznes-rejada mahsulot sotiladigan bozor chuqur tahlil qilingan bo'lishi lozim, chunki sanoati rivojlangan mamlakatlarda tovarlarning taqchilligi mavjud emas, balki tovarlarni sotish muammosi mavjud. Shu sababli, mazkur mamlakatlarda investitsion loyihalar bo'yicha tuzilgan biznes-rejalarda asosiy e'tibor mahsulot sotiladigan bozorlarni o'rganishga qaratiladi.

Bozor riski tahlili uchun quyidagi multiplikatorlardan foydalaniladi:

- narx/balans foydasi multiplikatori;
- narx/sof foydasi multiplikatori;
- narx/joriy pul oqimi multiplikatori;
- narx/sof pul oqimi multiplikatori;
- narx/yalpi tushum multiplikatori;
- narx/haqiqiy tushum multiplikatori;
- bitta aksionerning narxi;
- mumkin bo'ladigan dividendlarni kapitallashtirish; - narx/moddiy aktivlar balans qiymatining multiplikatori; narx/xususiy kapital multiplikatori;

Bozor uchun korxonani baholashning har bir bosqichi quyidagi pog'onalariga bo'linadi: korxonaning tavsif baholash predmetini aniqlash: baholash vaqtini belgilash: baholanishining maqsad va vazifalarini aniqlash: baholanishning turli aniqlash: buyurtmachi va baholovchi manfaatlarini ximoyalash. Korxonaning tashkiliy-huquqiy va qisqartirilgan nomi, uning tashkiliy-huquqiy shakli, hisobga olingan joyi, joylashgan eri, ishlab chiqarish tarmog'i, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning asosiy turlari va haqazolar korxonaning tavsifnomasiga kiradi. Agar baholanayotgan korxona shu'ba korxona bo'lsa yoki qaram korxona bo'lsa, asosiy yoki ustun korxonani aniqlab olish zarur. Agar boshqa (ustun) korxonada ustav kapitalning 20% dan oshiq ovozga ega aksiyalari bo'lsa, bu korxona qaram korxona hisoblanadi. Baholash predmetini aniqlash, ya'ni korxonada baholash mumkin bo'lgan barcha mulkiy huquqlar, aksionerlik jamiyatining aksiyalari kapitaliga egalik huquqi, korxona ustav kapitalida qatnashuvchilar ulushi, korxona aksiyalari paketiga egalik huquqi va boshqalar korxonani baholashning eng muhim bosqichlaridan hisoblanadi.

Shunday qilib, qisqa qilib aytganda, baholash predmeti – bu baholanadigan mulkiy huquq turlaridir. Qiymatning bahosiga xavf-xatarning (riskning) ta'sir ko'rsatishi kelajakda daromad olishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, har qanday ob'yektning baholash jarayoniga talab va taklifning ta'siri bo'ladi. Agar talab taklifdan yuqori bo'lsa, unda xaridorlar maksimal narxni berishga tayyor. Talab narxining yuqori chegarasi tadbirkorning bu korxonani boshqarishdan oladigan daromadi bilan belgilanadi. Bu tabiiy imkoniyatlari cheklangan soha uchun xarakterli hisoblanadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, extiyojning ortishi holati xom ashyo ishlab chiqaradigan tashkilotlarda narxning yuqori chegarasiga nisbatan yaqin bo'ladi. Ayni vaqtda talabning taklifga nisbatan ortishi ba'zi tarmoqlarda yangi tashkilotlarni paydo bo'lishi ham mumkin. Bu, o'z navbatida, ular sonining ortishiga olib keladi. Keyinchalik bu tashkilotlarning narxi ancha pastlashi mumkin.

Bozor riskini baholash xalqaro tajribada baholash faoliyatining bir turi bo'lib, turli – tuman bozor holatlarida unga extiyoj seziladi. Ular quyidagilardir:

- inqirozga uchragan korxonani sotish uchun baholash;
- normal ishlayotgan aksionerlik jamiyati o'z aksiyalarini qanday so'mmaga sotish huquqiga egiligini aniqlash uchun baholash;
- xususiylashtirilayotgan korxonani baholashda;
- aksionerlik jamiyatlarni sotib olish narxlarini hisoblashda; Bozor riskini baholashning ikki predmeti bor:

- mulk formalari turli bo'lgan korxonalarni baholash, bunday baholash ularning moddiy va nomoddiy aktivlarini baholash ishiga asoslanadi;

- kelajakda kutilayotgan taxminiy foydani ta'minlovchi mulkka egalik qilish huquqi, texnologiyalar va aktivlar "biznes liniya"ni baholash majmui hisoblanadi.

Bozor riskida juda ko'plab tushunchalar qo'llanilishi mumkin, shulardan biri biznes- liniya bo'lib, u bozorda korxonaga egalik qilish emas balki, foydalanishni ifoda etuvchi tushunchalar sirasiga kiradi. Ayrim holatlarda biznes-liniya haqida oddiy qilib shartnomalar majmui (ayniqsa o'zoq muddatli shartnomalar) deb gap yuritiladi. Bunga faoliyat turi va texnologiyalarga beriladigan litsenziyalar ham kiradi. Doimiy qo'shimcha foyda yoki xarajatlarda turg'un iqtisodni olish imkonini beruvchi alohida o'zoq muddatli ayrim shartnoma ham hattoki baholash predmeti bo'lib xizmat qilishi mumkin. Masalan, bunga bozor bahosidan yuqori narxda tovarlarni etkazib berish to'g'risidagi shartnomalar, xom ashyolar sotib olish to'g'risidagi imtiyozli shartnomalar kiradi. Real xo'jalik amaliyotida biznes-liniyani baholashda odatda quyidagi asosiy maqsadlar ajratib ko'rsatiladi:

- ular qiymatining narxi bilan ish firmaning haqiqiy bozor bahosini tavsiflash uchun firmaning barcha biznes liniyalarini baholash:

- taxminiy, asoslangan, eng yuqori (sotuv uchun boshlang'ich) bahosini aniqlash, bu narx bilan biznes liniya shartnomani to'zuvchi qimmatli qog'oz egasi shartnomaga muvofiq o'z huquqini uchinchi bir shaxsga sotishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Bozor riskni boshqarish maqsadini tushuntirib bering?
2. Bozor risklarni baholashni tavsiflang?

3. Bozor risklarni boshqarish bosqichlarini izohlang?
Bozor riskini baholash predmetlarini tushuntirib bering?

14-mavzu.

**OPERASION RISKLARNI BOSHQARISH
REJA**

- 14.1 Operasion risklarni boshqarish masalalari;
- 14.2 Operasion risklarni boshqarish tamoyillari;
- 14.3 Operasion risklarni boshqarish jarayoni;
- 14.4 Operasion risklarni boshqarishda rahbarlar ishtiroki
- 14.5 Operasion risklarni boshqarishda strategik metodlar va ularni kengaytirish;

14.1. Operasion risklarni boshqarish masalalari

Operasion risklarni boshqarish tizimli operasion risklarni va foydalarni aniqlashda yordam berish uchun bir qator qaror qabul qilish vositasi va har qanday berilgan vaziyatlar uchun chora tadbirlar yig'indisi hisoblanadi. Bir operasion riskdan farqli o'laroq va rivojlanish davomida amalga oshiriladigan ta'minot riski-tahlilini Operasion risklarni boshqarish orqali amalga oshiriladi. Ma'lumotlardan tezkor foydalanish paytida misol uchun, operasion risklarni boshqarish har bir moliyaviy faoliyatdan oldin amalga oshirilishi mumkin. Boshqa risksizlik risk boshqaruv jarayonlari sifatida boshqarish jarayoni, xatarlarni kamaytirish uchun mo'ljallangan anglashmovchiliklar tufayli yuzaga keladigan aktivlarining kamayishidan saqlab qolish va moddiy bazani texnik sog'lomlashtirish demakdir.

Xatarlarni boshqarish, bu mavzuda shunchaki muhokama sifatida emas, balki reaktiv moliyaviy ta'siri yuqori bo'lgan chora tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi. Buning uchun yondashuv mas'uliyatsiz va kutish uchun samarasiz bo'lgan metodlarni qo'llamasdan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xatarni har qanday yo'l bilan izlab topib bartaraf etish munosabatlari yig'indisi hisoblanadi. Biz riskini boshqarishda yo'l yo'riqlarni o'zgartirish kabi muvaffaqiyatga erishish va yangi imkoniyat sifatida iloji boricha kichik etishmovchiligi yoki zararini aniq baholash metodologiyasini izlab topishni bosh maqsad qilib qo'yamiz. Xatar vujudga kelishi mumkin bo'lgan imtiyozlar xatarlarni muvozanat uchun alohida yondashuvlar asosida eng samarali yo'lni tanlash kerak bo'ladi.

Ko'pincha, xatarlarni boshqarish uchun yondashuvlar 3 guruhga bo'linadi

- 1. Individual usullari;
- 2. Yuqori darajadagi tajribalar asosdagi yondashuvlar;
- 3. Yuqori reaktiv yondashuvlar hisoblanadi.

Bu bor o'sha risk haqida o'ylash uchun tabiiy muammolarga sabab bo'ldigan faqat operasion muhitida bir doimiy joyda noto'g'ri ketadigan imkoniyatlar, vazifalarga qarab aniq jarayonga ega bo'lishga yordam beradi.

Muammolarni oldini olish - Operasion risklarni boshqarish, yoki yordam beradigan qarorlar qabul qilish vositasi hisoblanadi, har qanday berilgan harakat sistematik uchun eng yaxshi kurs riski va foydani aniqlash va anglashmovchiliklarni kamaytirish hamda aktivlarini saqlab qolish uchun xatarlarni kamaytirish uchun mo'ljallangan chora tadbirlarning majmuiga aytiladi. Operasion riskning turli sifat belgilari:

- aylanma aktivlarning ta'sirchanligi (ya'ni tezlashtirilgan amortizatsiyasiz foydalanilishi);

- voqea sodir bo'lgandagi zarar ehtimoli jiddiyligi;

- resurslarni yo'qolishining keskin ortib borishi va h.k.

Shu jumladan, operasion risk boshqaruvini baholash o'z ichiga quydagilarni oladi: risklar barcha FAA operatsiyalari ya'ni shtatlar va albatta, hatto, bizning shaxsiy kundalik faoliyatimizdagi riskini jalb qilishi mumkin bo'lgan qarorlarni qabul qilishdir.

Operasion risklarni boshqarish shunchaki bir faoliyat emas. Bu narsalar haqida fikr yuritish xorijiy mamlakatlarda xatto qonun yo'li bilan rasmiylashtirildi. Operasion risklarni boshqarish oddiy olti bosqichli jarayon:

1. Operasion risklarni belgilaydi va xodimlar uchun riskini kamaytirish uchun oqilona chora-tadbirlarni ko'radi;

2. FAA operatsiyalarda, qarorlar, zarur qaror va boshqaruvning qanday darajada o'z vaqtida qabul qilish vakolatiga egaligi;

3. Risk aniqlanishi kerakligi xodimlar va resurslardan riskni kamaytirish maqsadida Agentlikning ishlariga amaliy darajada ta'sirli choralar loyihasini ishlab chiqish;

4. Xatarlarni boshqarish, rejalashtirish va biron bir jarayonni bir to'liq integratsiyalashgan qismlarga bo'lish;

5. Ba'zi kutilmagan muammoni tashkiliy masalalarda faqat birgina yo'l emas, balki boshqaruv tomonidan qo'llanilishi;

6. Tahlil va nazorat qilish bilan birga xatardan ehtiyot choralarini belgilash, ular natijalarini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va harakatlar rejasini tuzish.

Rahbarlar, bu faoliyatlarni rejalashtirish bilan boshlangan va uning bajarilishi bilan davom etadigan faoliyatlarni har bir bosqichida, riskni boshqarishda muntazam foydalanish uchun mas'ul shaxs xisoblanadi.

Operasion risklarni boshqarish jarayonining maqsad va vazifalarini ko'rsatib o'tsak, ya'ni ulardan eng samarali foydalanish strategiyasi sifatida, odamlarni, asbob-uskunalar va boshqa resurslarini himoya qilish nazarda tutiladi.


Baxtsiz hodisalar oldini olish va yo'qotishlarni kamaytirish, bu maqsadga erishishning muhim jihati hisoblanadi. O'z navbatida, zarar riskini kamaytirish bilan, biz oxirgi xarajatlarini kamaytirish va samarali grafigni ishlab chiqishga harakat qildik. Shunday qilib, xatarlarni boshqarishdan asosiy maqsad, foydalanish uchun eng samarali bo'lgan har qanday resurslar shu jumladan, odamlar va uskunalar samaradorligini oshirishni aniqlashdan iborat.

14.2. Operasion risklarni boshqarish tamoyillari.

Operasion risklarni boshqarish *to'rt tamoyillardan* iborat bo'lib, ular operasion risklarni boshqarish bilan bog'liq barcha harakatlarni boshqarishni qamrab oladi. Bu doimiy ish tamoyillari davomida va barcha darajadagi shaxslar tomonidan barcha vazifalar va operatsiyalarning oldindan amal qilishini nazarda tutadi.

1-tamoyil. Minimal risk foydalari yoki hech qanday mutanosibliksiz imkoniyatlardir. Bu tamoyil hamma narsa riskini o'z ichiga oladi. U erishish uchun eng mantiqiy variant bo'lmish operatsiyaning minimal maqbul qilingan riski bilan barcha talablarga javob bo'ladi. Natija bu aksioma "zarur riskini qabul qilish" deb nom olib muvaffaqiyatli ishlashini yoki vazifani bajarish uchun zarur imkoniyatlarni yuqori va quyi chegarasini belgilab olish bilan cheklanadi.

Figure 15-1: Risk management Goal



2-tamoyil. Tegishli darajada xav qarorlarini qabul qilish. Har kim bir risk uchun qaror qabul qilishi mumkin. Shu bilan birga, tegishli qarorlar qabul qilish vakolatiga ega shaxslar riskini bartaraf etish va boshqaruvni amalga oshirish uchun resurslarini ajratish bilan holisona baho berishi va buni baholash kengashi oldida isbotlashi kerak bo'ladi.

3-tamoyil. Rejalashtirilgan ishga xos risk darajasini (ya'ni, zararning tezkor samaradorligi, materiallari eskirishi haqidagi malumotlar jamlanmasidan foydalanib reja tuzish) aniqlash. U qarorlarni amaldagi holat bilan muvoffiqashtirishda boshqaruv zanjiridan keyingi daraja va unda mavjud bo'lganlar elementlarga maqbul darajada qoldiq riskini kamaytirish loyihasini tuzishdir.

4-tamoyil. Riskning yuqori nuqtasida kritik narx belgilash tamoyili.

Barcha aniqlangan foydalarni barcha aniqlangan xarajatlarga qarshi xatto yuqori risk kutilayotganda imtiyozlar summasi miqdorini oshirib aniq ma'lumotlar asosida, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan xarajatlar va daromadlar rentabelligini tuzish jarayonidir. Xarajatlar va foyda muvozanat sub'yektiv jarayon oqibatida

o'zboshimchalik bilan tegishli qarorlar qabul qilish bilan belgilanadi. U barcha darajadagi rejalashtirish ichiga ORB integratsiyasini qamrab oladi:

Xatarlar yanada oson baholanadi va amaliyotda rejalashtirish bosqichlarida boshqariladi. Kechroq yuzaga keladigan o'zgarishlar rejalashtirish jarayonida operatsiya amalga oshirilishida ko'proq vaqt talab qiladi.

14.3. Operasion risklarni boshqarish jarayoni.

Operasion risklarni boshqarish jarayoni ham muhim holat hisoblanib, olti bosqichni o'z ichiga oladi.

1-bosqich: Kutilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni aniqlash.

Bunda degradatsiyasi, aktivlarning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday haqiqiy yoki potentsial sharti sifatlarda belgilanadigan zarar yoki uskunalar va mol-mulkni yo'qotish tushuniladi. Tajribalar umumiy ma'noda o'ziga xos tahliliy vositalar yordamida xatarlarni aniqlashga yordam beradi.

2-bosqich: riskini baholash. Baholash bosqichini aniqlash uchun miqdor va sifat jihatdan chora-tadbirlar dasturini risk darajasining muayyan risk bilan bog'liq holda aniqlash. Bu jarayon odamlar yoki aktivlarga asoslangan riskga olib kelishi mumkin bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi.

3-bosqich: Risklarni nazorat-tadbirlarni tahlili va kutilayotgan hatarni yumshatish yoki bartaraf etishning o'ziga xos strategiyasi va vositalari tadqiq jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu bosqichda barcha riskxatar uch qismlarga ajraladi: birinchidan yuzaga kelish ehtimolining paydo bo'lishi, risk jiddiyligi va odamlar ta'siri natijasida aktivlarning buzilishi, ishdan chiqishi yoki to'la kuch bilan faoliyat ko'rsatmasligi. Samarali nazorat choralarini kamaytirish yoki bartaraf etishga kirishish bilan keying bosqichga o'tiladi. Bundan avval, tahlil qilish hisobiga umumiy xarajatlarni va foyda olishni ta'minlash kerak.

4-bosqich. Boshqaruv qarorlar yoki tegishli qarorlar qabul qilish. Bu to'g'rida qaror qabul qilishdan avval ushbu bosqichda, tahlil asosida nazorat uyg'unligini ta'minlash zarur.

5-bosqich. Xatarlarni nazorat qilishning menejment ya'ni tanlangan boshqaruvlarni qo'llash uchun bir reja ishlab chiqish kerak va bu choratadbirlar qo'yish uchun zarur bo'lgan vaqt, materiallar va kadrlar bilan ta'minlash jarayonlarini qamrab oladigan bosqichdir.

6-bosqich. Tekshirish va tadqiq elementlari kamida bir marta o'tkaziladigan bosqich bo'lib, jarayon vaqti-vaqti bilan ta'minlash uchun retrospektif ko'rib chiqish bosqichi sanaladi. Bu orqali ularning samaradorligi tahlili amalga oshadi. Har bir darajada xodimlar va rahbarlar bilan ta'minlash uchun ularning tegishli rollarni bajarish kerak deb elementlari vaqt davomida saqlab qolinadi. risklarni boshqarish jarayoni davomida tizimli, missiyalar yoki faoliyat hayot tsikli o'tkaziladi ORB jarayoni amalga oshirishda kuchli vositalar yordamida maksimal foyda uchun, to'g'ri foydalanish kerak. Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ya'ni:

- ketma-ketlikda amallarni qo'llash;

- har bir bosqich yakuniga yetkazilib, keyingi bosqich davom ettirishdan oldin bajarilishi kerak.

Risk aniqlash bosqichi boshqa alohida risklarni nazorat qilishdan oldin amalga oshirilishi zarur aks holda risklar chetda qolib ketishi mumkin. Barcha risklar belgilanganga qadar qolganlari ustida bosh qotirish samarali emas. Barcha olti bosqichlar muhim ahamiyatga ega. Ularning hammasini bajarish uchun vaqt va resurslarni ajratish kerak bo'ladi. Operasion risklarni boshqarishda "Nazorat va o'tilganlik sanasi" bosqichi mavjud bo'lib, u operatsiyada yangi qarash bo'lib tahlil, yangi risklar aniqlanishi mumkinligi yoki yo'qligini ko'rish uchun asosiy jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonida odamlarni jalb qilib risk nazorati missiyasini qo'llab-quvvatlovchi ekanligiga ishonch hosil qilish va odamlarda ish samaradorligi uchun ijobiy xatti-harakatlarini shakllantirish, zarur bo'ladi.

Belgilangan operasion risk turlari.

Belgilangan risk bu - analitik vositalar yordamida mavjud qaror qabul qilinishi riski vaqt va tahlil harakatlari xarajatlari, xatarlarni boshqarish, davlat ishtirokidagi texnologiyalar dasturi sifati aniqlanish mumkin bo'lgan risk miqdoriga ta'sir qiladi.

Noma'lum risk: hali belgilab olinmagan bu turdagi risk ba'zi riskni aniqlash uchun emas yoki o'lchanadigan, lekin kam bo'lmagan muhim, deb qaralmaydigan holatlar uchundir.

Umumiy risk: aniqlandigan va noma'lum risk yig'indisi. Ideal belgilangan risk ikki katta ulushini tashkil etadi. Birinchisi qabul qilinadigan (yoki maqbul) risk: ehtimoliy elementlarini qo'llashni davom ettirishga ruxsat etiladigan belgilangan risk qismi. Ikkinchi qism nomaqbul risk: riskni nazoratsiz bo'lsada ushlab turish ba'zan kompaniya uchun ataylabdan amalga oshiriladigan chora tadbir bo'lib, u korxona xodimlari o'rtasida izchillikni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Belgilangan risklardagi keying tushuncha qoldiq riski hisoblanib, umumiy risk qismini boshqarish natijasida qolib ketadigan ishdan kutilgan samarani ola olmaslik riskidir. Qoldiq riski maqbul riskni va noma'lum risk o'z ichiga oladi.

14.4. Operasion risklarni boshqarishda rahbarlar ishtiroki.

Rahbarlar risklarni samarali boshqarish uchun mas'uldirlar. Ular xodimlar tomonidan tavsiya etilgan riskni kamaytirish variantlardan keng foydalanadilar. Risklarni baholash va risk kamaytirish muqobil holatni takomillashtirish rejalari va buyurtmalar ichiga risk boshqaruvini integratsiyalashuvi jarayonlarini oladi. Operasion risk boshqarish jarayonini qo'llashda izchil operatsiyalarni samarali risk boshqarish tushunchalari va usullarini qo'llash vazifasini o'z ichiga oladi. Resurslar muammosini hal qilish uchun o'z nazorati yoki kompaniya vakolatli bo'limidan tashqarida riskli masalalarni boshqarish jarayonlarini amalga oshirishda ish o'rniga bog'liq bo'ladi. Har qanday haqiqiy bo'lmagan riskni kamaytirish chora-tadbirlar yuqori risk protseduralari yordamida qo'llaniladi.

Operasion risklarni boshqarishda kerak bo'ladigan elementlar:

- MSN - Mission: markaziy maqsad va vazifalari;

- Man - Inson elementi;
- Mach - Mashina: apparat va dasturiy ta'minot;
- Media - Atrof muhit va operasion hodisalar yig'indisi.

Risklarni boshqarish jarayoni uch darajada ishlaydi. Shu usulda ishlash afzal bo'ladi-da har bir ishga yoki vazifaga, vaqt davomiyligida riskni boshqarish va bajarishda resurslar har doim mavjud bo'lmasligi mumkin. Risk boshqarishda vaziyatni "muddatli" aqliy yoki og'zaki sharh yordamida albatta ma'lumot yozishni asosiy risk boshqarish jarayonini belgilashda xodimlar tomonidan ish bilan vaqt-siqilgan vaziyatda qarorlar qabul qilish mushkul bo'lib qoladi. Xatarlarni boshqarish ushbu darajasi paytida ishlatiladi. Bu shuningdek, turli vaziyatlarda xatarlarni boshqarishning eng oson amaliy darajasi hisoblanadi. Bu rejasiz voqea sodir bo'ladigan harakatlarda tegishli kurs tanlash uchun ayniqsa foydali. Bo'lajak operatsiyalar, standart faoliyat, xizmat yoki o'quv jarayonida ham ko'rib chiqilishi mumkin bo'ladi.


14.5. Operasion risklarni boshqarishda strategik metodlar va ularni kengaytirish.

Operasion risklarni boshqarishda strategik metodlar. Bu ko'proq puxta risk-xatarlarni aniqlash va riskni baholash bilan mavjud ma'lumotlar diagrammasi va tahlil vositalarini ishlatish, rasmiy test yoki uzoq tadqiqotlar ko'magida tizim yoki odatda operatsiya (mavjud holat bilan bog'liq xatar muddatli kuzatish, texnik ekspertlar va h.k.) bu murakkab ishga risk va ularning jarayon bilan bog'liq risklarni o'rganish uchun ishlatiladi. Murakkab operatsiyalar uzoq muddatli rejalashtirish natijasida yangi joriy qiymatni o'z ichiga oladi. Uskunalar, materiallar va operasion taktika va o'quv dasturi ishlab chiqish, yuqori risk imtiyozini qurish va yirik tizimni ta'mirlash strategik riskni boshqarish bo'lishi kerak.

Operasion risklarni boshqarish jarayonini kengaytirish

Operasion risklarni boshqarish jarayonining ko'p jihatlari tasvirlangan bir xil risk boshqarish vositalaridan foydalanish natijasida bu jarayonda ayrim noyob masalalar bor. Riskni aniqlash, butun Operasion risklarni boshqarish jarayonining asosi va nazorat tahlil choratadbirlari yanada kengaytirishni talab qiladi.

Figure 15-3: Types of Risk



15-3 Rasmda risklarni aniqlash uchun zarur harakatlar tasvirlangan. Xususan, bu uch toifadagi bilan bog‘liq risklarni aniqlash uchun quyidagi omillar hisobga olinishi kerak:

Operatsiya tavakkalchiliklarini boshqarishda uchinchi bosqichni qo‘llash.

Faqat faoliyatida va risk aslida bo‘lganlarga risk boshqaruvini amalga oshirish uchun harakat qilib ko‘rish ko‘pincha risk elementlari behuda resurslarni olib biror tashkilot operativ band xodimlar orqali qo‘llaniladi. Qachon amaliy va iqtisodiy jihatdan samarali ortiqcha risk boshqaruvini qo‘llaniladi degan savolga birinchi navbatda tashkilot xavfsizlik nuqtai nazaridan axborotlar chiqib ketmasligiga qaratilgan bo‘ladi. Qaror qabul qiluvchi oqilona tushuntirish berishi lozim. Har bir bosqich uchun zarur hujjatlar risklarni boshqarish jarayoni risk aloqa va orqasida oqilona jarayonlarini osonlashtiradi. Risk boshqarish qarorlari bu holatda bajarish uchun zarur harakatlarni, xatarlarni nazoratini amalga oshirishda umumiy muammolar yuzaga keltirsa bunday hol risk nazoratida tarixiy rekord bo‘lib chiqishi mumkin. Risk elementlari quyidagi kamchiliklarni o‘z ichiga oladi.

Nazorat muammo uchun noo‘rin hisoblanadi. Agar:

- moliyaviy Operatorlar (ya’ni mol yetkazib beruvchilar yoki investorlar) qo‘llab quvvatlamasa;
- rahbarlar ishonishmasa;
- biror tashkiliy madaniyat doirasida riski nazorati amalga oshirish tartibi bilan risk nazorati shakllantirish uchun foydali yo‘l-yo‘riq ishlab chiqiladi.

Operasion risklarni boshqarish asosiy ishlab chiqilgan va barcha risk nazorati uchun muhim foydalanuvchi mulkga erishish uchun emas to‘g‘ridan-to‘g‘ri risk ta’siridan xodimlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan alohida chora tadbirlar majmuiga aytiladi. Aholining risk nazorat samaradorligini to‘liq samarali bo‘lishi uchun, risk nazoratini barqaror ta’minlash lozim. Yangi riskga javoban riskni boshqarish bosqichlarida xodimlar, uskunalar, vazifa o‘zgartirish yoki yangi operatsiyalar yoki har qanday vaqt atrof-muhit, dastlabki risk boshqaruvida tahlil xatarlarini va nazorat qilish chora-tadbirlarini qoplanmagan ko‘rishimiz mumkin. Bunday holatda erishish uchun eng yaxshi vosita tahlilni tipini o‘zgartirish hisoblanadi. Muvaffaqiyatli ishlashi evaziga foydasiga ko‘proq foyda balansiga nisbatan xarajatlarni o‘zgaruvchan ammo samarali bo‘lishiga erishiladi. Nazorat xatar orqali foydaga biz izchil operatsiya tavakkalchiliklarini boshqarish orqali nazorat qilishimiz va bir operatsiyadan oldin ma’lum bo‘lgan boshqa moliyaviy operatsiya davomida rivojlanadi, deb ayta olishimiz mumkin. Agar yangi aniqlanadigan risk operasion jarayonda aniqlansa va topilsa bunday holatda ularga tezkor chora qo‘llanilib hisoblangan zarar miqdoriga erishilsa, masarali risk operatsiyasi deb atash mumkin bo‘ladi. Samarali. nazorat qilish jarayonida sabablar mulk bilan ta’minlashda o‘zgaradi qachonki elementlar umumiy samaradorligi ham yuqori bo‘lishi kerak. Bunda xatto odamlar soni ham inobatga olinadi.

Oldingi prognozlar to‘g‘ri bo‘lsa amalga oshirish samaradorligini monitoring, nazorati va sharh jarayonida bvaqti-vaqti bilan harakat holatini ishlab chiqish kerakligi rejalashtirilganda amalga oshirish uchun, zarur chora tadbirlarga o‘zgarishlar

qilinadi. Risk nazorati yaxshi mo'ljallangan bo'lsa, u ijobiy o'zgarish bo'ladi yoki operatsiya o'tkazish vaqtida xodimlar ish sharoitlariga o'zgartirish kiritish kerak bo'ladi. Bu o'zgarish hech qanday o'zgarish yoki faqat kichik o'zgarish riski agar nazorat qilishda, ehtimol u sarflanmaydigan resurslarga loyiq bo'lmasa. Uni o'zgartirish uchun zarur deb hisoblanmaydi. Avvaliga biz faqat sifat yo'qligini aniqlashimiz kerak, deb ochiq-oydin o'ylaymiz.

Biroq bu bilan baxtsiz hodisalar yoki boshqa yo'qotishlarni kamaymaydi. Risk nazorat samaradorligini baholash uchun juda ko'p harakat va takliflar ta'sirini aniqlash kerak bo'ladi. Risk darajasini o'lchash uchun to'g'ridan-to'g'ri tizim mavjud. Misol uchun, keyin dastur va shunga o'xshash namunali boshlash jarayonini oldindan cheklanishiga xodimlar risksizlik natijalarini baholash uchun o'zgarish va har qanday risk nazorat samaradorligini o'lchashda foiz ko'rsatkichlarini tashkil etish maqsadida umumiy kuzatishlarning bir ulushi sifatida risk nazoratini ta'sirini saqlab qolish orqali muvaffaqiyatli moliyaviy operatsiyalarni davom ettirish mumkin bo'ladi.

Operasion risklarni boshqarish, aniqlash, mantiqiy va tizimli vositalar yordamida nazorat riskini olib borishga qaratilgan chora tadbirlar yig'indisi tushuniladi. Operasion risklarni boshqarish murakkab jarayon emas, balki talab qilinadigan shaxslardan qo'llabquvvatlash va shu asosida asosiy printsiplarini amalga oshirish uchun. Operasion risk boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkilotlarning kuchli vositasiga aytiladi. U taklif etadi va baxtsiz hodisalarni kamaytirishga qaratiladi. Operasion risklarni boshqarish jarayoni har bir kadrlar uchun muhim bir ovoz ega bo'lishini ta'minlaydigan barcha operatsiyalar va faoliyatida muvaffaqiyat yoki qobiliyatsiz aktivlarni aniqlash hamda qarorlar qabul qilish orqali har doim ish faoliyatini oshiradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Moliyaviy xatarlarni boshqarish yuzasidan yondashuvlarni izohlang?
2. Operasion risklarni boshqarish tamoyillarini tushuntirib bering?
3. Operasion risklarni boshqarish jarayonini tushuntirib bering?
4. Operasion risklarni boshqarishda strategik usullarini izohlang?

15-mavzu. BIZNES RISKLARINI BOSHQARISH REJA

15.1 Biznes risklarini boshqarishning mohiyati va uning tamoillari;

15.2 Biznes riskini baholash maqsadlari;

15.2 Biznes riskini boshqarishda zarur axborotlar;

15.1. Biznes risklarini boshqarishning mohiyati va uning tamoillari

Integratsiyalashgan boshqaruv jarayonlari davom etayotgan bir vaqtda risklardan samarali foydalanish va maxsus ichki imkoniyatlarni izlab topishda Buyuk Britaniyaning yetakchi biznesmenlari va ularning kengashlari ixtisoslashgan biznes risklarini aniqlash va risk qiymatini yaratishga qaratilgan ayrim chora tadbirlarni qo'llamoqdalar. O'shanda dunyodagi yalpi qiymatni yaratishda risklilikning muhim hodisalardan biri ekanligi asos qilib olinganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislar global tarmog'ida riskni tartibga solish, odamlar, operatsiyalar va texnologiyalar asosida o'z mijozlariga yordam beradi, imkoniyatlardan foydalana olib xatarlarni harakat orqali o'zgarishlarni etkazib biror xavfni-o'zgaruvchan ish sifatini yaratish uchun riskdan foydalanish o'rinli bo'lishini aniqlashdi. Misol uchun Willis Group Holding moliyaviy yetakchi sug'urta brokeri hisoblanadi. Willis kompaniyasi biznesda yuzaga keladigan risklarni quvvatlash orqali professional sug'urta kompaniyasini tuzishga erishdi. Tabiiy bir savol tug'iladi, qayta sug'urtalash orqali qanday risk xavflarni boshqarish mumkin? Bu savolga quydagicha javob beramiz:

1. Yangi risklarni kichik korxonalarda foydali ishlarni bajarishdan oldin yoki yirik shartnomalar tuzishdan oldin hisoblab chiqish va samarali ta'sirini bayon etish va bartaraf etishda qo'llash;

2. Sindikatlashgan risk menejmentini yo'lga qo'yish;

3. Sug'urtalash bu riskni sotib olish degani emas, aksincha riskka qarshi chora tadbirlarni amalga tadbiriq qilish deganidir;

4. Kichik korxonalarda riskni diversifikatsiyalash orqali xatardan qochish yoki uni bartaraf etish kabilarni o'z ichiga oladi.

Risklarning biznesdagi salbiy ta'sini quydagicha ifodalashimiz mumkin:

1. Asosiy vositalarga ta'siri jami oborotga nisbatan xajmining kamiyishi (30%);

2. Sotiladigan maxsulot hajmiga nisbatan kamayishi (25%);

3. debitorlik va kreditorlik qarzlarning o'zgarishi (21%);

4. Aylanma mablag'larning kamayishi (35%);

5. Umumiy biznes faoliyatining kamayishi (42%) va h.k.

Eslatib o'tamiz har bir ulush faqatgina berilgan kategoriya bo'yicha butun quymatning bir bo'lagidir. Masalan aylanma mablag'lar 100 % bo'lsa salbiy risk oqibatida 35 % zarar ko'rishi hisob-kitoblarda aniqlangan. Korporatsiyalar moliyaviy va konsalting xizmatlarini butun dunyo davlatlari bo'ylab jismoniy shaxslar va tashkilotlar 400 dan ortiq ba'zilarida 17 000 filiallari orasida qariyb 120 mamlakatlarda biznes risklarini baholashning idoralari tashkil etilgan. Xatarlarni idora direktori,

- direktorlar instituti so‘nggi yillarda eng muhim korporativ risklar ba’zi tahlillardan so‘ng, so‘nggi tadqiqotlardan quydagilarni xulosa qilishimiz mumkin:
- tug‘iladigan asosiy muhim mexanizm orqali aniqlangan boshqarishda yangi strukturani ishlab chiqish kerakligi;
 - riskni diversifikatsiya qilish;
 - vakolatli kengashni boshqarishda mumkin qiyinchiliklar ehtimolini nazoratda olib turmoq;
 - katta imkoniyatning yirik yo‘qotishlarni boshdan kechirayotganda risk portfoliosidan oqilona foydalanib sug‘urtalangan risk miqdorini hisob kitoblardan chiqarib tashlash kabilar. Bunday hollar so‘nggi davrida paydo bo‘ladigan boshqa moliyaviy inqiroz risk boshqaruvida direktorlar kengashi uchun asosiy vazifa ekanligini yoki kuzatuv kengashida muhokama qilinishi va riskdan keladigan zararlarning oldini olishi uchun ustuvor maqsad sifatida belgilanadi. Xatarlarni boshqarishda direktorlar kengashi shunchaki mutaxassislarga vakil bo‘lishi mumkin emasligi alohida ahamiyat kasb etadi. Riskni boshqarish idoralari rahbarlari yoki hatto bosh direktori qarori juda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bir qancha xatarlarni boshqarish jihatlari strategik nuqtai nazardan talab odatda, xavf boshqarish bo‘limida amalga oshirilmoqda. Umumiy muammo ijro etuvchi yoki kuzatuv kengashi a‘zolari uchun risk haqida xolisona axborot etarli oqimlarining ta‘minlanishida muhim muammolarga duch kelayotganligidadir. Biznes risklarini boshqarishda avvalo ularni baholash zarur. Buning uchun bir nechta tamoyillarga bo‘ysunadigan usuldan foydalanamiz. Xususan, **muvozanatlashganlik tamoyili**. Mulkiy majmua – bu tizim bo‘lib, tizimning rivojlanishi va mavjud bo‘lishi qonuniyatlaridan biri bo‘lib uning elementlarining muvozanatlashganligi va mutanosibligi hisoblanadi. Mulkiy majmuaning qiymatini baholashda muvozanatlashganlik (mutanosiblik) tamoyilini hisobga olish zarur, unga ko‘ra ko‘chmas mulkdan eng yuqori daromadni ishlab chiqarish omillarining optimal nisbatlariga rioya qilish orqali olish mumkin.

Bozor muhitining harakati bilan shartlangan tamoyillar bozor muhitining harakati bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Muvofiqlik tamoyili. Muvofiqlik tamoyili shundan iboratki, mulkdagi me‘morchilik, qulayliklar darajasi, undan foydalanish xususiyati mahalliy bozor ehtiyojlariga va kutishlariga mos kelganida eng katta qiymat vujudga keladi.

Masalan, kottej qurilmalari. Shaharchadagi hamma uylarda garajlar bo‘lsa, garajsiz uyni bozor qabul qilmaydi. Agar shaharchada ko‘proq eski kichik uylar bo‘lib, boy me‘morchilik uslubida qurilgan alohida uylar bo‘lsa, bunday hollarda ularning mulk bozori andozalariga mosligi kamroq bo‘ladi.

Regressiya va progressiya tamoyillari. Regressiya, qachonki ko‘chmas mulk ushbu bozor sharoitlariga ko‘ra ortiqcha bo‘lgan yaxshilanish bilan tavsiflansa, sodir bo‘ladi. Bunday mulkning bozor narxi uning real qiymatini aks ettirmaydi va uni shakllantirishning real xarajatlaridan past bo‘ladi. Progressiya, qachonki qo‘shni ob’yektlarning, masalan, yaxshilangan infratuzilmani ta‘minlovchi ob’yektlarning faoliyat ko‘rsatishi natijasida ushbu ko‘chmas mulkning bozor narxi uning qiymatidan yuqori bo‘lganda, sodir bo‘ladi.

Raqobat tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni quyidagicha: agar raqobat kurashining keskinlashuvi kutilayotgan bo'lsa, u holda bo'lajak foydalarni bashorat qilishda ushbu omilni daromadlar oqimining to'g'ridan – to'g'ri kamayishi hisobidan, yoki xatar omilini oshirish yo'li bilan hisobga olish mumkin, bu ham bo'lajak daromadlarning joriy qiymatini pasaytiradi.

Tashqi muhitga bog'liqlik tamoyili. Biznesda mol-mulkning qiymati ko'proq tashqi muhitning holatiga, mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning darajasiga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, ko'chmas mulkni baholashda tashqi muhitga bog'liqlik tamoyilini inobatga olish zarur.

Mulkni eng yaxshi va eng samarali foydalanish bilan bog'liq tamoyillar. Bu guruh tamoyillarining muhim mezonlari bo'lib uning qiymatining bozor tuzilishining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy kuchlar ta'siri ostida o'zgarishidan kelib chiqib o'zgarishi hisoblanadi.

Qiymat o'zgarishi tamoyili. Iqtisodiy va ijtimoiy kuchlar ostida bozor kon'yukturasi va narx-navo darajasi o'zgaradi. Bunday sharoitda korxona qiymatining o'zgarishi ham tabiiy. Binobarin, korxona qiymatini baholash ma'lum bir sanada amalga oshirilishi kerak. Qiymat o'zgarishi tamoyilining mohiyati ana shundan iborat.

Iqtisodiy taqsimot tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra, mulk qiymatini orttirish uchun mulkiy huquqlarni o'ziga xos taqsimlash va biriktirish lozim bo'ladi. Bu esa o'z navbatida biznes riskini pasaytirish uchun turtki bo'ladi.

Taqsimotni mulk huquqlarining turlari uchun qo'llash mumkin:

- jismoniy taqsimlash (uchastkalarga, vertikal bo'yicha va h.k.);
- foydalanish huquqlari bo'yicha taqsimlash (foydalanish huquqini cheklashlar);
- mulk huquqlari ko'rinishlari bo'yicha taqsimlash (birgalikda ijaraga olish, sheriklik, hissadorlik jamiyatlari va h. k.);
- foydalanish vaqti bo'yicha taqsimlash (turli muddatlarga ijaraga qo'yish, butun hayot davomida egalik qilish, kelgusi huquqlar).

Yeng yaxshi va eng samarali foydalanish tamoyili. Yuqorida keltirilgan tamoyillarni qo'llash orqali amalga oshirilgan tahlilning natijasi bo'lib, mulkdan eng yaxshi va eng samarali foydalanish hisoblanadi.

Korxonalar bilan bo'lgan bitimlar tajribasida korxona oldi-sotdisi va biznes oldi-sotdisi farqlanadi.

Oldi-sotdi haqida gap yuritilganda “korxona” va “biznes” atamaları aslida bir-biriga o'xshashdir. Korxona tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ishlatiladigan mulkiy majmua hisoblanadi va korxona faoliyati uchun mo'ljallangan mol-mulkning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Korxona egalik huquqi asosida (xo'jalik yuritish yoki bevosita rahbarlik qilish huquqi) tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan har xil huquq sub'yektlariga tegishli bo'lishi mumkin. Xususan, korxona mulkiy huquqlarni belgilash, o'zgartirish va tugatish bilan bog'liq bo'lgan har xil bitimlar ob'yektiga ham aylanishi mumkin.

15.2. Biznes riskini baholash maqsadlari.

Korxona mulkchilik majmuasi sifatida uning faoliyatiga mo'ljallangan mulkning barcha turlarini o'z ichiga olishi mumkin: yer uchastkalari, binoalar, inshootlar, uskunalar, jihozlar, xomashyo, mahsulot, talab etish huquqlari, qarzlar, shuningdek korxona va uning mahsulotlarini, ish va xizmatlarini o'ziga xosligini ifodalovchi belgilarga (firma nomi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgilari) bo'lgan huquqlar va boshqa alohida huquqlarni, agar o'zga holat qonun yoki shartnoma bilan belgilanmagan bo'lsa.

Biznes riski quyidagi maqsadlarda baholanadi:

1. Korxona, firmani joriy boshqaruv unumdorligini oshirish;
2. Fond bozorida korxona aksiyalarini oldi-sotdi vaziyatida qimmatli qog'ozlar narxini aniqlash. Asoslangan investision yechimni qabul qilish uchun korxona mulkini va ushbu mulkning xarid qilinayotgan aksiyalar paketiga to'g'ri keladigan ulushini, shuningdek biznesdan istiqbolda bo'lishi mumkin bo'lgan daromadlar yoki zararlar salmog'ini topish;
3. Korxonani qiymatini aniqlash, agar u qisman yoki to'liq olib sotilsa ko'p hollarda bitim bekor qilinishi buning oqibatida biznes riskini yuzaga kelish xavfini bartaraf etish yoki hamkorlarning biri o'lganda qo'sh egalik ulushlarini belgilaydigan bitimni imzolash uchun korxona qiymatini aniqlab riskni kamaytiruvchi choralarni qo'llash;
4. Korxonani qayta tuzish uchun bozor baholanishini o'tkazish, korxona faoliyati yakunlanganda, birlashtirilganda, qamrab olinishi yoki xolding tarkibidan mustaqil korxonalar ajrab chiqishi holatlarda;
5. Korxona rivojlanishi loyihasini ishlab chiqish. Strategik rejalashtirish jarayonida firmaning istiqboldagi daromadlarini, uning bardoshlilik darajasi va imidj qadri ham baholanishi muhim o'rin tutadi;
6. Korxonaning kredit to'lash qobiliyati va kreditlashda garov qiymatini aniqlash;
7. Sug'urtalash, ushbu jarayonda yo'qotishlar arafasida aktivlar qiymatini aniqlash zarurati yuzaga keladi;
8. Asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish. Inflyasiya korxonaning moliyaviy hisobotini noto'g'ri ko'rsatadi, shuning uchun korxonaning mulki mustaqil baholovchilar tomonidan vaqti-vaqti bilan baholanishi zarur.

Bu vaziyatda uni isbotlash uchun korxonaning xususiy kapitalini, aktivlarini, biznesini va boshlang'ich to'liq qiymatini bilish zarur. Agarda oldi-sotdi kelishuvi, kreditlash, sug'urtalash, ijaraga olish (berish) yoki lizing, pay kiritish ob'yekti korxona mulkning biror-bir elementi bo'lsa, shuningdek mulk solig'i aniqlanganda zarur ob'yekt alohida baholanadi, masalan ko'chmas mulk, mashina va uskunalar, nomoddiy aktivlar.

15.3. Biznes riskini boshqarishda zarur axborotlar.

Biznes riskini boshqarish jarayonida riskni baholash uchun zarur axborot quyidagicha tasniflanishi mumkin:

- a) manbaalar bo'yicha: bozorda olingan, baholanayotgan kompaniyada

olingan;

b) turi bo'yicha: yuridik, moliyaviy, texnik, tijorat;

c) ko'lami bo'yicha: umumiy, sohaviy, alohida korxona yoki uning tuzilmaviy bo'linmalari to'g'risida.

Biznes riskini baholashda ishlatiladigan axborotni umuman olganda ikkita guruhga bo'lsa bo'ladi: tashqi axborot va ichki axborot.

Biznes riskini baholash uchun ishlatiladigan tashqi axborot korxonani sohada va umuman iqtisodda ishlash shartlarini aks ettiradi.

"Biznesning normal ishlashi" tamoyili asosida sotuvlar hajmi, olinayotgan foyda va moliyaviy resursning eng maqbul birikmasi yotadi, ular esa ko'p hollarda tashqi sharoitlar bilan belgilanadi:

- makroiqtisodiy va sohaviy faktorlar;
- inflyasiya darajasi;
- mamlakatning iqtisodiy rivojlanish sur'ati;
- sohadagi raqobat shartlari va h.k.

Risk nuqtai nazaridan baholanayotgan biznesning o'ziga xos xususiyati korxona va uning faoliyatini ta'riflaydigan aniq va imkon qadar to'liq ichki axborot asosida namoyon bo'ladi. Agar korxonada biznes reja ishlab chiqilgan bo'lsa, unda korxonani ta'riflash bo'limida quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan axborotlar bor bo'ladi:

- soha ta'rifi;
- korxonaning joriy moliyaviy holatini asosiy ko'rsatkichlari;
- tashkiliy huquqiy shakli;
- ustav kapitali miqdori; ustav kapitalidan eng ko'p hissador egalari to'g'risida ma'lumotlar;
- korxonani konsern yoki xoldingga tegishliligi.

Bundan tashqari biznes riskini baholash uchun quyidagi ma'lumotlar kerak bo'ladi:

- korxona tarixi haqida retrospektiv ma'lumotlar. Ayni vaziyatda ikki aspekt muhimdir: har bir mahsulot turi bo'yicha ishlab chiqarish jarayoni bayoni va korxona tarixi bayoni;

- korxonaning marketing strategiyasi bayoni (birinchidan tashqi omillar; ikkinchidan, ishlab chiqarilayotgan tovarlar hayot davri; uchinchidan, ishlab chiqarish quvvatlari mavjudligi bilan belgilanadi);

- baholash sanasiga bo'lgan korxonaning joriy ishlari holatini aks ettiruvchi moliyaviy axborot;

Ta'kidlangan manbalar sof foydaning haqiqiy miqdori, moliyaviy tavakkalchilik va moddiy va nomoddiy aktivlarning bozordagi qiymati haqidagi savolarga javob olish uchun asos bo'la oladi. Tasdiqlaydigan yoki o'ziga xos ijobiy yoki salbiy tomonlarini oydinlashtiradigan yanada batafsil tahlil uchun buxgalterlik hisobotning boshqa shakllari, shuningdek korxonaning ichki operativ va boshqaruv hisobotlari ham ishlatilishi mumkin.

Biznesni riskini baholashda ishlatilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlarni to'rt guruh bo'yicha tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruh biznesdan bo'lgan moliyaviy manfaatlarni ta'riflaydi. Ularga quyidagilar taaluqli bo'lishi mumkin:

- operatsiyalar yoki investisiyalardan foyda yoki pul tushumlari;
- aktivlarni sotish yoki garovga qo'yish; □ biznesni sotish.

Moliyaviy manfaatlar manbaalari cheklangan. Qoidaga ko'ra, tahlil uchun ularni to'lig'icha aniqlash aytarli qiyin emas. Biroq, manfaatlarni noto'g'ri aniqlangan to'plami baholashni ishonchliligini jiddiy ravishda susaytirishi mumkinligini nazarda tutish lozim.

Ikkinchi guruh muayyan retrospektiv davrda va muayyan istiqbolga (1-3 yilga) biznesning moliyaviy ko'rsatkichlarini ifodalaydi:

- foyda-baholashda sof foyda ishlatiladi, biroq ko'pincha foydani emas balki pul oqimini ishlatish maqsadga muvofiqroq. Biznes egasining ixtiyoriga tushadigan pul oqimi sof foyda va asosiy fondlar va nomodiy aktivlarning balans qiymati bo'yicha hisoblangan amortizatsion chegirmalardan tashkil topadi. Pul oqimini aniq tarkibi va hisoblash usuli keyinroq ko'rib chiqiladi. Ta'kidlash joizki, pul oqimi serxarajat sohalarda va inflyatsiya darajasi yuqori bo'lganda qo'llanishi afzalroq. Pul oqimi sof foydaga nisbatan barqarordir va aynan shuning uchun uni qo'llanishi maqsadga muvofiq;

- dividendlar yoki ularni to'lash qobiliyati. Biznes riskini baholashning zamonaviy nazariya va amaliyoti dividendlarga kompaniyaning daromadliligiga nisbatan kam e'tibor beradi. Biroq, agar investor biznesda nazorati yo'q aksiyalar paketini sotib olsa, dividendlarni u tomonidan qaror qabul qilinishiga ta'siri katta;

- aktivlar-biznes riskini baholashda aktivlarni o'rnini to'g'ri tushunish kerak. biznesni bir qismiga egalik qilish aktivlarning mutanosib qismiga egalik qilish huquqini bermaydi, faqat daromadlarning bir qismini olish huquqini beradi xolos. Amaldagi korxona uchun aktivlar tavakkalchilik darajasi orqali daromadlilikka ta'sir qiladi.

Tugatilayotgan korxona uchun aktivlar – daromadning asosiy manbaasi.

Ushbu ko'rsatkichlarning har biri dinamikada tahlil qilinishi kerak.

Uchinchi guruh – biznes riskining nomoliyaviy ko'rsatkichlari, shu jumladan:

- Biznesning umumiy hajmidagi kelishuvlar ulushi. Bu vaziyatda kichik variantdagi kelishuvlarni ajratish lozim: nazorat paketli va nazoratsiz paketli (minoritar ulush) kelishuvlar. Muayyan korxonada nazorat paketini xarid qilish uni boshqarish huquqini beradi. Ya'ni nazorat paketi egasi minoritar paket egasiga nisbatan qo'shimcha moliyaviy foydalar oladi. Demak, nazorat paketidagi bitta aksiya minoritar paketdagi aksiyadan qimmatroq turadi desa ham bo'ladi;

- Biznesning tashkiliy huquqiy shakli va uning ustav nizomlari.

Biznesning ushbu xususiyatini ta'siri uning likvidliligi bilan bevosita (ochiq aksiyadorlik jamiyatlar yopiq kompaniyalarga nisbatan doimo likvidliroq bo'lgan) va bilvosita (mulk egasining ustavda o'rnatilgan huquqlarini cheklaydigan) bog'liq.

Biznes riskini baholovchi tomonidan ishlatiladigan to'rtinchi guruh axborotlari firma uchun tashqi omillarni tashkil etadi. Ulardan e'tiborlilari quyidagilar:

- Markaziy Bankining va tijorat banklarining mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy holatini va hukumatning investision siyosatini ta'riflaydigan foiz stavkalari darajasi;
 - Tavakkalchilik darajasi, shuningdek sohaviy, mintaqaviy.
- Korxonaning yakuniy qiymatini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$V = \sum_{i=1}^n V_i \times Z_i$$

Bu yerda:

V_i – korxonaning qiymatini i -m metod yordamida baholash; $i=1, \dots, n$ – bu holatda qo'llaniladigan metodlarning ko'pligi; Z_i - i metodning tortilish koeffitsiyenti.

Ko'pchilik professional baholovchilar biznes riskini baholashda uchta yondashuv: xarajat, qiyosiy hamda daromad yondashuvlaridan foydalanishadi. Korxonaning muayyan turlari ularning tijorat potensialiga asoslanib baholanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Biznes risklarini boshqarish tamoyillarini tushuntirib bering?
2. Biznes riskni baholash uslublarini tushuntirib bering?
3. Biznes riskini boshqarishda zarur axborotlarni sanang?

16-mavzu. KORXONALAR MOLIVAVIY RISKLARINI BOSHQARISH

16.1. Korxonalarning moliyaviy risklari turlari.

16.2. Korxonalarda moliyaviy risklarni boshkarish.

16.3. Korxonalarning moliyaviy risklarini kamaytirish yullari

16.1. Korxonalarning moliyaviy risklari turlari.

Korxonalar moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etish va ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda risklarni boshqarish muhim masalalardan biri sanaladi. Hammamizga ma'lumki hozirgi kunda hukm surayotgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, ko'plab davlatlarning iqtisodiyotiga, xususan real va moliyaviy sektor korxonalar faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Albatta buning natijasida korxonalar xo'jalik moliyaviy faoliyatining risklilik darajasini keskin ortib ketishini, hatto ularning bankrot holatiga tushib qolishligini ham kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Bunday sharoitda, davlat tomonidan korxonalar xo'jalik-moliyaviy faoliyatini tartibga solish, ularga turli imtiyozlar berish va qo'shimcha moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, korxonalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada mamlakatimizda ham ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Respublikamiz banklari tomonidan ko'rsatilgan yordam mahsulot eksport qiladigan korxonalarning barqaror ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Birgina o'tgan yilning o'zida bu korxonalarga aylanma mablag'larini ko'paytirish uchun umumiy miqdori 233 milliard so'mdan iborat imtiyozli kreditlar berilgani ularga, o'z mahsulotini eksport qilish bo'yicha yuzaga kelgan vaqtinchalik qiyinchiliklarga qaramasdan, ishlab

chiqarishning pasayishini oldini olish imkonining berdi. Dastur doirasida amalga oshirgan yana bir muhim tadbirimiz – soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha xo'jalik tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'shimcha choralar ko'rilganidir¹⁷”

Bozor munosabatlari sharoitida har qanday mulkchilik shaklidagi korxonalar faoliyatida risklarning mavjudligi bu tabiiy holat hisoblanadi. Chunki tadbirkorlik faoliyati muayyan bir tavakkalchiliklarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bunday sharoitda korxonalarda kutiladigan daromad, foyda va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlarni ololmaslik ehtimolligi yuzaga kelishi mumkin.

Korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatida kutilgan foydaning olinmasligi, kutilmagan xarajatlarning kelib chiqishi bilan bog'liq hodisalar yoki ularning yuz berish ehtimolliklari riskni ifodalaydi.

Fikrimizcha, risk - bu moliyaviy kategoriya bo'lib, kutilishi mumkin bo'lgan omad yoki xatar, ya'ni ko'zlangan foydani olish jarayoniga xos bo'lgan umid qilish yoki ko'p mablag'larning yo'qotilishi ehtimolliklari bo'lib, u qandaydir holatlar, omillar ta'sirida kutiladigan foydaning pasayishi, ortishi yoki yo'qotilish ehtimolida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, risk bu, korxonalarda rejalashtirilgan miqdorlarda daromad, foydani ololmaslik yoki zarar ko'rish ehtimolligidir.

Risklarni kichik biznes korxonalari foydasiga ta'sirini baholash va kamaytirish maqsadida risklarning turli belgilari bo'yicha tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes korxonalari joriy va uzoq muddatli vazifalarni amalga oshirishlarida qator risklarga duch keladilar. Shuning uchun risklarning tabiati va turlarini yoritish uchun ularni tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Risk turlarining deyarli barchasi korxonalari moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'sir etadi, lekin korxona qaysi iqtisodiyot tarmog'ida o'z faoliyatini yuritishiga qarab, risklar ta'siri darajasi ham o'zgarishi mumkin.

Ko'plab xorijiy va mamlakatimizdagi chop etilayotgan iqtisodiy adabiyotlarda risklarning bir necha xil turlari sanab o'tilgan. Risklarini boshqarishni samarali tashkil etish ularni muayyan belgilari bo'yicha aniq guruhlariga bo'lishga bog'liq. Risklarning ilmiy asoslangan tasnifi ularni har birining umumiy tizimdagi o'rnini belgilash imkonini beradi. Iqtisodiy adabiyotlarda risklarni tasniflashning turli xil ko'rinishlari berilgan. Bizningcha korxonalar xo'jalik-moliyaviy faoliyatida uchraydigan risklarni quyidagi xususiyatlari bo'yicha tasniflash mumkin.

1. Xo'jalik faoliyatining shakli yoki yo'nalishiga ko'ra:
 - tadbirkorlik riski; - moliyaviy risk.

Tadbirkorlik riski deyilganda asosan mahsulotlar realizatsiyasi va xom ashyolarni sotib olish jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar tushuniladi.

Moliyaviy risklar deyilganda, korxonalarning boshqa moliyaviy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan risklarni tushunish mumkin. Bularga misol qilib, korxonalarni tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, investision kompaniyalar, fond birjalari va boshqa moliyaviy muassasalar bilan munosabatlari kiritishimiz mumkin. Korxonalarda moliyaviy

risklarni yuzaga kelishiga asosan, inflyasion omillar, banklarda kreditlarni foiz stavkalari ortib ketishligi, qimmatli qog'ozlarning narxining tushib ketishligi va boshqa omillar ta'sir qiladi.

2. Namoyon bo'lish shakliga ko'ra barcha turdagi risklar:

- sof risklar;
- spekulyativ (chayqovchilik) risklarga bo'linadi.

Sof risklar deyilganda, korxonalar xo'jalik-moliyaviy faoliyatida zarar ko'rishligi yoki hech qanday daromad ololmaslik ehtimolini tushunish mumkin.

Spekulyativ (chayqovchilik) risklarda esa, korxonaning ijobiy natijaga yoki bo'lmasa nol (salbiy) natijaga erishishlik ehtimoli namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, spekulyativ risklar korxonalarning yoki daromad, foyda olishligini yoki zarar ko'rish ehtimolligini anglatadi.

Bundan tashqari tadbirkorlik risklarini yuzaga kelish sohasiga ko'ra tashqi va ichki risklarga bo'lib olish mumkin. Korxonalar o'zlarining xo'jalik faoliyatini bevosita tashqi muhit bilan bog'langan holda amalga oshiradilar. Albatta bunday sharoitda korxonalar xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi tashqi omillarnin har tomonlama chuqur o'rganish muhim hisoblanadi. Korxonalarda tashqi risklar darajasiga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Bularga misol qilib, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy-iqlim risklarini ko'rsatish mumkin. Tashqi risklarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular tadbirkorlik faoliyati natijalariga ham bevosita, ham bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Albatta, har qanday mulkchilik shaklidagi korxonalarga tashqi riskning ta'siri o'ta salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Tashqi risklar ob'yektiv xususiyatga ega bo'lib, bunday risklarni tartibga solish yoki boshqarish korxona uchun qiyin kechadi. Korxonalar faoliyatida uchraydigan asosiy tashqi risklardan biri bu iqtisodiy risklardir. Iqtisodiy risklar mamlakatdagi iqtisodiy holatdan kelib chiqadi va korxonalar faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Barchamizga ma'lumki jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizdagi ko'plab eksportga ixtisoslashgan korxonalar va xorijiy davlatlardagi aksariyat firma va kompaniyalar faoliyatida iqtisodiy riskning yuzaga kelishi kuzatildi. Albatta bunday turdagi risklarni boshqarish yoki tartibga solish nafaqat korxona menejerlariga bog'liq balki halqaro bozordagi holat va boshqa davlatlardagi iqtisodiy vaziyatlarga ham bog'liqdir.

Ichki risklar, korxonaning ichki xo'jalik faoliyati natijasida yuzaga keladi. Bunday risklarga korxonaning ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonlari bilan bog'liq, xodimlarning malakalari bilan bog'liq, boshqaruv strategiyasining qanday darajada ekanligi bilan, asosiy vositalarning holati va texnika xavfsizligi bilan bog'liq holatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni kiritishimiz mumkin.

Moliyaviy risklarning yuzaga kelishi korxonalarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha bo'lib, ularni asosan quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- foiz riski;
- investision risk;
- valyuta riski;
- kredit riski;

- soliq riski;
- inflyasion risk va boshqalar.

Foiz riski korxonalarda ma'lum bir faoliyat turlari bo'yicha uning foiz ko'rsatkichlari yoki to'lovlarini oshib ketishligi hamda kamayib ketishligi ehtimolligi natijasida foyda xajmini belgilangan darajada ololmaslik ehtimolligidir. Bunday risk asosan korxonalarni qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin.

Investision risklar korxonaning investision faoliyatlarni amalga oshirish natijasida kutilgan daromadlarni ololmaslik ehtimolligidir.

Bunday risk turi asosan qo'shma korxonalar faoliyatida uchraydi.

Valyuta riski deganda, tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonida ayirboshlash kurslari o'zgarishidan yoki boshqa turli valyuta operatsiyalari amalga oshirilishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yuqotishlar (yoki daromad olish) tushuniladi. Valyuta risklari yuzaga kelishining asosiy sababi- valyuta kurslari o'zgarishi hisoblanadi. Bunday o'zgarishlar xamma shaxslarga: ishbilarmon firmalar va davlat tuzilmalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina xollarda, ularning faoliyati eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq va shu sababli, kreditorlar va qarz oluvchilar, investorlar va chayqovchilar, xo'jalik sub'yektlari o'z bizneslarini milliy valyutaga nisbatan xorijiy valyutalarda amalga oshirishni ma'qul ko'radilar.

Valyuta riskiga - tashqi savdo, kredit, valyuta operatsiyalari, hamda fond va tovar birjalarida amalga oshirilayotgan operatsiyalarda, milliy valyuta kursiga nisbatan xorijiy valyutani kursi o'zgarishi bilan bog'liq valyuta yo'qotishlari xavfi kiritiladi. Valyuta riskining xajmi, valyutaning sotib olish qobiliyatining pasayishi bilan bog'lik, shu sababli u bitim imzolangan va to'lovni amalga oshirish muddati o'rtasidagi vaqt oralig'ining farqiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Soliq riski dyeganda soliq qonunlarining o'zgarishi yoki soliq to'lovlarini hisoblaganda yo'l qo'yilgan xatoliklar natijasida korxona ko'rishi mumkin bo'lgan zaralarni tushunish lozim.

Tasniflangan har bir riskni ob'yektiv xususiyatga egaligidan kelib chiqib, unga ta'sir etuvchi omillarni tadbirkorlik sub'yektlariga nisbatan ta'sirchanligini ichki va tashqi omillarga bo'lish mumkin. Ichki omillar o'z navbatida korxona strategiyasi, resurslar va ularning ishlatilishiga, tashqi omillar esa bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi omillarga bo'linadi.

16.2. Korxonalarda moliyaviy risklarni boshkarish.


Risk omillarining bir-biriga bog'liqligi uning ustuvorligini namoyon qiladi. Ma'lum bir omilning o'zgarishi boshqa omillar o'zgarishiga ham ta'sir etadi va natijada ularning risk darajasiga ta'sirini o'zgartiradi. Risklarni boshqarish jarayonida kichik biznes korxonalarida risklarni baholash mexanizmi alohida ahamiyat kasb etib, tadbirkorlik faoliyati natijalariga ta'sir etuvchi risk hisoblab chiqiladi. Riskni baholash - bu risk darajasini miqdoriy va sifat jihatdan hisoblashdir. Eng avvalo, tadbirkorlik risklarini miqdoriy va sifat jihatidan baholash lozim. Sifat tahlili - bu nisbatan oddiy

bo'lib, uning asosiy vasifasi - kutilishi mumkin bo'lgan risk turlarini aniqlash hamda ma'lum bir faoliyatda risk darajasiga ta'sir etuvchi omillarni belgilashdir.

Korxona menejerlarining risklarni boshqarishdagi asosiy vazifalaridan biri bo'lib, risklarni paydo bo'lish manbalarini aniqlash, ularni bartaraf etishning alohida yo'llari va usullarini belgilash hamda bunday risklarni kelgusida oldini olish bo'yicha aniq chora tadbirlar ishlab chiqish hisoblanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda risklarni boshqarish mexanizmini to'g'ri tashkil etish va risklarni samarali boshqarish, korxonaning moliyaviy barqarorligini saqlab qolish bilan birgalikda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonini uzluksizligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sanaladi. Xorijiy kompaniyalarda risklarni boshqarish bo'yicha alohida bo'limlar va mas'ul xodimlar tayinlangan bo'lib, ushbu bo'lim yoki risk-menejmentining asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- risklarni yuzaga kelish sohalari va manbalarini aniqlash;
- risklarni kamaytirish yo'llari va usullarini belgilash;
- risklarni sug'urtalash jarayonini boshqarish;
- risklarni bashoratlash;
- diversifikatsiyalash jarayonini boshqarish;
- risklarni boshqarish va kamaytirish bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- rag'batlantirish;
- nazorat va boshqalar.

Risk-menejmentining asosiy maqsadi tadbirkorlik faoliyatining maqsadi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda risklarni kamaytirish yoki oldini olishning eng optimal usulini tanlash hisobiga foydani maksimallashtirish hisoblanadi.



Kompaniyalarda riskni boshqarish jarayoni.

Korxonalarda riskni boshqarish jarayonini quyidagi rasm yordamida ifodalash mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar xo‘jalik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni kamaytirishning jahon tajribasini keng o‘rgangan holda amaliyotda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Avval ta’kidlaganimizdek, korxonalar faoliyatida asosiy e’tibor berilishi lozim bo‘lgan masalalardan biri risklarni boshqarishdir. Bugungi kunda riskni boshqarish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Korxonaning strategiyasi va maqsadni belgilash.
2. Riskni aniqlash.
3. Riskni baholash.
4. Riskni boshqarishni choralari, usullarini tanlash va joriy qilish.
5. Amalga oshirilgan ishlarni samaradorligini nazorat qilish.

16.3. Korxonalarning moliyaviy risklarini kamaytirish yullari.

Korxonalarda riskni boshqarishni muhim jihatlaridan biri ularni kamaytirish yo‘llarini to‘g‘ri tanlash va amaliyotga samarali tadbiq etish hisoblanadi. Risklarni kamaytirishni xorijiy davlatlar va mamlakatimizda foydalaniladigan quyidagi usullari mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Korxonaning ichki moliyaviy imkoniyatlardan foydalangan holda risklarni kamaytirish. Bunda asosan, yuzaga kelgan riskni korxonaning ichki moliyaviy zaxiralari va moliyaviy resurslari hisobiga kamaytirishni ko‘zda tutadi. Bu usul korxona uchun riskni kamaytirishni eng optimal yo‘llaridan biri bo‘lib, korxonada qo‘shimcha majburiyatlar paydo bo‘lishini oldini oladi. Albatta, buning uchun korxonalar ixtiyorida qoladigan foydaning bir qismini ko‘zda tutilmagan holatlar uchun zaxiralar shakllantirishni yanada keng yo‘lga qo‘yish lozim. Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksariyat korxonalarda bunday tartibga unchalik e’tibor qaratilmay kelmoqda. Ko‘pgina hollarda korxonalar o‘zlarining ixtiyorida qoladigan foydaning deyarli barcha qismini aylanma mablag‘larni ko‘paytirishga yo‘lantiradi. Shuning uchun korxonalar faoliyatida bunday holatlarni bartaraf etish maqsadida, ularning ixtiyorida qoladigan sof foydaning bir qismini qo‘shimcha moliyaviy zaxiralar yaratishga yo‘naltirishni qonunchilik bilan qat’iy belgilab qo‘yish riskni kamaytirishda ijobiy samara beradi.

2. Korxona kapitali va daromadini diskontlashtirish. Diskontlashtirish kelajakda olinishi mumkin bo‘lgan summaning hozirgi pulli ekvivalentini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun kelajakda olinishi kutilayotgan summada murakkab foiz bo‘yicha ma’lum muddatga jamlangan daromadni ayirish kerak. Diskontlashtirish investisiyalarning kelgusi qiymatini baholashda, qimmatbaho qog‘ozlarning qiymatini aniqlashda, bank, sug‘urta, valyuta amaliyotida va boshqa hollarda keng qo‘llaniladi. Daromadni diskontlashtirish kelajakda pul tushumlarini (foyda, foizlar, dividendlar) baholash uchun qo‘llaniladi. Investor kelgusida rejalashtirilgan daromad darajasidan kelib chiqqan holda loyihaga maksimal miqdorda moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatini to‘g‘ri baholashi kerak aks holda kutilgan maqsadlarga erishish imkoniyati bo‘lmaydi.

3. Korxonada riskni kamaytirishning yana bir usuli riskni sheriklarga yoki uchinchi tomonga o'tkazish (transfert qilish) hisoblanadi. Bunda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan riskni uchinchi tomonga o'tkazish quyidagi operatsiyalar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- faktoring operatsiyalari orqali;
- kafillik shartnomlari tuzish orqali;
- yuzaga kelishi mumkin bo'lgan riskni hamkorlar o'rtasida taqsimlash va boshqalar.

Faktoring - hisob-kitoblarni tashkil etish sohasidagi yangi xizmat turlaridan bo'lib, korxonaning (mijozning) aylanma kapitalini kreditlash bilan muvofiqlashadi. Faktoring operatsiyasining asosiy maqsadi mijozlarining qarzdorligini o'z vaqtida inkassa qilish, to'lovlarini o'z muddatida olib borish, shubhali qarzdorliklarini paydo bo'lishini oldini olish, mijozlarining likvidligini oshirish va moliyaviy risklarini pasaytirishdan iboratdir. Bunday operatsiyalarni odatda maxsus faktoring firmalari amalga oshiradi. Ular banklarda yoki ularning ixtisoslashgan filiallari va kompaniyalari xisoblanadi.

Faktoring operatsiyalarida bank o'z mijozlarining debitorlarga talablarini (da'volarini) sotiboladi. Bunda bank talabning 60-70-90% ni (foizdarajasi mijozningmoliyaviy holati, likvidlilik darajasivaboshqa moliyaviy ko'rsatkichlarni hisobgaolganholdaturli xil bo'lishi mumkin) avans tariqasida birdaniga to'lashi qolgan kismini esa, (kredit uchun foizni hisobga olmagan holda) belgilangan muddatda, debitordan to'lov tushishidan qat'iy nazar to'laydi.

Faktoring mijozlarga xizmat ko'rsatishning universal shakli hisoblanadi, chunki mijozlar o'z talablari (da'volari) buyicha buxgalteriya xisobini yuritish, ularning to'lovliligini tekshirishdan xoli bo'lishadi. Banklar mahsulot sotib oluvchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi axborotni mijozlariga yetkazishlari, xorijiy davlatlardagi to'lovlar kafolatini o'z bo'yniga olishlari mumkin.

Kafillik shartnomalarini tuzish orqali korxonalar o'zlarining majburiyatlarini ma'lum ma'noda kafil tomonga o'tkazib berishni ifodalaydi. Korxonalar mahsulot va xizmat turlarini sotib olishda uchinchi shaxs kafilligidan foydalanishlari mumkin. Bizning amaliyotda tijorat banklari o'zlarining ishonchli va moliyaviy barqaror mijozlariga mahsulot va xizmatlari sotib olishda kafillik shartnomasini tuzadilar. Ushbu tuzilgan shartnomaga asosan agar mijoz o'zining to'lov majburiyatlarini bajara olmaydigan bo'lsa tijorat banki shartnomada ko'rsatilgan summani mahsulot yetkazib beruvchiga to'lab berish majburiyatini oladi. Korxonalar faoliyatida bunday operatsiyalar risklarni kamaytirish bilan birga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonini uzluksizligini ta'minlaydi.

4. Korxonaning muayyan bir faoliyat turini sug'urtalash yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan riskni sug'urtalash. Riskni kamaytirishning ushbu usuli xorijiy mamlakatlar kompaniyalarida eng ko'p foydalaniladigan usullardan biri bo'lib, bunday korxonalar mahsulotlarni xaridorlarga yetkazib berish, mahsulotlarni omborlarda saqlanishi, mahsulotlarni realizatsiyasi qilish kabi jarayonlarni sug'urtalash asosida

riskni kamaytiradilar. Hozirgi kunda bizning mamlakatimizda ham sug'urta bozori rivojlanib, amaliyotda sug'urta turlarining soni ko'payib bormoqda.

O'ylaymizki, sug'urta bozorida yuqoridagi xizmat turini ham keng joriy qilinishi korxonalar uchun ijobiy samara berish bilan birga sug'urta kompaniyalari uchun ham qo'shimcha moliyaviy resurslarni shakllantirishda manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yuqoridagilardan tashqari korxonalarda riskni kamaytirishini boshqa usullari ham mavjud bo'lib, quyida biz ularning asosiylarini ko'rib chiqamiz:

1. Riskni birlashtirish - bu umumiy muammolarni hal qilishga hamkorlar sifatida boshqa korxonalar yoki yuridik shaxslarni jalb qilish orqali o'z riskining darajasini pasaytirishdir. Buning uchun aksionerlik jamiyatlari, moliya - sanoat guruhlarini tashkil etilishlari mumkin, korxonalar bir-birlarining aksiyalarini sotib olishi yoki almashishlari mumkin, bundan tashqari ushbu korxonalar turli assosatsiya va konsernlarga a'zo bo'lishlari mumkin. Risklarni birlashtirish deganda riskni iqtisodiyotning bir nechta sub'yektlari o'rtasida bo'lish orqali uni pasaytirish tushuniladi.

2. Riskni xedjirlash usuli asosida kamaytirish. Xedjirlash narxlarning salbiy o'zgarishlarni oldini olish maqsadida oldindan tuziladigan birjadagi bitimlar hisoblanadi. Ya'ni korxona oldindan bitim tuzgan xolda narxni belgilab kelgusida shu narx bo'yicha savdo qiladi. Narxlar keskin tushib ketganda ham korxona bitimda qat'iy belgilangan narx asosida savdoni amalga oshiradi. Shuni ham ta'kidlash joizki, xedjirlash kelgusida olinishi mumkin bo'lgan daromaddan voz kechtirish imkoniyatiga ham ega. Chunki narx doimiy ravishda tebranib turadi.

- Amaliyotda xedjirdash asosan quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:
- fyuchers shartnomalaridan foydalanish orqali xedjirlash;
- «svop» operatsiyasidan foydalanish orqali xedjirlash.

3. Diversifikatsiyalash usuli. Diversifikatsiyaning mohiyati shundan iboratki, investision portfelning umumiy riskini kamaytirish maqsadida, bir nechta riskli ativlarni xarid qilishdan iborat. Ya'ni iqtisodiy faoliyat qo'lamini kengaytirish, ishlab chiqarishning boshqa sohalariga kirib borish. Investor qo'yilmani uch usul orqali diversifikatsiya qilishi mumkin - bir nechta korxonaga investisiya qilish, bir nechta mahsulot turini ishlab chiqaruvchi korxonaga investisiya qilish va investisiya kiritiladigan sohaga mo'ljallangan fondga investisiya qilish. Ustun tomoni shundan iboratki, biror-bir investision portfel kamomad bilan chiqsa uni boshqa portfellar evaziga qoplashdir.

Shuningdek valyuta zahiralarini diversifikatsiya qilish amaliyotda ko'p uchraydi. Valyuta kurslari doimo tebranib turadigan sharoitda valyuta zahiralarini diversifikatsiyasi qilish maqsadga muvofiqdir. Valyuta kursini diversifikatsiya qilish deganda, zaxiralar tarkibidagi nobarqaror valyutani sotish va ularning o'rniga barqaror valyutalarni sotib olish tushuniladi.

Diversifikatsiya riskning bir qismini chetlab o'tish imkoniyatini beradi. Bunda kapital turli xil faoliyat o'rtasida taqsimlanadi. Lekin, deversifikatsiya investision

riskni umuman yo'qota olmaydi. Chunki, tadbirkorlik va investision faoliyatiga tashqi omillar ta'siri doimo inobatga olinishi lozim.

Korxona moliyaviy holatining diversifikatsiyasi turli moliyaviy operatsiyalardan daromad olish muqobil (alternativ) imkoniyatlaridan foydalanishni ko'zda tutadi. Qimmatli qog'ozlar portfelining diversifikatsiyasida investision portfelning daromadlilik darajasini kamaytirmasdan investision risklarni pasaytirish imkoniyatini beradi.

Korxona depozit quyilmalarining diversifikatsiyasi bir nechta banklardan daromad olish maqsadida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini joylashni ko'zda tutadi. Korxona valyuta savatining diversifikatsiyasi tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida valyutaning bir nechta turini tanlashni ko'zda tutadi (bu valyuta riskini minimallashtirish imkonini beradi).

Tadbirkorlik faoliyati davomida riskni baholab, uni kamaytirish maqsadida diversifikatsiyalash usulidan foydalanishda loyihaning sezgirlik tahlilini, "Zararsizlik nuqtasi" ni aniqlash, barqarorlikni tekshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Diversifikatsiyalash usulida sezgirlik tahlili loyihaning o'xshash parametrlaridan biri o'zgarganda, loyiha samaradorligi qay darajada o'zgarishiga mikdoriy baho berishda qo'llaniladi. Sezgirlik tahlilini investisiya loyihalari natijalariga sezilarli darajada ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni taqqoslash taxlili uchun o'tkazish tavsiya etiladi.

Bu omillar bilan bog'liq vazifalarni yechishda quyidagi ketmaketlikka amal qilinadi. Avvalo, sof joriy qiymatni hisoblashga yordam beradigan omillar aniqlanadi. Keyin ma'lum oraliqlarda omillardan biri o'zgartirilib, sof joriy qiymat hisoblab chiqiladi, ushbu yo'l har bir omil uchun takrorlanadi. Shundan so'ng hamma hisoblar jadvalga joylashtiriladi, har bir omil o'zgarishiga nisbatan loyihaning sezgirlik darajasi solishtiriladi va loyihaning muvaffaqiyatiga eng ko'p darajada ta'sir etuvchilari aniqlanadi. Sezgirlik tahlili yordamida, hisoblar uchun zarur bo'lgan turli xil o'zgaruvchilar berilganda, nakd foyda yoki investisiya rentabelligining eng zaruriy o'zgarishlarini aniqlash mumkin. Turli xil o'zgaruvchilarga ishlab chiqarish xarajatlari, sotish hajmi, investisiya davri davomiyligi, kredit foizi, xom ashyo va yoqilgi qiymati, soliqlar miqdori va boshqalar misol bo'ladi.

Zararsizlik nuqtasini aniqlash usuli yordamida mahsulot sotishdan kelgan tushum uni ishlab chiqarish xarajatlariga teng bo'lgan holdagi sotish hajmi aniqlanadi. Agar sotish hajmi bu nuqtadan past bo'lsa, korxona zararlarni qoplashi mumkin, agar pul kirimi xarajatlarga teng bo'lsa, korxona ishini zararsiz olib borayotgan bo'ladi. "Zararsizlik" tahlili loyiha quvvati yoki ishlab chiqarish hajmi mikdori topish maqsadida qo'llaniladi. Agar ishlab chiqarish hajmi past bo'lsa, korxona zararga ishlayotgan bo'ladi. Bu tahlil loyihani baholashda turli narx va qiymatni hisobga olishga bir qator zararsizlik nuqtalarini hisoblashga imkon beradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda moliyaviy risklarni kamaytirish istiqbollari moliyaviy strategiya va usullar yig'indisi risklarni boshqarish mexanizmini, ya'ni risk menejmentni tashkil etish orqali amalga oshirish maqsadga

muvofigdir. Avval ta'kidlaganimizdek, risk menejmenti moliyaviy menejmentning bir qismini tashkil etadi.

Risk menejmenti asosida risk darajasini pasaytirish bo'yicha maqsadli izlanishlar va ishlarni tashkil etish, ya'ni har qanday xo'jalik faoliyatini yuritishda daromad olish va uni (daromadni, foydani) oshirish qobiliyati yotadi. Risk menejmentning asosiy maqsadi bo'lib, tadbirkorning maqsadli vazifalari hisoblanadi va bunda tadbirkor uchun foyda va riskning optimal va foydali munosabatlari natijasida yuqori daromad olish aks etadi. Risk menejment bu risklarni boshqarish va bu boshqaruv jarayonida kelib chiqadigan iqtisodiy, aniqrog'i moliyaviy munosabatlar tizimidir.

Risk menejment boshqaruvning strategiyasi va taktikasini o'z ichiga oladi. Boshqaruv strategiyasi - bu qo'yilgan maqsadga erishish uchun moliyaviy vositalardan foydalanish usullari va yo'nalishlari majmuasidir. Moliyaviy usullarga qaror qabul qilish uchun umumiy chegaralar va qoidalar to'plami mos keladi. Strategiya esa boshqa variantlardan voz kechib, qabul qilingan strategiyaga to'g'ri keladigan qaror variantlariga mos fikrni jamlash imkonini beradi. Qo'yilgan maqsadga erishgandan keyin strategiya unga erishish yo'nalishi va vositasi sifatida o'z kuchini yo'qotadi. Yangi maqsadlar esa o'z oldiga yangi strategiya ishlab chiqarish va uni samarali amalga oshirish masalasini qo'yadi. Taktika - bu aniq sharoitda quyilgan maqsadga erishish uchun aniq usul va uslublar majmuasidir. Boshqaruv taktikasi masalasi mavjud xo'jalik faoliyatini yuritishda ijobiy va optimal qarorni tanlashdir.

Risk menejmentning boshqaruv tizimi 2 ta ichki tizimlardan iborat: boshqariladigan (boshqaruv ob'yekti) va boshqaruvchi (boshqaruv sub'yekti) ichki tizim. Risk menejmentda boshqaruv ob'yekti bu riskni, ya'ni kapitalni tavakkal qo'yilishi va riskning realizatsiyasi jarayonida xo'jalik sub'yektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu iqtisodiy munosabatlarga sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi, kreditor va qarzdor, tadbirkorlar (sheriklar, raqobatchilar) va hokazolar o'rtasidagi munosabatlar misol bo'ladi.

Risk menejment boshqaruv sub'yekti bo'lib esa turli boshqaruv usul va uslublari orqali boshqaruv ob'yektlarining maqsadli ishlatilishiga ta'sir o'tkazuvchi shaxslarning maxsus guruhi hisoblanadi (Masalan, moliyaviy menejer, sug'urta mutaxassisi, aktuariy, anderrayter va shu kabilar). Sub'yektning boshqaruv ob'yektiga ta'sir qilish jarayoni, ya'ni boshqaruv jarayonining o'zi faqat boshqaruvchi va boshqariluvchi ichki tizimlar o'rtasida ma'lum ma'lumotlar aylanishi sharoitida amalga oshirilishi mumkin. Boshqaruv jarayoni uning aniq tarkibidan qat'iy nazar doim ma'lumotni olish, o'tkazish, qayta ishlash va foydalanishni nazarda tutadi. Risk menejmentda mavjud sharoitlarda aniq va yetarli ma'lumotlar olish katta ahamiyatga ega, chunki u tavakkal qilish (risk) sharoitida aniq qaror qabul qilish imkonini beradi.

Risk menejmentning boshqaruv ob'yekti vazifalari quyidagilarni tashkil etishdan iborat: riskni bartaraf etish; kapitalni yoki moliyaviy resurslarni riskni inobatga olgan holda maqsadli joylashtirish yoki yo'naltirish; riskning xavflilik darajalarini kamaytirish bo'yicha ishlar olib borish; riskni sug'urtalash jarayoni va risni kamaytirish borasida qo'shimcha chora tadbirlar dasturini ishlab chiqish.

Risk menejmentning boshqaruv sub'yekti vazifalari esa quyidagilardan iboratdir:

- riskni bashoratlash (prognozlash);
- riskni boshqarish bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- tartibga solish va muvofiqlashtirish;
- rag'batlantirish va nazorat.

Yuqoridagi vazifalarning barchasi korxonalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni oldindan bashorat qilish va ularni kamaytirish borasida amalga oshiriladigan ishlar dasturini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilishgacha bo'lgan barchadavriy jarayonlarini o'z ichiga oldai.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, iqtisodiyotni rivojlanish siklining har qanday bosqichida ham korxonalarda riskni samarali boshqarish dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun ham korxonalar moliyaviy siyosatini ishlab chiqishda riskni boshqarishga alohida e'tiborni qaratish lozim. Korxonada riskni boshqaruvchi menejerlar yuksak mahorat, nazariy bilimlarning mukammalligi va chuqur amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar xorijiy davlatlarning bu boradagi ilg'or tajribalarini o'rgangan holda amaliyotga tadbiq qilishlari istiqbolda ijobiy natajalarga olib keladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Korxonalarda risklarning vujudga kelish sabablarini tzoqlang?
2. Korxonalar moliyaviy risklarini tasnifi?
3. Korxonalarda risklarni boshqarish masalalari?

MAVZULAR BO'YICHA TAQDIMOT SLAYDLARI VA VIDEO ROLIKLAR

**Тошкент давлат иқтисодиёт
университети**

**Саноат иқтисодиёти
кафедраси**

**Рискларни бошқариш
фанидан тақдимотлар**

**Катта ўқитувчи, PhD.
Ж.С. Файзуллаев**

Тошкент 2019

fppt.com

Рискларни бошқаришнинг фанининг долзарблиги:

Ҳар бир хўжалик юритувчи субъект мустақил равишда муайян вазиятни баҳолайди ва қарор қабул қилади. Хўжалик юритиш фаолияти борган сари **“бозорга кириб”** бормокда, тадбиркорлик фаолиятига қўшилмаган ноаниқ унсурлар олиб кирилмокда, рискларни самарали бошқариш вазиятларини қўллаш қўлами тобора кенгайиб бормокда.

Бугунги кунда амалда бўлган бозор тизимини **таваккал – хатарларсиз** тасаввур этиб бўлмайди. Шу билан иктисодий хавфсизликни таъминлашда корхоналар фаолиятини ривожлантиришда **рискларни самарали бошқариш ва таъсир даражасини минималлаштириш** ўта муҳим масалалардан бири ҳисобланади. Ушбу масалаларни амалга оширишда “Рискларни бошқариш” фанида ўрганиладиган мавзулар ва назарий-амалий масалалар муҳим аҳамият касб этади.

“Рискларни бошқариш” фани корхона фаолиятини самарали олиб боришда **рискларни таъсир даражасини аниқлаш**, уларни бартараф этиш бўйича илмий ва услубий асосларини ўрганади.

fppt.com

Фойдаланиладиган адабиётлар:

- “Human safety and risk management” Third Edition. Glendon A. Ian Published 2016.
- “Risk management: Value at risk and beyond” Edited by Dempster M. University of Cambridge by Published in the United States of America by Cambridge University Press, New York, 2015. P.452.
- Уродовских В. Н. Управление рисками предприятия : учеб. пособие. М. : ИНФРА М, 2011. С. 355.
- Воронцовский А.В. Управление рисками: Учеб.пособие. 2-е изд., испр.и доп. – СПб.: Изд-во С.Петербур. ун-та, 2000; ОЦЭиМ, 2012. – 458 с.
- Чернова Г.В., Кудрявцева А.А. Управление рисками: Учеб, пособие. – М.: Проспект, 2011. – 160 с.
- Ш.Зайнуддинов, Ж.Тўраев Таваккалчиликни бошқариш. Ўқув қўлланма. Тошкент – 2005. – 127б.

fppt.com

1. “Рискларни бошқариш” фанининг предмети, мақсади ва вазифалари

Кейинги йилларда рисклар тадқиқ этилган қатор илмий ишларда уларни минималлаштиришни амалга ошириш борасида маълум натижаларга эришиш таъкидлансада, мазкур жабҳада ҳамон ўз ечимини қутаётган қатор муаммолар мавжудлигини алоҳида қайд этиш лозим. Хусусан, бу жараёнда рискларнинг моҳияти, уларнинг юзага келиш сабаблари ва ўзаро боқлиқлиги, шунингдек, оқибатларини камайитиришга қаратилган фаолият, яъни риск-менежмент имкониятларини тадқиқ этиш иқтисодий фанларнинг долзарб мавзуларидан бири ҳисобланишини қайд этиш ўринлидир.

fppt.com

“Рискларни бошқариш” фанининг предмети

Иқтисодиётнинг турли соҳаларида рискларни таҳлил қилиш, баҳолаш, пасайитириш ва самарали бошқариш билан боғлиқ бўлган иқтисодий муносабатлар ташкил қилади.

fppt.com

“РИСКЛАРНИ БОШҚАРИШ”



ФАНИНИНГ МАҚСАДИ



Келгусида юқори малакали иқтисодчи-мутахассислар бўлиб етишадиган талабалар учун рискларни бошқариш юзасидан назарий-амалий билимларини ошириш, уларни таҳлил қилиш, баҳолаш ва самарали бошқариш юзасидан билим, малака ва кўникма ҳосил қилишдан иборат.

fppt.com

“Рискларни бошқариш” фанининг вазифалари

- ✓ рискларни бошқаришга таъсир этадиган ички ва ташқи омилларни;
- ✓ рискни камайтириш йўлларини аниқлаб, бошқарув фаолиятини тўғри олиб боришни;
- ✓ рискларни бошқаришнинг умумий тамойиллари ва усулларини;
- ✓ республика иқтисодиёти тараққиётининг характерли хусусиятларини;
- ✓ мавжуд ижтимоий-иқтисодий муаммолар ва уларни ҳал этиш механизмларини;
- ✓ рискларни баҳолаш мезонларини;
- ✓ рискларни самарали бошқаришнинг хорижий тажрибасини қўллаш олишни;
- ✓ корхона фаолиятини ривожлантиришда ички ва ташқи рискларни таҳлилин аналга оширишни;
- ✓ риск кўрсаткичлари ва уларни аниқлаш ҳамда баҳолаш усулларини ўргатишдан иборат.

fppt.com

Риск — потенциальная численно измеримая возможность неблагоприятных ситуаций и связанных с ними последствий в виде ущерба, убытков, потерь в связи с неопределенностью.

Неопределенность – неясная, точно не определенная обстановка, неполнота или неточность информации об условиях деятельности.

fppt.com

Причины неопределенности:

1. **Незнание** – неполнота информации о внешней среде, о будущем событии или результате предпринимаемых действий, управленческих решений;
2. **Случайность** – будущее событие в сходных условиях происходит неодинаково (изменение спроса, сбой снабжения и т.д.);
3. **Противодействие** – конкуренция, нарушение договорных обязательств, трудовые конфликты и др.

fppt.com

Неопределенность-Риски-Потери




Рис 1.1 Взаимосвязь категорий: неопределенность - риски - потери

Источники рисков:

1. **По происхождению** - естественно-природные, техногенные и социальные.
2. **В зависимости от возможности предотвращения** - форсмажорные и нефорсмажорные.
3. **В зависимости от сферы возникновения:** внутренние и внешние

Структурные характеристики риска:

1. **Опасность** - потенциальная угроза возникновения ущерба или другой формы реализации риска (носитель риска / окружающая среда);
2. **Подверженность риску** - характеристика ситуации, чреватой возникновением ущерба или другой формы реализации риска;
3. **Уязвимость** - выражает степень возникновения ущерба различного размера в отношении рассматриваемого объекта;
4. **Взаимодействие с другими рисками** - предполагает рассмотрение группы рисков (портфеля рисков).

fppt.com

Как экономическая категория – риск:

это событие, которое может произойти или не произойти.

Возможны три экономических результата:

1. отрицательный (проигрыш, ущерб, убыток);
2. нулевой;
3. положительный (выигрыш, выгода, прибыль).

fppt.com

Экономический риск - возможность случайного возникновения нежелательных убытков, измеряемых в денежном выражении.

Характеристики:

- ✓ возможность возникновения убытка;
- ✓ неопределенность, непредсказуемость, случайность этой возможности;
- ✓ нежелательность возникновения убытка;
- ✓ денежное измерение убытка.

**С экономическим риском сталкивается
любая организация !!!**

fpppt.com

Функции экономического риска:

1. **Инновационная функция** - поиск нетрадиционных решений проблем.
2. **Регулятивная функция** - преодоление стереотипности мышления, консерватизма.
3. **Защитная функция** - терпимое отношение к возможной неудаче.
4. **Аналитическая функция** – анализ альтернатив и выбор наилучших.

fpppt.com

Fanga doir video ma'ruzalar, video roliklar

<https://www.youtube.com/watch?v=vWM08DzTuhY> Risk management

<https://www.youtube.com/watch?v=yedq07biGpC0> Harvard professor Clayton Christensen, disruptive innovation and higher education.

<https://www.youtube.com/watch?v=adpK1VyQpN4Dr> Clayton Christensen | Globalization of Higher education.

<https://www.youtube.com/watch?v=MpYemjwrOuxIClay> Christensen: Principles of Innovation & Measuring Success.

<https://www.youtube.com/watch?v=IkBp1ntD3ZcClay> Christensen and Marc Andreessen at Startup Grind Global 2016.

https://www.youtube.com/watch?v=RQSG_d0mmf0Clayton Christensen (Innovators Dilemma) at Startup Grind 2013

<https://www.youtube.com/watch?v=omYJhCLi9XIA> An Insight, An Idea with Clayton Christensen - World Economic Forum

https://www.youtube.com/watch?v=3q_33CKI9y8Clay Christensen: Disruptive Innovations & Hospital Business Models

<https://www.youtube.com/watch?v=-lGQqCB4f5oY> endogenous Growth Theory

https://www.youtube.com/watch?v=MafD_vN8Cdo Lecture #29 by Matthew e. Kahn on endogenous Technological Change

<https://www.youtube.com/watch?v=rZU0tv6OMI4> Innovation Management at Rutgers Business School

<https://www.youtube.com/watch?v=lxtdIHZtg4> What is Innovation Management by Dr Julian Birkinshaw

<https://www.youtube.com/watch?v=WjXConbBAAI> How Do Innovation Happen Today? Oracle Innovation Management Cloud Can Help!

<https://www.youtube.com/watch?v=q4y4RMqpMbg> "Marketing Innovation" with Eben Pagan

<https://www.youtube.com/watch?v=IN60dJOLaQE> Innovation Marketing at Kellogg Company

<https://www.youtube.com/watch?v=fwZqkq-Ch-s> Stanford Course: Marketing Innovation

<https://www.youtube.com/watch?v=Qag0jl6bFvY> Schumpeter on Innovation and Resentment

https://www.youtube.com/watch?v=5tfYL_mqrNI Giovanni Dosi: Combining Schumpeter and Keynes to Boost Innovation

<https://www.youtube.com/watch?v=tewtukS7K1oR> and D and Innovation: Schumpeterian Paradigm, Monopoly and Perfect Competition (BSE)

<https://www.youtube.com/watch?v=B4ZSGQW0UMI> Business Model Innovation

<https://www.youtube.com/watch?v=rNN2bAV9Qqg> Strategy tools for Business Model Innovation

QO‘LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI SHARHI

QO‘LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI SHARHI

1. Ma’ruza mashg‘ulotlarning tashkil etishning asosiy shakllari

Ma’ruza mashg‘uloti – OO‘Yuda o‘qitishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanadi, bilimlarni birlamchi egallashga yo‘naltirilgan.

Ma’ruzani asosiy belgilanishi – o‘qitishni nazariy asosini ta’minlab berish, o‘quv faoliyatga va aniq o‘quv fanga qiziqishni rivojlantirish, kursantlarga o‘quv kursi ustidan mustaqil ishlash uchun oriyentirlarni shakllantirish.

Ma’ruza materiallarining mazmuni va hajmiga talablar

Ma’ruza materiallarining *mazmuni* quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

- yangilik, ilmiylik, asoslilik va axborot uchun belgilanganlik;
- aniq, ishonchli misol, fakt, asosnoma va ilmiy dalillarning mavjudligi;
- faktga asoslangan (statistik va v.h.) materiallarni ko‘p emasligi.

Ma’ruza materiallarining *hajmi* rejalashtirilgan mavzuni yoritish uchun yetarli bo‘lishi kerak.

Ma’ruzalar turlari vaularga xos xususiyatlar

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi	Ma’ruza turi, uning o‘ziga xos xususiyatlari
<i>Kirish ma’ruzasi</i>	
Fan doirasida o‘quv axborotini o‘zlashtirish bo‘yicha talabalar harakatining yo‘naltiruvchi asosini ta’minlash.	Ta’lim berish tuzilishida motivatsion bosqich hisoblanadi. Uning vazifasi – o‘quv fani mazmuni, uning o‘quv jarayonidagi o‘rni va kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatdagi ahamiyati to‘g‘risida dastlabki tasavvurlarni berish, talabalarni ishlash tizimida yo‘naltirish, oldinda turgan mustaqil ishning uslubiyoti va tashkillashtirishi bilan tanishtirish, hisobot berish vaqti va baholashni aniqlashtirish.
<i>Axborotli ma’ruza</i>	
O‘quv mavzu bo‘yicha tasavvurni shakllantirish	Bu an’anaviy ma’ruza turi: ma’ruza rejasiga muvofiq o‘quv materialini monologik tarzda izchillikda bayon etish.
<i>Muammoli ma’ruza</i>	

O'quv mashg'ulotning maqsadi	Ma'ruza turi, uning o'ziga xos xususiyatlari
Muammoni belgilash va uni yechimini topishni tashkillashtirish/an'anaviy va zamonaviy nuqtai nazarlarni jamlash va tahlil qilish va v.h. orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Yangi bilimlar savol/vazifa/vaziyatlarning muammoligi orqali kiritiladi. Bu jarayonda talabalarning bilishi o'qituvchi bilan hamkorligiga va dialogiga asoslanadi, hamda izlanuvchilik faoliyatiga yaqinlashadi.
<i>Ko'rgazma ma'ruza</i>	
O'TVdan keng foydalanish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma'ruzani o'qish, ko'rib chiqilayotgan ko'rgazmali materiallarni ochib berishga va qisqacha sharhlashga olib keladi.
<i>Binar ma'ruza</i>	
Talabalarga munozara madaniyatini, muammoni hamkorlikda yechishni namoyish etish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma'ruzani o'qish ikki o'qituvchi/2-maktabning ilmiy vakillari/olim va amaliyotchi/o'qituvchi va talabalarning dialogini o'zida namoyon etadi.
<i>Anjuman-ma'ruza</i>	
O'quv axborotni izlash, tanlash va bayon etish jarayonida talabalarning faol ishtiroklarida yoritib berish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Oldindan belgilangan muammo va uni har tomonlama yoritib berish nazarda tutilgan ma'ruzalar tizimi (5-10 daq. davomiyligida) bilan, ilmiy-amaliy mashg'ulot ko'rinishida o'tkaziladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi mustaqil ish va so'zga chiqishlarga yakun yasaydi, axborotni to'ldiradi/aniqlik kiritadi, asosiy xulosalarni ifodalaydi.
<i>Umumlashtiruvchi ma'ruza</i>	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Ma'ruzada bayon etilayotgan nazariy holatlarning negizini kursning yoki katta bo'limlarning ilmiy-tushunchali va konseptual asosi tashkil etadi.
<i>Maslahatli-ma'ruza</i>	
Bilimlarni chuqurlashtirish, tizimlashtirish.	Turlicha ssenariy bo'yicha o'tishi mumkin. 1. "Savol-javoblar"- o'qituvchi bo'lim yoki to'liq kurs bo'yicha talabalar savollariga javob beradi. 2. "Savol-javoblar-munozaralar": o'qituvchi nafaqat savollarga javob beradi, balki javoblarni izlashni ham tashkillashtiradi.
<i>Yakuniy ma'ruza</i>	

O'quv mashg'ulotning maqsadi	Ma'ruza turi, uning o'ziga xos xususiyatlari
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Kursni o'rganishni yakunlaydi, butun davr mobaynida o'tilganlarni umumlashtiradi. Yakuniy ma'ruzada o'qituvchi kursning asosiy g'oyalarini ajratadi, kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatda va boshqa fanlarni o'rganishda olgan bilimlarni qanday qo'llash yo'llarini ko'rsatadi, fan bo'yicha yakuniy nazorat xususiyatini tushuntiradi, yakuniy nazorat variantlarining murakab savollarini tushuntiradi.

2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari

Amaliy mashg'ulot:

- o'quvchilarni o'qituvchi bilan va o'zaro faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan,
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi,
- olingan bilimlarni amaliy foydalanish imkoniyatlarini muhokama qilishga mo'ljallangan mashg'ulotning o'qitish shakli.

Amaliy mashg'ulotning mazmuniga quyiladigan talablar

- muokamaga munozarali savollar olib chiqiladi;
- muhokama qilinuvchi savollar ilm-fanning erishgan zamonaviy yutuqlari tomoni bilan ko'rib chiqiladi;
- nazariya va amaliyotni uzviy birligi ochib beriladi;
- muhokama qilinuvchi materialning talabalarning bo'lg'usi kasbiy faoliyati bilan aloqasi ta'minlanadi;
- ko'rib chiqilayotgan material adabiyotda mavjud emas yoki material, qisman bayon etilgan.

Amaliy mashg'ulotlar turlari va ularga xos xususiyatlari

Amaliy mashg'ulot turi	Amaliy mashg'ulot shakli, uning o'ziga xos xususiyatlari
Talabalarning nazariy bilimlarini tizimlashtirish/ tuzilmaga keltirish/ mustahkamlash/ kengaytirish: - metodologik nuqtai nazaridan eng muhim va o'ziga xos fan	Keng ko'lamli suhbat. Hamma uchun umumiy bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga talabalarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar, so'zga chiquvchi talabalarni kuchli va kuchsiz tomonlariga talbalar diqqatlarini qarata olish, talabalar

mavzularining yaxshi o'rganish. - tushunish va o'zlashtirish uchun murakkab bo'lgan mavzu savollarini batafsil o'rganish. - kasbiy tayyorgarlik sifatini aniqlovchi, alohida asosiy bo'lgan mavzularni batafsil o'rganish.	diqatti va qiziqishini, ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi tomonlarga o'sha vaqtni o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik talabalarni savollarni muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi. Keng ko'lamli suhbat ba'zi savollar bo'yicha alohida talabalarni avvaldan rejalashtirilgan qo'shimcha ravishda so'zga chiqishlarini istisno qilmaydi, balki, taxmin qiladi. Biroq bunday ma'lumotlar muhokama uchun asos bo'lmaydi, balki muhokama qilingan savollar uchun to'ldiruvchi bo'ladi. <i>Ma'ruza va referatlar muhokamasi.</i> Muhokamaga 12—15 daqiqa davomiyligidagi 2-3 ma'ruzadan ko'p bo'lmagan ma'ruzalar olib chiqiladi. Ba'zida qo'shimcha ma'ruzachi va opponentlar (muxoliflar) belgilanadi. Oxirgi chiquvchilar mazmunni qaytarmaslik uchun, ma'ruza matni bilan tanishadilar. Biroq ko'p hollarda, ma'ruzachi va opponentlar, qo'shimcha ma'ruzachilardan tashqari, hech kim seminarga jiddiy tayyorlanmaydi. So'zga chiquvchilarni o'zlari ham faqat bir savolni o'rganadilar. Shu bilan birga, odatiy seminar ishiga "quruq nazariyalik" elementini kiritib, bunday mashg'ulotlar talabalarda ba'zi qiziqishlarni uyg'otadi. Talabalarni har birini qo'shimcha ma'ruzachi yoki opponent sifatida tayyorlanib kelishga o'rgatish juda muhim hisoblanadi. Referatli ma'ruzalarni yakuniy seminarda, uning asosiy savollari avvaldan muhokama qilib bo'lingan, katta bir mavzu bo'yicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. <i>Press-konferensiya.</i> Qisqa so'zga chiqishdan so'ng birinchi savol bo'yicha ma'ruzachiga (agarda ma'ruzalar bir qator talabalarga berilgan bo'lsa, o'qituvchining o'zi ulardan biriga so'z beradi) so'z beriladi. Shundan so'ng har bir talaba ma'ruza mavzusi bo'yicha unga savol berishi lozim. Savol va javoblar seminarining markaziy qismini tashkil etadi. Qancha ko'p jiddiy tayyorgarlik ko'rilsa, savollar shunchalik chuqur va mahoratli beriladi. Savollarga avval ma'ruzachi javob beradi, so'ngra u yoki boshqalar bo'yicha istagan bir talaba o'z fikrini bildirishi mumkin. Bunday holatlarda qo'shimcha ma'ruzachilar, agarda shundaylar belgilangan bo'lsa, faol bo'ladilar. O'qituvchi har bir muhokama
---	---

<i>Ilm-fanningalohida xususiy muammolarini chuqurroq ishlab chiqish.</i>	qilinayotgan savol bo'yicha, yoki seminar yakunida o'z xulosasini qiladi. <i>O'zaro o'qish.</i> Tushunish va o'zlashtirish uchun eng ko'p murakkablikdagi savollarni o'rganish asosiy maqsadga ega bo'lgan, seminar. Seminar mobaynida talabalarni o'zaro o'qishga yo'naltirish muhim hisoblanadi: har kichik-guruhga mavzuning bir savoli beriladi, bu bo'yicha ular ishlaydilar va bunga asos (yekspert varaqlar – savolni yoritish rejasi, tayyorlangan ma'lumotlarni vizual taqdim etish bo'yicha tavsiyalar) beriladi. Ekspert guruhlarning ish natijalari taqdimotidan so'ng o'qituvchi xulosalar qiladi. <i>Yumoloq (yozma /og'zaki) stol.</i> O'tgan mavzu bo'yicha bilimlarni chiqurlashtirish va aniqlashtirish, bor bilimlarni safarbar qilish va har xil vaziyatlarda ularni qo'llash, o'z fikrlarini qisqa va asoslangan xolda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsadga ega bo'lgan, seminar. Har xil ssenariylar bo'yicha o'tkazilishi mumkin. 1. «Yozma yumoloq stol» - talabaning savoli / yechimi topilishi kerak bo'lgan g'oya yozilgan varaq, doira bo'yicha uzatiladi va har bir ishtirokchi o'z mulohazalarini qo'shadi. 2. «Og'zaki yumoloq stol» - har bir talaba qo'yilgan savolning javobiga o'z qo'shimchalarini kiritadi / oldingi ishtirokchi tomonidan taklif qilingan g'oyani qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi. <i>Spetsseminar.</i> Bakalavriyatning 4 kursida, magistraturada o'tkaziladi. Ilmiy mavzu bo'yicha yosh tadqiqotchilarni muloqat maktabini ifodalaydi. Spetsseminar vaqtida talabalarining guruhlarda ishlashga va uni baholashga, ilmiy tadqiqotlar usullaridan foydalanishga intilishlari katta rol o'ynaydi. Spetsseminarning yakuniy mashg'ulotida o'qituvchi, qoidaga ko'ra, seminarlarni va talabalarining ilmiy ishlarini muhokama qilingan muammolarni kelgusida tadqiqotlar qilish istiqbollari va talabalarni ularda ishtiroq etish imkoniyatini ochib umumlashtiradi.
<i>Maxsus (kasbiy) va umumio'quv ko'nikma va</i>	<i>Ta'limiy o'yin.</i> O'qitish samaradorligini uning ishtiroqchilarini nafaqat bilimlarni olish jarayoniga faol jalb qilish, balki ularni

amaliy malakalarni shakllantirish: - amaliy muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechish jarayonida xarakatlar algoritmini aniqlash bilan bog'liq egallagan nazariy bilimlarni amaliy qo'llash.	(hozir va shu yerda) foydalanish orqali oshirishga imkon beradi; o'zgaruvchan vaziyatlarda o'zini tutish taktika ko'nikmalarini shakllantiradi; vykrabatyvayet dinamik rolevogo povedeniya; amaliyot imitatsiyasini ifodalaydi; aniq ko'nikma va malakalarni shakllantirishga va ishlab berishga qaratilgan. Seminar natijaviyligini uning tashkiliy-uslubiy ta'minoti belgilaydi: o'yinning texnologik xaritasini ishlab chiqish; o'yin atributlarini va materiallar paketini: vaziyat bayoni, ishtiroksilar uchun yo'riqnomalar, personajlar ta'rifi (agar o'yin rolli yoki ishbilarmon bo'lsa) yoki vaziyatli ko'rsatmalar (agar o'yin modellashtiruvchi bo'lsa) tayyorlash. Amaliy topshiriqlarni bajarish. Amaliy topshiriqlarning ko'pchiligi kichik guruhlar tarkibida bajariladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnoma berish → o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha yo'riqnoma bilan tanishish → topshiriqni bajarish → natijalarning ommaviy taqdimoti → natijalarni umumlashtirish va baholash. Masalalar yechish bo'yicha mashq. Yakka tartibda amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnoma berish – masalani yechish – natijalarni tanlama taqdimoti - umumlashtirish. Muammoli masalalar va vaziyatlarni yechish. Muammoli masalalar va vaziyatlarni ishlab chiqish juda katta mehnat talab qiladi. Lekin talabalar tomonidan amaliy kasbiy faoliyatdan olingan muammoli masalalarni yechish va muammoli vaziyatlarni ko'rib tahlil qilish nazariyani haqiqiy amaliyot bilan bog'lashga imkon beradi. Bu o'qitishni faollashtirishga imkon beradi, talabalarga o'rganilayotgan materialni amaliy foydasini tushunishga yordam beradi. Ta'lim beruvchi amaliy muammoli vaziyatlarni (keyslarni) yechish. Keys (muammoli vaziyatdan farqli ravishda) talabalarni muammoni ifodalash, muammoli vaziyatni tahlil qilish va baholash, uni maqsadga muvofiq yechim variantlarini qidirishga yo'naltiruvchi tashkilotlar, insonlar guruhi yoki alohida individlarni hayotining muayyan sharoitlarini yozma ravishda taqdim etilgan bayonini o'z ichiga oladi.
---	---

	Keysni yechish jarayoni quyidagi bosqichlarini o‘z ichiga olish muhim: → muammoni yakka tartibda tahlil qilish va yechish, → yakka tartibda topilgan yechimni birgalikda (kichik guruhlarda) tahlil qilish, o‘zaro maqbul yechim variantini rasmiylashtirish, → guruh ishini taqdimoti, → muammoni yechish usul va vositalarining eng maqbul variantini jamoaviy tarzda tanlash. Fiklash jarayoni, muammoli vaziyatni yechish jarayonida paydo bo‘lingan, mustaqil topilgan dalillar oriyentirlarni, kasbiy boyliklarni topishga va mustaqkamlashtirishga, kelgusi kasbiy faoliyati bilan aloqani anglashga ko‘maklashadi. <i>O‘quv loyihalarning taqdimoti va baholanishi</i> Ushbu o‘quv mashg‘ulotini tayyorlashda o‘qituvchining roli quyidagilardan iborat: loyiha topshirig‘ini ishlab chiqish; talabalarga ma‘lumotlarni izlashda yordam berish; o‘zi axborot manbai bo‘lishi; butun jarayonni muvofiqlashtiri; ishtirokchilarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish; uzluksiz qayta aloqani amalga oshirish; maslahat berish. Ushbu o‘quv mashg‘ulotida guruhlar o‘z faoliyatining natijalari to‘g‘risida ma‘ruza qilishadi va uni belgilangan shaklda taqdim etishadi (loyihaviy faoliyatning natijalarini, hamda loyiha maxsulotini tasviriy va og‘zaki taqdimot ko‘rinishida). O‘qituvchi guruhlarining o‘zaro baholanishini tashkillashtiradi va loyiha ishtirokchining faoliyatini baholaydi.
<i>Talabalarni nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish va baholash</i>	<i>Kollokvium.</i> O‘qituvchining talabalar bilan kollokviumlari (suhbatlashuvi) odatda kursning u yoki bu mavzusi bo‘yicha bilimlarini aniqlash, uni chuqurlashtirish maqsadida olib boradi. U ko‘pincha 1) dasturda ko‘zda tutilmagan, lekin talabalarda qiziqish uyg‘otgan qo‘shimcha mavzular bo‘yicha; 2) fanning alohida murakkab, lekin talabalar tomonidan yetarli darajada o‘zlashtirilmagan mavzulari bo‘yicha qo‘shimcha darslar mobaynida; 3) ohirgi seminar mashg‘ulotlarida javob bermagan talabalarni birish darajasini aniqlash uchun.

	Seminar-kollokvium mobaynida ma'ruza, referat va boshq. Yozma ishlar tekshirilishi mumkin. Yozma (nazorat) ish. Talabalar nazorat savollariga javob beradilar/ testlarni yechadilar/ nazorat topshiriqlarini bajaradilar. Ularning to'plamini to'g'ri tuzish muhim hisoblanadi: ular rejalashtirilayotgan o'quv materialni o'zlashtirish darajasiga mos kelishligi kerak va ularni tekshirishni ta'minlashi kerak.
--	--

2. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar

AQLIY HUJUM METODI

Aqliy hujum (breynstroming-aqlar to'zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirishda qo'llaniladigan metod.

♣Metod chegaralangan vaqt oralig'i ichida aniq muammo (savol, masala)ni yechishning noan'anaviy yo'llarini izlash bo'yicha o'quvchilarni aqliy faoliyatini yo'naltirishga asoslangan.

♣O'quv mashg'ulotidagi aqliy hujum uchunmuammoni tanlash quyidagi tamoyillar bo'yicha amalga oshiriladi:

- tanlangan muammo nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi hamda o'quvchilarda faol qiziqish uyg'otishi kerak;

- ko'p har xil ma'nodagi yechim variantlariga ega bo'lishi kerak.

O'qitish texnologiyasini ishlab chiqishda aqliy hujum metodi o'quv mashg'ulotining bir lavhasi yoki butun mashg'ulotni o'tkazish asosi sifatida rejalashtirilgan bo'lishi mumkin.

Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi 1-rasmda keltirilgan.



Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi

INSYeRT TYeXNIKASI

INSYeRT (inglizcha soʻzdan olingan boʻlib - **INSERT** – **I**nteraktive- **i**nterfaol **N**oting – belgilash **S**ystem - tizim for-uchun effective – samarali **R**eyading – oʻqish and– va **T**hinking – fikrlash degan maʼnoni anglatadi).

1) Samarali oʻqish va fikrlash uchun matnda belgilar qoʻyishning interfaol tizimi hisoblanadi.

Matnni belgilash tizimi:

(√) - mening bilganimni tasdiqlovchi axborot;

(+) –men uchun yangi axborot;

(–) - menning bilganlarimga, zid axborot;

(?) - meni oʻylantirib qoʻydi. Bu boʻyicha menga qoʻshimcha axborot kerak.

PINBORD TYeXNIKASI

Pinbord–(inglizchadan: *pin*- mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) – oʻquvchilarni tizimli va mantiqiy fikr bildirishga oʻrgatadigan metod.

Pinbord texnikasi:

1) muammoli masalalar va vaziyatlar, aqliy hujum va amaliy oʻqitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) muammoni yechish variantlarini baholash hamda ular ichidan eng yaxshisini tanlash imkonini beradi;

2) aqliy hujum va amaliy oʻqitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) toifali sharh oʻtkazish imkonini beradi.

Pinbord texnikasining texnologik chizmasi

KYeYS–STADI METODI

KYeYS – (ingl. sase – toʻplam, aniq vaziyat) – nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni yechish jarayonida qoʻllash imkonini beruvchi oʻqitish vositasi.

Keysda bayon qilingan vaziyatni oʻrganib va tahlil qilib, oʻquvchilar oʻzining kelgusidagi kasbiy faoliyatida oʻxshash vaziyatlarda qoʻllashi mumkin boʻlgan tayyor yechimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashg'ulotlarda yechiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilgan) va talab (nimani topish kerak) berilgan bo'lsa, keysda, qoidaga ko'ra, bunday parametrlar mavjud emas.

O'quvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

- keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan bo'lishi kerak;
- bayon qilingan muammoli vaziyatni yechish uchun kerakli va yetarli xajmda ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak
- keysni yechish uchun *uslubiy ko'rsatmalar* bo'lishi kerak.

Keys–stadi (ingl.sase– to'plam, aniq vaziyat, stadi-o'qitish)–amaliy o'qitish vaziyatlarimethodi.

Keys-stadi - o'qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan o'qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o'quvchilarni quyidagilarga undaydi:

- muammoni shakllantirishga;
- amaliy vaziyatni tahlil qilish va baholashga;
- muammo yechimini eng maqbul variantini tanlashga.

O'quv mashg'ulotning o'qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o'rtacha miqdordagi, katta)
2. O'quv topshirig'ini taqdim etish usuli:
 - savolli (savollar keysdan keyin keltiriladi)
 - topshiriqli (topshiriq keys kirish qismining oxirida keltiriladi)

O'QUV LOYIHA METODI

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, ma'lum muddat ichida (bitta o'quv mashg'ulot doirasidan 2-3 oy muddat ichida) ta'lim oluvchi guruhli yoki yakka tartibda berilgan mavzu yuzasidan loyiha topshirig'ini bajaradi. Uning vazifasi – muayyan foydalanuvchiga yo'naltirilgan yangi ma'lumot olish, belgilangan muddat ichida berilgan u yoki bu muammoni ilmiy, texnikaviy yechimidan iborat.

O'quv loyihasi tushunchasi:

- muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan. Talablarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish *usuli*;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv *vosita va qurollari*;

- rivojlantiruvchi, ta'lim-tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan *didaktik vosita*.

ГРАФИК TASHKIL eTUVCHILAR

KLASTER (klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li- barcha tuzilmaning mohiyatini umumlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish asosida aniq biror mazmunni keltirib chiqaradi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va keng jalb qilishda yordam beradi.

Klasterni tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘igayo‘riqnoma

1. Katta qog‘oz varag‘i markazida kalit so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat mavzu nomini aylana ichiga yozing.
2. Kalit so‘z bilan birlashdigan yon tomoniga kichkina hajmdagi aylana-“yo‘ldoshcha” ichiga mavzu bilan aloqador so‘z yoki so‘z birikmasini yozing. Ularni chiziq bilan “bosh” so‘zga bog‘lang.
3. Ushbu “yo‘ldoshcha”larda “kichik yo‘ldoshlar” ham bo‘lishi mumkin, ular ichiga yana so‘z yoki iboralar yozib ajratilgan vaqt tugagunga qadar yoki g‘oyalar tugamagunga qadar davom ettiriladi.

«**NIMA UCHUN?» SXYeMASI** –muammoning dastlabki sababini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri bo‘lib,tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

«Nima uchun?» sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammosababini aniqlash uchun:


- 1) Muammoni yozing va strelka chizig‘ini chiqarib «Nima uchun?» so‘rog‘ini yozing.
- 2) Savolga javob yozib nima uchun so‘rog‘ini takror yozib boravering. Bu jarayonni muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiring

«**BALIQ SKELETI» CHIZMASI** – bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:

1.«Baliq skeletini” chizing:



2. «Suyak»ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o'ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni yozing.

«QANDAY?» IYERARXIK DIAGRAMMASI - muammo to'g'risida umumiy tasavvurlarni olishga, uning yechimini topish usul va vositalarini topishga imkon beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**«Qanday?» diagrammasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga
yo'riqnoma**

«Qanday?» diagrammasini tuzishdan avval, siz quyidagilarni bilishingiz kerak: ko'p hollarda Sizga muammolar hal etishda «Nima qilish kerak?» haqida o'ylashga hojat bo'lmaydi. Muammo yechimini topish uchun asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo'ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

1. Doira chizing va uning ichiga yechilishi lozim bo'lgan muammoni yozing.

2. Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'ying va shu savolga javob bering. Shu tartibda savollarni ketma-ket berib boravering va javoblarni o'ylab o'tirmasdan, solishtirmasdan, baholamasdan, tez-tez yozishda davom eting.

Maslahat va tavsiyalar:

Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko'rinishida, yuqoridan pastga yoki chapdan o'ngga. Eng muhimi esda tuting: nisbatan ko'p miqdordagi foydali g'oyalar va muammo yechimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

Agarda siz muammoni yechimini topish uchun to'g'ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo'nalishini namoyon bo'lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi.

«NILUFAR GULI» CHIZMASI - muammoni hal etish vositasi. O'zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o'z navbatida to'qqizta kichik kvadratdan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

«Nilufar guli» sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammoni hal etish vositalarini topish uchun:

1) O'zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan sxemani chizing. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o'z navbatida to'qqizta kichik kvadratdan iborat;

	B	
	D	
	G	

	Z	
B	Z	C
D	A	F
G	H	Y
	H	

	C	
	F	
	Y	

2) asosiy muammoni markaziy kvadratning markaziga yozing. Uni hal etish g'oyalarini markaziy kvadrat atrofida joylashgan qolgan sakkizta kvadratlarga yozing;

3) har bir ushbu sakkizta g'oyani markaziy kvadrat atrofida joylashgan sakkizta katta kvadrat markaziga o'tkazing, boshqacha aytganda, nilufar gulidan uning gul bargiga o'tkazing. Shunday qilib, ular har biri, o'z navbatida, yana bir muammo sifatida qaraladi.

MUSTAQIL TA'LIMGA OID TOPSHIRIQLAR

MUSTAQIL TA'LIMGA OID TOPSHIRIQLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Korxona faoliyatida risklarni boshqarish tizimining tutgan o'rni.
2. Risklarni kamaytirish yo'llari.
3. Risklarni boshqarishning asosiy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari.
4. Korxona faoliyatini jadallashtirish sharoitida riskni kamaytirish usullaridan foydalanish.
5. Risklarni boshqarishning nazariy va amaliy asoslari.
6. Boshqaruv jarayonini tashkil etishda risklarning o'ziga xos ahamiyati.
7. Risk sharoitida boshqaruv qarorlari va ularni ishlab chiqish.
8. Risk darajasini oshishiga ta'sir etuvchi omillar.
9. Risklarni boshqarish samaradorligi.
10. Risk turlari va ta'sir darajasini minimallashtirish usullari.
11. Moliyaviy risk, moliyaviy risk chegaralari va xedjirlash.
12. Risklarni o'lchash usullari.
13. Risklarni boshqarishda sug'urtalash.
14. Korxonalarni samarali boshqarishda risk darajasini aniqlash usullari.
15. Risklarni boshqarishni takomillashtirish va uning samaradorligi.
16. Sanoat korxonalarida risklarning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.
17. Sanoat korxonalarida risklarni baholash.
18. Risklarning iqtisodiy ko'rsatkichlari va ularni baholash usullari.
19. Sanoat korxonalarida risklarni boshqarish usullari va funksiyalari
20. Korxonalarda risklarni ta'sir darajasini minimallashtirishning iqtisodiy-matematik modeli.

GLOSSARIYLAR

GLOSSARIY

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning o'zbek tilidagi ma'nosini ifodalanishi
Aksiya	Aksiya	Stock	– qimmatbaho qog'oz, u hissadorlik jamiyatini rivojlantirishga mablag' sarflanganligi dalolati bo'lib, uning egasiga hissadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividend tariqasida olish huququni beradi.
Asosiy fondlar	Основные фонды	Fixed capital	– o'zining buyum shaklini o'zgartirmagan holda xo'jalik faoliyatida ko'p martalab foydalaniladigan mehnat vositalari.
Biznes	Biznes	Business	– tadbirkorlik faoliyati yoki insonlarning foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir.
Bozor infra-tuzilmasi	Рыночная инфраструктура	Market infrastructure	– mahsulot (xizmatlar) ishlab chiqaruvchini iste'molchi bilan Yagona bozor makonida birlashtirib, ishlab chiqarish va iste'mol ko'lamlari o'rtasidagi ziddiyatli bartaraf etuvchi va uning barcha ishtirokchilari oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishlarini ta'minlovchi muassasalar va vositachilik tarkiblari tizimi.
Daromad	Doxod	The income	– tadbirkorlik yoki boshqa faoliyat natijasida pul yoki natura shaklida olinadigan mablag'lar.
Diversifikatsiya	Diversifikatsiya	Diversification	– ishlab chiqarishni ko'pdan-ko'p, bir-biri bilan bog'lanmagan turlarini bir vaqtda rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turini kengaytirish.
Dividend	Dividend	The dividend	– hissadorlik jamiyati foydasining (solliqlar to'lanib, barcha qarz beruvchilar bilan hisob-kitob qilinganidan keyingi) hissadorlar o'rtasida ular qo'lidagi aktsiyalarga mutanosib tarzda taqsimlanadigan qismi.

Investitsiya	Investisiya	The investment	– foyda olish maqsadida sarmoyani biror korxonaga uzoq muddatli sarflash.
Iqtisodiyot	Ekonomika	Yeconomy	– mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo‘jaliklardan, xo‘jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo‘shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o‘rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o‘ta murakkab ijtimoiy tizim.
Iqtisodiy faoliyat	Ekonomicheskaya deyatel'nost	Yeconomic activity	– cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste‘molchilarga etkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog‘liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar majmui.
Ishlab chiqarish	Proizvodstvo	Production	– kishilik jamiyatining mavjud bo‘lishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy ne‘matlarni yaratish jarayoni.
Iqtisodiy resurslar	Ekonomicheskiye resursy	Yeconomic resources	– tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarida foydalanish mumkin bo‘lgan barcha vosita va imkoniyatlar majmui.
Infratuzilma	Infrastruktura	Infrastructure	– takror ishlab chiqarish shart-sharoitlarini ta‘minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari majmui: transport, aloqa, konsalting, audit, injiniring.
Ijara	Arenda	Rent	– mulk egasi - ijarga beruvchi bilan ijaraga oluvchi o‘rtasidagi shartnoma bo‘lib, ijarachi mulkni muayyan to‘lov hisobiga to‘la yoki qisman egalik qilgan holda vaqtincha foydalanish uchun oladi, xo‘jalik faoliyati yoki boshqa maqsadlarni mustaqil amalga oshiradi. Amalda ijaraning <i>renting</i> – qisqa muddatli, <i>xayring</i> – o‘rta muddatli va <i>lizing</i> – uzoq muddatli turlari mavjud.

Ishlab chiqarish	Proizvodstvo	Manufacture	– biznes korxonalarining asosiy faoliyat turi bo‘lib, bu jarayon cheklangan resurslardan foydalangan holda amalga oshiriladi.
Iqtisodiy-matematik usullar	Ekonomiko-matematichesk iye metody	Yeconomic-mathematical methods	– kompleks iqtisodiy va matematik ilmiy fanlarning umumiy nomi bo‘lib, ular yordamida iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish vositalari ishlab chiqiladi.
Iqtisodiy resurslar	Ekonomicheskiye resursy	Yeconomic resources	– iqtisodiy ne‘matlarni ishlab chiqarishda qatnashadigan elementlar (yer, mehnat, kapital, tadbirkorlik qobiliyati va axborot)
Iqtisodiy o‘shish	Ekonomicheskiy rost	Yeconomic growth	– mamlakat miqyosida yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga yildan-yilga barqaror o‘shib borish jarayoni.
Kichik korxona	Maloye predpriyatiye	Small enterprise	– «O‘zbekiston Respublikasida kichik korxonalar to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq, mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, yuridik shaxs huquqlariga ega bo‘lgan mustaqil xo‘jalik sub’yekti kichik korxona hisoblanadi.
Tasniflash	Klassifikatsiya	Classification	– jarayon va hodisalarni ma’lum bir belgilar va xususiyatlar bo‘yicha ajratish.
Kontsern	Konsern	Concyern	– ma’lum bir turdagi vazifalarni bajarish uchun vaqtincha tuzilgan ilmiy-texnikaviy, investitsion tarkibiy, moliyaviy va tashqi iqtisodiy siyosatni hamda tegishli resurslarni markazlashtiruvchi korxonalar birlashmasi.
Kon’yunktura	Kon’yunktura	Conjuncture	– bozor mexanizmi sharoitlarida rivojlanishning qonuniyatli shakllari davlat tomonidan tartibga solinishi va raqobatning, iste’molchilar, korporatsiyalar hamda davlat muassasalari va korxonalari tomonidan qaror qabul qilishdagi mutaqillikning muvozanati bilan belgilanuvchi jarayonlar: muayyan iqtisodiy faoliyat omillari va shart-sharoitlari yig‘indisi.
Korporatsiya	Korporatsiya	Corporation	– hissadorlik jamiyati yoki hissadorlik birlashmasi ko‘rinishidagi huquqiy

			shaxs shakli. U chiqarilgan aksiyalar qiymati bilan cheklangan majburiyatlar bo'yicha mas'uliyatli bo'ladi, o'z nomidan tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlarni bajarish, kontraktlar tuzish, qarz olish yoki berish, boshqa har qanday fuqarolik harakatlarini amalga oshirish huquqiga ega.
Korxona mulki	Sobstvennost predpriyatiya	The enterprise property	– korxonaga tegishli asosiy fondlar va aylanma mablag'lar, shuningdek, boshqa moddiy va moliyaviy resurslarni o'z ichiga oladi, ularning miqdori korxonaning mustaqil balansida aks etadi. Korxonaning mulki uning moddiy-texnika bazasi va mablag'larini tashkil etadi.
Litsenziya	Lisenziya	The licyencye	– davlat organlarining chet elga mol chiqarishga yoki chet eldan mol keltirishga ruxsati.
Matematik modellashtirish	Matematichesk oye modelirovaniye	Mathematical modelling	– o'rganilayotgan jarayonlarni matematik tenglamalar va tengsizliklar ko'rinishida ifodalash usulidir.
Materiallar	Materialy	Materials	– ishlab chiqarish jarayonida tayyor mahsulotga aylanadigan har qanday moddiy buyumlar.
Mehnat unumdorligi	Proizvoditelnost truda	Labour productivity	– korxonada bitta ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi.
Raqobat	Konkurensiya	Competition	– bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi firma va korxonalarning iqtisodiy musobaqasi.
Reja	Plan	The plan	– biror natijaga erishish uchun oldinda belgilab olingan sxemaga asosan bosiqichma-bosqich harakat qilish jarayoni.
Resurslar	Resursy	Resourcyes	– iqtisodiyotdagi ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalaniladigan barcha zahiralalar va texnologik omillarning real oqimlari.
Sintez	Sintez	Synthesis	– tizimda faoliyat qilayotgan elementlarni bir butunga birlashtirib o'rganuvchi usul.

Tadbirkorlik qobiliyati	Predprinimatel skaya sposobnost	Yenterprise capability	– o‘ziga xos bo‘lgan shunday inson resursi tushuniladiki, u o‘zidan boshqa ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalana olish qobiliyatini mujassamlashtirgan.
Tahlil	Analiz	The analysis	– o‘rganiladigan ob‘yektlarni tashkil etuvchi elementlarga bo‘luvchi, ularning tizimdagi o‘rni va rolini tushuntirib beruvchi, shu bilan birga tizim tarkibini aniqlovchi usul.
Texnologiya	Texnologiya	Technology	– tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi amaliy bilimlar.
Tizim tarkibi	Struktura sistema	System structure	– elementlar tarkibi va ularni birlashtirish usullari.
Umumiy xarajat	Obshchiye izderjki	Total costs	– qisqa muddatli oraliqda ma‘lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan o‘zgarmas va o‘zgaruvchan xarajatlar yig‘indisi.
Firma	Firma	Firm	– ishlab chiqarish resurslari egalarining qarorlarini va manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi institutsional tuzilma.
Foyda	Prilyl	Profit	– umumiy daromaddan umumiy xarajatlarni chegirib tashlangan qismi.
Xususiy tadbirkorlik	Chastnoye predprinimatels tvo	Private business	– «O‘zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq xususiy tadbirkorlik alohida bir kishi yoki kishilar guruhi tomonidan shaxsiy daromad yoki foyda olish uchun o‘z mulkiy javobgarligi asosida, amaldagi qonunlar doirasida, yollanma mehnatni jalb qilgan holda amalga oshiriluvchi tashabbuskor xo‘jalik faoliyatini anglatadi.
Dastgox	Stanok	Machine	metall, yog‘och, tosh, suyak va b. predmetga ishlov beradigan mashina
Texnika	Texnika	Yequipment	ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish va jamoatning turmush talablarini qondirish uchun yaratilgan vositalar majmui
Texnologik jarayon	Texnologiches kiy proress	Technological procyess	ishlab chiqarishning asosini tashkil etib, xomashyolarni ishlab chiqarish (iste‘mol) mahsulotlariga aylantirish

			jarayonida sarflanadigan ishlar majmuidan iboratdir
Texnologiya	Texnologiya	Technology	tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida (xomashyo, material yoki yarim fabrikatlarga ishlov berish, tayyorlash) qo'llaniladigan usul va usullar majmui
Xomashyo	Сырьо	Raw materials	mehnat ta'sirida o'zgargan, ammo yana ishlanishi lozim bo'lgan mehnat predmeti
Iqtisodiy faoliyat	Ekonomicheskaya deyatel'nost	yeconomic activity	– cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga etkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar majmui.
Ishlab chiqarish	Proizvodstvo	Production	– kishilik jamiyatining mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni yaratish jarayoni.
Yoqilg'i	Energiya	Yenergy	yonganda issiqlik ajratadigan, uglerodli va uglevodorodli moddalar, energiya manbai. qattiq, suyuq va gaz holatida bo'ladi, tabiiy va sun'iy xillarga bo'linadi
Ishlab chiqarish sikli	Proizvodstvenn ыy sikl	Production cycle	ma'lum sanoat korxonasida muayyan mahsulotni tayyorlash uchun zarur bo'lgan vaqt

**TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON JURNALLAR VA INTERNET
SAYTLAR**

TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON JURNALLAR VA INTERNET SAYTLAR

Yelektron jurnallar

1. International Journal of Business Forecasting and innovation.
www.indersciencye.com
2. Ansoff matrix. www.freye-management-yebooks.com
3. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy-yelektron jurnal.
www.iqtisodiyot.uz
4. Ekonomicheskoye obozreniye. www.cyer.uz
5. Journal of Innovation. www.ama.org

Internet saytlar

1. <http://www.mineconomy.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi rasmiy sayti
2. <http://www.mehnat.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari Vazirligi rasmiy sayti
3. <http://www.mf.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi rasmiy sayti
4. <http://www.gkk.uz> - O‘zbekiston Respublikasi xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi rasmiy sayti
5. <http://www.stat.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi rasmiy sayti
6. <http://www.invest.gov.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha Davlat Qo‘mitasi rasmiy sayti
7. <http://www.standart.uz> -O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi rasmiy sayti
8. <http://www.ima.uz> -O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi rasmiy sayti
9. <http://www.academy.uz>- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi rasmiy sayti
10. <http://www.cbu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti
11. <http://www.wta.org> - Xalqaro savdo tashkiloti sayti
12. <http://www.semi.rssi.ru>– Rossiya Federatsiyasi Markaziy-iqtisodiy matematika instituti sayti.
13. <http://www.nber.com>– AQSH iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi sayti.
14. <http://www.wybofsciencye.com>- Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
15. <http://www.scopus.com> – Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
16. <http://www.yelibrary.ru> – Rossiya ilmiy maqolalar indeksi.
17. www.digitalmetricsplaybook.com
18. www.innovato.com
19. www.bizneslab.uz
20. www.study.com
21. www.indersciencye.com
22. www.freye-management-yebooks.com

Axmadjon Ergashev

Risklarni boshqarish

Fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua

Ma'ruza mashg'uloti uchun

Namangan: Iqtisodiyot, 2024 yil, 184 bet.